

Эркин МАЛИК



Бир кун  
Зулфия она...

УЎК: 821.512.133-3

КБК 84(5Ў)7

Э – 22

**Масъул муҳаррир**

***Улугбек Раҳимов***

Э – 22 **Малик, Эркин.**

Бир куни Зулфия она... – Т.: 2017. – 304 б.

Ёзувчи Эркин Маликнинг ушбу китоби “Бир куни Зулфия она...” деб номланади. Атокли ижодкорлар ҳақида бу мавзуда асарлар етарли. Шу сабабдан бу ҳам сўраб, эшитиб, ўқиб жамланган хотира китобларидан биридир-да, деган фикрга борганлар адашишади. Чунки, бу китоб улардан бугундай фарқ қилади. Фарқи шундаки, муаллиф қоғозга туширган ҳаётий лавҳаларда ўзи бевосита иштирок этган, гувоҳи бўлган.

Китобнинг қиммати ҳам ана шунда.

**ISBN 978-9943-4840-1-6**

© Эркин Малик, 2017.

© “Шарқ зиё – заковат”  
нашриёти, 2017.



UO'K: 821.512.133-3

UBK 84(50)7

№ 22

**Mas'ul muharrir**

*Ulug'bek Rahimov*

№ 22 **Malik, Erkin.**

Bir kuni Zulfiya opa... - T.: 2017. -- 304-b.

Yozuvchi Erkin Malikning ushbu kitobi “Bir kuni Zulfiya opa...” deb nomlanadi. Atoqli ijodkorlar haqida bu mavzuda asarlar yetarli. Shu sababdan bu ham so‘rab, eshitib, o‘qib jamlangan xotira kitoblaridan biridir-da, degan fikrga borganlar qo‘shiladi. Chunki, bu kitob ulardan butunlay farq qiladi. Farqi shundaki, muallif qog‘ozga tushirgan tayotiy lavhalarda o‘zi bevosita ishtirok etgan, muvohir bo‘lgan.

Kitobning qimmatini ham ana shunda.

ISBN 978-9943-4840-1-6

© Erkin Malik, 2017.

© “Sharq ziyo – zakovat”  
nashriyoti, 2017.

## OLAM BIR XILQAT BO'LSA...

*Zulfiya! Birgina shu ismning o'ziga katta bir davrni, unda yashab o'tgan Hamid Olimjon, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, G'ayratiy, Asqad Muxtor va boshqa ulug' ustozlarni yodga soladi. Ular tariximiz sahifalariga katta harflar bilan yozilgan SHAXSlardir. Ajabo, bunday ulug'vor shaxslar dunyo tamaddunida qanday paydo bo'ladilar? Ularning hayot yo'llari boshqalardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi? Yozgan asarlari bilanmi yoki insoniy lutfi, latif, betakror fazilatlari bilanmi?*

Zulfiya opa bir kuni texnik muharririmiz Olimjon aka Hakimov ikkovimizni kabinetlariga chaqirib (men "Saodat"da mas'ul kotib edim):

Shanba kunga vaqtiylar qanaqa? – deb so'rab qoldilar sal xijolat bilan.

Bo'shmiz, opa, – dedik ikkovimiz ham baravariga o'ylab o'tirmay.

Unda gap bunday, yigitlar, shu... menga

Дўрмондаги ёзувчилар боғидан дала ҳовли учун ер ажратишган, курувчилар шанба куни иш бошлашмоқчи, шунга битта ош дамлаб, расм-русумини қилиб келасизларми, деган эдим. Харажатини Собиржонга (шофёрлари) бериб қўйдим. Удимимизда шунақа ишлар қилишади, шекилли-а, – дедилар ўсмоқчилаб.

– Шундай, шундай, опа... жуда зўр иш бўпти-да, муборак бўлсин, – яйраб кетди Олимжон ака. У киши бунақа ишларни дўндирад, чойхонапаловни бошлар эдилар. Опа кўп қаватли биноларнинг учинчи қаватида яшар, шаҳар ташқарисидан, шунақа бир соя-салқин жой уларга жудаям зарур эди.

Ҳузурларидан чиқар эканмиз:

– Ҳа... – деб бир нима эсларидан чиққандек бизни тўхтатдилар, Опа, – бу гаплар шетта қолсин-а, шамолламасин-а...

Олимжон ака икковимиз бир-биримизга қараб, “хўп, Опа” дегандек қўл қовуштирдик.

Аммо ими-жимидида шундоқ катта қурилишни қуриб бўларканми, деган ўй хаёлимдан ўтди. Опа ўта содда ва самимий инсон эдилар. Аммо “шамолламасин-а”, деган гап-

нинг таг заминини эртасига қозон бошида билдим. Собир ака прорабни ёнига чақириб: “Ишчиларингга айтиб қўй, Опа ош қилиб берди, деб оғизларидан гуллаб юришмасин тағин, бошқаларнинг кўнглига келиб қолади-я”, деб тайинлади. Ҳа, атрофда кўшни дачалар ҳам қурила бошлаган эди. Тўғрида, ҳаммада ҳам бунақа имконият бўлмаслиги мумкин. Шунақа, Опа бошқалардан ажраб кўринишни сираям хоҳламас, ҳамма қатори бўлишга ҳаракат қилардилар. Лекин ҳамма нимагадир, Опага ўхшашга интиларди. “Қаддингизга қараб, қаддимни ростлайман”, деб шеърлар битарди шоира қизлар.

Шундай қилиб, дала ҳовли битгунча ҳар шанба Дўрмонга чиқиб, ими-жимида қурувчиларни зиёфат қилиб турдик. Улар орасида иккита татар опа бор эди. Сувоқчилик қиларди. Иккови ҳам китобхон экан, Опанинг шеърларини ёқтириб ўқишаркан. Уларнинг бирдан-бир орзуси Опани яқиндан кўриш-у, дийдорига тўйиш. “Дачани қанча тез битирсанглар, Опани шунча тез кўрасизлар”, деб қизиқтирган бўлардим мен. Улар: “Опа биз

edilar. Ammo “shamollamasin-a”, degan gapning tag zaminini ertasiga qozon boshida bildim. Sobir aka prorabni yoniga chaqirib: “Ishchilaringga aytib qo‘y, Opa osh qilib berdi, deb og‘izlaridan gullab yurishmasin tag‘in, boshqalarning ko‘ngliga kelib qoladi-ya”, deb tayinladi. Ha, atrofda qo‘shni dachalar ham qurila boshlagan edi. To‘g‘rida, hammada ham bunaqa imkoniyat bo‘lmasligi mumkin. Shunaqa, Opa boshqalardan ajrab ko‘rinishni sirayam xohlamas, hamma qatori bo‘lishga harakat qilardilar. Lekin hamma nimagadir, Opaga o‘xshashga intilardi. “Qaddingizga qarab, qaddimni rostlayman”, deb she‘rlar bitardi shoira qizlar.

Shunday qilib, dala hovli bitguncha har shanba Do‘rmonga chiqib, imi-jimida quruvchilarni ziyofat qilib turdik. Ular orasida ikkita tatar opa bor edi. Suvoqchilik qilardi. Ikkovi ham kitobxon ekan, Opaning she‘rlarini yoqtirib o‘qisharkan. Ularning birdan-bir orzusi Opani yaqindan ko‘rish-u, diydoriga to‘yish. “Dachani qancha tez bitirsanglar,

матур этиб суваған уйларда матур-матур, шеърлар ёзалар”, деб фахрланиб кўйишарди.

Ниҳоят дала ҳовли битди. Опа қурувчилар билан учрашиб, ўз миннатдорчиликларини билдирадиган кун ҳам стиб келди. Шунда мени хузурларига чакириб, қурувчиларнинг нечталигини сўраб қолдилар. Мен прораби билан саккизта, шундан иккитаси аёллигини айтдим.

Шанба куни эрта билан Собиржон ака Олимжон акани ош харажатлари билан Дўрмонга ташлаб келдилар. Опа билан Қибрайга бордик. Марказда газламалар, кийим-кечаклар дўкони бор эди. Кирдик. Сотувчилар Опани таниб, нима қиларини билмай, довдираб қолишди. Харидорларнинг кўзи ҳам Опада. Опа ҳамма билан ёппасига салом-алик қилган бўлдилар-да, ўзларига интилиб турган сотувчи аёлни бағрига тортиб кўришдилар-да, менга қараб: “Сиз эркаклар кўйлагидан олти дона, энг яхшисидан танланг”, дедилар ва сотувчи аёл билан бошлашиб ичкари хонага кириб кетдилар.



Opani shuncha tez ko‘rasizlar”, deb qiziqtirgan bo‘lardim men. Ular: “Opa biz matur etib suvag‘an uylarda matur-matur, she‘rlar yoza-lar”, deb faxrlanib qo‘yishardi.

Nihoyat dala hovli bitdi. Opa quruvchilar bilan uchrashib, o‘z minnatdorchiliklarini bildiradigan kun ham yetib keldi. Shunda meni huzurlariga chaqirib, quruvchilarning nechtaligini so‘rab qoldilar. Men prorabi bilan sakkizta, shundan ikkitasi ayolligini aytdim.

Shanba kuni erta bilan Sobirjon aka Olimjon akani osh xarajatlari bilan Do‘rmonga tashlab keldilar. Opa bilan Qibrayga bordik. Markazda gazlamalar, kiyim-kechaklar do‘koni bor edi. Kirdik. Sotuvchilar Opani tanib, nima qilarini bilmay, dovdirab qolishdi. Xaridorlarning ko‘zi ham Opada. Opa hamma bilan yoppasiga salom-alik qilgan bo‘ldilar-da, o‘zlariga intilib turgan sotuvchi ayolni bag‘riga tortib ko‘rishdilar-da, menga qarab: “Siz erkaklar ko‘yligidan olti dona, eng yaxshisidan tanlang”, dedilar va sotuvchi ayol bilan boshlashib ichkari xonaga kirib ketdilar.

Мен эркаклар бўлимидаги кишига юзландим. Ўша пайтларда ёқасига “Мистер – Д” деб ёзилган эркаклар кўйлаги урф бўлган, дўконларда фақат пештахта тагидан, ўшанда ҳам таниш-билишларга сотиларди. Мен тап тортмай, шу кўйлақдан олти дона топинг, дедим. Сотувчи саросимага тушиб қолди-ю, аммо йўқ дея олмади. Бир йигитни қайгадир (уйига бўлса керак) югуртирди. Сездим, Опа ичкарига кириб, сувоқчи опаларга кўйлақлик танлаяптилар. Пештахта устидагиларга шундоқ бир кўз ташлашдаёқ Опага ёқмади. У киши кимга нимани соғинсалар ўзлари яхши кўрган асл нарсаларни хадя қилар эдилар. Бунақа ишларга шунчаки қарамасдилар. “Ҳар қандай совға ўз эгасини эслатиб турмоғи керак”, деганларини эшитганман.

Дўрмонга бордик. Қурувчилар ишчи жомакоридамас, меҳмонга келгандек башанг кийимларда Опани кутиб олдилар. Опа ҳар бирлари билан синиқлик билан, бир-бир қўл олиб сўрашдилар. Улар онага ҳайрат ичида ийманибгина қўл чўзишар, жуда бахти-

Men erkaklar bo'limidagi kishiga yuzlandim. O'sha paytlarda yoqasiga "Mister – D" deb yozilgan erkaklar ko'ylagi urf bo'lgan, do'konlarda faqat peshtaxta tagidan, o'shanda ham tanish-bilishlarga sotilardi. Men tap tortmay, shu ko'ylakdan olti dona toping, dedim. Sotuvchi sarosimaga tushib qoldi-yu, ammo yo'q deya olmadim. Bir yigitni qaygadir (uyiga bo'lsa kerak) yugurtirdi. Sezdim, Opa ichkariga kirib, suvoqchi opalarga ko'ylaklik tanlayaptilar. Peshtaxta ustidagilarga shundoq bir ko'z tashlashdayoq Opaga yoqmadi. U kishi kimga nimani sog'insalar o'zlari yaxshi ko'rgan asl narsalarni hadya qilar edilar. Bunaqa ishlarga shunchaki qaramasdilar. "Har qanday sovg'a o'z egasini eslatib turmog'i kerak", deganlarini eshitganman.

Do'rmonga bordik. Quruvchilar ishchi jomakoridamas, mehmonga kelgandek bashang kiyimlarda Opani kutib oldilar. Opa har birlari bilan siniqlik bilan, bir-bir qo'l olib so'rashdilar. Ular opaga hayrat ichida iymajibgina qo'l cho'zishar, juda baxtiyor

ёр эдилар. Татар аёллар “рухсат этигиз” деб опани кучоклаб, камига кўлларини ўпиб кўришдилар. Ўз санъатларини намойиш қилиш учун шоирани ичкари бошлашди. Опа бўёқдан чиққан хоналарни юзлари кулиб, бир-бир кўздан кечирар, нукул қайта-қайта “Ташаккур, ташаккур, бирам чиройли бўпти”, деб қўярдилар. Бирор жойи ундоқ бўпти, бундоқ бўлиши керак эди, демадилар. Бино чиндан ҳам, меҳр билан қурилган, айти дам-да ҳар бир хонаси Опанинг ўзидек кулиб турарди. Бўёқлари ҳам дид билан танланган.

Мен шу қувонч, шу тантана орасида бояги совғаларни ўз кўллари билан топширишларини жудаям хоҳлар, шунга зийрак бўлиб, Опанинг ишорасини кутардим. Совғалар машинада эди. Нимагадир Опа совғаларни эздан чиқаргандек, бепарво. Худди уларни қурувчиларга эмас, бошқа бир зарурат учун олгандек. Опа ишчилар билан хайрлашиб, машинага ўтирдилар-да, менга ҳам “ўтиринг” ишорасини килдилар. Ҳайрон бўлдим. Совғалар-чи? Олимжон ака қозон бошида

edilar. Tatar ayollar “ruxsat etigiz” deb opani quchoqlab, kamiga qo‘llarini o‘pib ko‘rishdilar. O‘z san‘atlarini namoyish qilish uchun shoirani ichkari boshlashdi. Opa bo‘yoqdan chiqqan xonalarni yuzlari kulib, bir-bir ko‘zdan kechirar, nuqul qayta-qayta “Tashakkur, tashakkur, biram chiroyli bo‘pti”, deb qo‘yardilar. Biror joyi undoq bo‘pti, bundoq bo‘lishi kerak edi, demadilar. Bino chindan ham, mehr bilan qurilgan, ayni damda har bir xonasi Opaning o‘zidek kulib turardi. Bo‘yoqlari ham did bilan tanlangan.

Men shu quvonch, shu tantana orasida boyagi sovg‘alarni o‘z qo‘llari bilan topshirishlarini judayam xohlar, shunga ziyrak bo‘lib, opaning ishorasini kutardim. Sovg‘alar mashinada edi. Nimagadir Opa sovg‘alarni esdan chiqargandek, beparvo. Xuddi ularni quruvchilarga emas, boshqa bir zarurat uchun olgandek. Opa ishchilar bilan xayrlashib, mashinaga o‘tirdilar-da, menga ham “o‘tiring” ishorasini qildilar. Hayron bo‘ldim. Sovg‘alar-chi? Olimjon aka qozon boshida

оркадан мўлтираганича қараб қолди. Бир оз юргач, Опа машинани тўхтатиб:

– Совғаларни олинг-да, ошни еб бўлгач, эгаларига менинг номимдан ўзингиз топширинг. Собиржон кечроқ келиб Олимжон икковингизни олиб кетади, – дедилар.

Опа шу дақиқ паллада ҳам худди ҳадисдагидек ўнг қўлинг берганини чап қўлинг билмасин деган бир ишни қилдилар. Ҳа, “Зулфия дачасини қуриб берганларга ўз қўли билан совға-саломлар улашибди”, дейишларини хоҳламадилар.

Энг қизиқ ҳолат эртасига бўлди. Прораб бир шода калитни кўтариб, ишхонага кириб келди. Дачанинг калитлари экан, уларни менга ташлаб кетмоқчи бўлди. Олиб қолсам ҳам бўларди. Нимагадир иккиландим. Иккиланиб яхши қилибман.

– Йўқ, ўз қўлингиз билан Опага топширгангиз яхши, – деб Опанинг хузурига бошлаб кирдим.

Прораб салом-алиқдан кейин калитлар шодасини қўшқўллаб Опага тутди.

orqadan mo'ltiraganicha qarab qoldi. Bir oz yurgach, Opa mashinani to'xtatib:

– Sovg'alarni oling-da, oshni yeb bo'lgach, egalariga mening nomimdan o'zingiz topshiring. Sobirjon kechroq kelib Olimjon ikkovingizni olib ketadi, – dedilar.

Opa shu daqiq pallada ham xuddi hadisdagidek o'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin degan bir ishni qildilar. Ha, "Zulfiya dachasini qurib berganlarga o'z qo'li bilan sovg'a-salomlar ulashibdi", deyishlarini xohlamadilar.

Eng qiziq holat ertasiga bo'ldi. Prorab bir shoda kalitni ko'tarib, ishxonaga kirib keldi. Dachaning kalitlari ekan, ularni menga tashlab ketmoqchi bo'ldi. Olib qolsam ham bo'lardi. Nimagadir ikkilandim. Ikkilanib yaxshi qilibman.

– Yo'q, o'z qo'lingiz bilan Opaga topshirganingiz yaxshi, – deb Opaning huzuriga boshlab kirdim.

Prorab salom-alikdan keyin ~~kalitlar~~ shodasini qo'shqo'llab Opaga tutdi.

– Шошманг, – деди Опа, – калитни менгамас, қурилиш трестига топширинг, трестдан озроқ карзим бор, ўшани олдин тўлай, кейин калитни олиш қочмас, – дедилар.

Прораб хайрлашиб, бошини ликиллатганича кабинетдан чиқиб кетди...

Шунақа, азизлар, олам бир хилқат бўлса, Зулфия опа хилқат ичидаги бир хилқат эдилар...





– Shoshmang, – dedi Opa, – kalitni mengamas, qurilish trestiga topshiring, trestdan ozroq qarzim bor, o‘shani oldin to‘lay, keyin kalitni olish qochmas, – dedilar.

Prorab xayrlashib, boshini likillatganicha kabinetdan chiqib ketdi...

Shunaqa, azizlar, olam bir xilqat bo‘lsa, Zulfiya opa xilqat ichidagi bir xilqat edilar...



## ДАРС

*Гап-гаштакларда “зийрак, ўта зийрак” деган иборани кўп ишлатамиз. Зийраклик қанақа бўлади ўзи? Ушбу ҳикоя ана шу ҳақда.*

“Саодат”нинг ҳар бир сони муқовасида чиройли бир аёлнинг сурати берилиб, ички саҳифаларда у ҳақда очерк эълон қилинади. Бунинг учун қаҳрамонимиз ўқитувчи бўладими, сут соғувчими, оддий ишчими, олдиндан танланарди. Бир қарорга келингач, каминга телефон олдида ўтириб олиб, вилоятларга кўнғироқ қилар, муносиб номзод, муқованинг қаҳрамонини излардим.

Бир сафар муқовада боғча мудирасининг суратини берадиган бўлдик. Албатта, қаҳрамонимиз, аввало, суратбоп бўлиши, кейин ишлари ҳам зўр бўлиши керак эди. Зўрки – бутун республикага намуна қилса арзийдиган. Баъзан униси тўғри келса, буниси тўғри келмас, буниси тўғри келса, униси тўғри келмас эди. Роса хуноббозлик бўларди. Ниҳоят, шундай қаҳрамонни Самарқанд шаҳридан

## DARS

***Gap-gashtaklarda “ziyrak, o‘ta ziyrak” degan iborani ko‘p ishlatamiz. Ziyraklik qanaqa bo‘ladi o‘zi? Ushbu hikoya ana shu haqda.***

“Saodat”ning har bir soni muqovasida chiroyli bir ayolning surati berilib, ichki sahifalarda u haqda ocherk e‘lon qilinardi. Buning uchun qahramonimiz o‘qituvchi bo‘ladimi, sut sog‘uvchimi, oddiy ishchimi, oldindan tanlanardi. Bir qarorga kelingach, kamina telefon oldida o‘tirib olib, viloyatlarga qo‘ng‘iroq qilar, munosib nomzod, muqovaning qahramonini izlardim.

Bir safar muqovada bog‘cha mudirasining suratini beradigan bo‘ldik. Albatta, qahramonimiz, avvalo, suratbop bo‘lishi, keyin ishlari ham zo‘r bo‘lishi kerak edi. Zo‘rki – butun respublikaga namuna qilsa arziydigan. Ba‘zan unisi to‘g‘ri kelsa, bunisi to‘g‘ri kelmas, bunisi to‘g‘ri kelsa, unisi to‘g‘ri kelmas edi. Rosa xunobbozlik bo‘lardi. Nihoyat, shunday qahramonni Samarqand shahridan topdim.

топдим. Суратчимиз Борис Мизрохин билан йўлга чиқиб, уч кунда сурат ва маълумотларни олиб қайтдик. Албатта, сурат бир неча кўринишда олинар, уни таҳририят ходимлари билан кўздан кечириб, ташлаб, кейин Опага кўрсатар эдик. У пайтларда босмахона шароитлари ҳозиргидек тезкор эмас, рангли суратларга ишлов бериш жуда мураккаб бўлгани учун муддатидан уч ой олдин топшириларди. Самарқанддан олиб келинган суратнинг топшириш муддати келиб қолган эди. Аксига олиб, Опа шамоллаб, ишга чиқмаётган эдилар. Суратни Опанинг кўзидан ўтказиб олмай, ишлаб чиқаришга тушира олмасдик. Суратнинг бир чеккасида у кишининг тасдиқловчи имзоси бўлиши керак эди. Акс ҳолда ишлаб чиқариш бўлими суратни қабул қилмас эди. Опа: “Суратларни уйга обкелақолинглар”, деб қолдилар. Босмахона тартиб ва талабларини Опа яхши тушунар ва унга амал қилишга барчамизни чақирардилар. Уйлари ишхонага яқин, шундоққина Марказий универмагнинг орқасида. Мен ичимда: “Ишқилиб су-

Suratchimiz Boris Mizroxin bilan yo‘lga chiqib, uch kunda surat va ma’lumotlarni olib qaytdik. Albatta, surat bir necha ko‘rinishda olinar, uni tahririyat xodimlari bilan ko‘zdan kechirib, tanlab, keyin Opara ko‘rsatar edik. U paytlarda bosmaxona sharoitlari hozirgidek tezkor emas, rangli suratlariga ishlov berish juda murakkab bo‘lgani uchun muddatidan uch oy oldin topshirilardi. Samarqanddan olib kelingan suratning topshirish muddati kelib qolgan edi. Aksiga olib, Opa shamollab, ishga chiqmayotgan edilar. Suratni Opaning ko‘zidan o‘tkazib olmay, ishlab chiqarishga tushira olmasdik. Suratning bir chekkasida u kishining tasdiqlovchi imzosi bo‘lishi kerak edi. Aks holda ishlab chiqarish bo‘limi suratni qabul qilmas edi. Opa: “Suratlarni uyga obkelaqolinglar”, deb qoldilar. Bosmaxona tartib va talablarini Opa yaxshi tushunar va unga amal qilishga barchamizni chaqirardilar. Uylari ishxonaga yaqin, shundoqqina Markaziy univermagning orqasida. Men ichimda: “Ishqilib surat opaga ma’qul bo‘lsin-da”,



рат опага маъкул бўлсин-да”, деб боряпман. Аммо суратнинг сифатидан Мизрохиннинг кўнгли тўқ, чунки техник томонларини ишлаб чиқариш бўлимига олдиндан кўрсатиб, “бўлади” деб тасдиқлатиб олган. Менинг ҳадигим қаҳрамонимизнинг устидаги либоси-ю, суратдан қай ҳолатда қараб турганида. Опанинг назарида ҳамма нарса содда ва оддий, айна пайтда ишонарли бўлиши, сурат ўз эгасининг кимлигини айтиб туриши керак эди. Буни Мизрохин яхши тушунар, баъзан битта сурат учун кунлаб овора бўларди.

Нихоят сурат вариантларини Опанинг олдига қўйиб, биз кўпчилик бўлиб қайси бирини танлаганимизни ҳам кўрсатдик. Бориснинг қўлида суратни катталаштириб кўрсатадиган ойна ҳам бор эди. Суратни кўрибоқ Опанинг чиройи очилди. Қошлари орқага кетиб, юзлари кулиб, маъкул дегандек бош қимирлатдилар. Мизрохин икковимиз бир-биримизга мамнун қараб қўйдик. Ахир шу битта сурат учун уч кун вақтимиз кетди-да. Мендаги ҳадик ўрнини энди ёзиш ташвиши эгаллади. Қаҳрамонимиз ҳақида

deb boryapman. Ammo suratning sifatidan Mizroxinning ko'ngli to'q, chunki texnik tomonlarini ishlab chiqarish bo'limiga oldindan ko'rsatib, "bo'ladi" deb tasdiqlatib olgan. Mening hadigim qahramonimizning ustidagi libosiyu, suratdan qay holatda qarab turganida. Opaning nazarida hamma narsa sodda va oddiy, ayni paytda ishonarli bo'lishi, surat o'z egasining kimligini aytib turishi kerak edi. Buni Mizroxin yaxshi tushunar, ba'zan bitta surat uchun kunlab ovora bo'lardi.

Nihoyat surat variantlarini Opaning oldiga qo'yib, biz ko'pchilik bo'lib qaysi birini tanlaganimizni ham ko'rsatdik. Borisning qo'lida suratni kattalashtirib ko'rsatadigan oyna ham bor edi. Suratni ko'riboq Opaning chiroyi ochildi. Qoshlari orqaga ketib, yuzlari kulib, ma'qul degandek bosh qimirlatdilar. Mizroxin ikkovimiz bir-birimizga mamnun qarab qo'ydik. Axir shu bitta surat uchun uch kun vaqtimiz ketdi-da. Mendagi hadik o'rnini endi yozish tashvishi egalladi. Qahramonimiz haqida ba'zi ma'lumotlarni birma-bir ayta boshladim.



баъзи маълумотларни бирма-бир айта бошладим.

– Тўхтанг, – дедилар она, – гапириб берсангиз мақоланинг охори тўкилади, бор гапни, ҳис-ҳаяжонингизни қоғозга тушуриб, ўзим ўқиб оламан, – дедилар-да, суратни яна бир бор қайта кузатишда давом этдилар. Мен Опанинг “мақоланинг охори тўкилади”, деган сўзларини кейинчалик ижодимда кўп синадим. Чиндан ҳам шундай бўлар экан. Ёзмоқчи бўлган нарсангиз гапирганингизда ҳали қоғозга тушмаёқ, ғози учар экан. Жозиба йўқолар экан. Суратни қайта кўздан кечираётган Опа бирдан:

– Ҳа, йўқ, бўмайди, ҳечам бўмайди, – деб ҳозиргина ўзлари мактаб турган суратни нари суриб, чимирилдилар.

Хайрон бўлиб Опага қарадик. Бориснинг шундоқ ҳам катта-катта кўзлари янаям катта-риб кетди. Тарвузимиз кўлтиғимиздан тушган, икковимиз ҳам ғалати аҳволда қолган эдик. Буни сезган Опа:

– Бўлмаслигида сизларнинг мутлақо айбингиз йўқ, – деди Опа биз тараф бўлиб, –



– To‘xtang, – dedilar opa, – gapirib bersangiz maqolaning oxori to‘kiladi, bor gapni, his-hayajoningizni qog‘ozga tushuring, o‘zim o‘qib olaman, – dedilar-da, suratni yana bir bor qayta kuzatishda davom etdilar. Men Opaning “maqolaning oxori to‘kiladi”, degan so‘zlarini keyinchalik ijodimda ko‘p sinadim. Chindan ham shunday bo‘lar ekan. Yozmoqchi bo‘lgan narsangiz gapirganingizda hali qog‘ozga tushmayoq, g‘ozi uchar ekan. Joziba yo‘qolar ekan. Suratni qayta ko‘zdan kechirayotgan Opa birdan:

– Ha, yo‘q, bo‘maydi, hecham bo‘maydi, – deb hozirgina o‘zlari maqtab turgan suratni nari surib, chimirildilar.

Hayron bo‘lib Opaga qaradik. Borisning shundoq ham katta-katta ko‘zlari yanayam kattarib ketdi. Tarvuzimiz qo‘ltig‘imizdan tushgan, ikkovimiz ham g‘alati ahvolda qolgan edik. Buni sezgan Opa:

– Bo‘lmasligida sizlarning mutlaqo aybingiz yo‘q, – dedi Opa biz taraf bo‘lib, – sizlar erkak kishisizlar, bu bir tasodif, ha, tasodifdan

сизлар эркак кишисизлар, бу бир тасодиф, ҳа, тасодифдан бошқа нарса эмас. – Биз ҳамон ҳеч нарсага тушунмай ҳайрон эдик. – Қаҳрамонингизнинг қулоғидаги зирагига бир қаранглар, – деб эътиборимизни қайта суратга қаратдилар Опа. Воҳ... Аёлнинг қулоғида жимиртеккина зиракча борми-йўқдек, бўлиб турарди. – Бу ёшдаги аёллар бунақа зирак тақмайдилар, ёш қизалоқнинг зираги-ку, бу. Борис: “Ўзи шуни хоҳласа керак-да”, деб дарровда ўзини оқламоқчи бўлди. – Йўқ, – деди Опа, – сизлар билмайсизлар, одатда, қизалоқларнинг қулоғини тешганда, унга тақадиган зиракни катталар уч-тўрт кун тақиб берадилар, зирак ишланиб, боланинг қулоғини яра қилмайди. Уни хўрда қилиб бериш дейилади. Ҳойнаҳой, сизлар шу пайтга тўғри келиб қолгансизлар, аёл ҳам бунга мутлақо эътибор қилмаган.

Қойил, бу сурат Опанинг қўлига келгунча нечта аёлнинг кўзидан ўтди-ю. Ҳатто энг синчков Холида опа ҳам пайқамабдилар.

Борис йиғламоқдан бери бўлиб, шу заҳоти Самарқандга жўнаб кетди, қаҳрамонимизнинг

boshqa narsa emas. – Biz hamon hech narsaga tushunmay hayron edik. – Qahramoningizning qulog‘idagi ziragiga bir qaranglar, – deb e‘tiborimizni qayta suratga qaratdilar Opa. Voh... Ayolning qulog‘ida jimirtekkina zirakcha bormi-yo‘qdek, bo‘lib turardi. – Bu yoshdagi ayollar bunaqa zirak taqmaydilar, yosh qizaloqning ziragi-ku, bu. Boris: “O‘zi shuni xohlasa kerak-da”, deb darrovda o‘zini oqlamoqchi bo‘ldi. – Yo‘q, – dedi Opa, – sizlar bilmaysizlar, odatda, qizaloqlarning qulog‘ini teshganda, unga taqadigan zirakni kattalar uch-to‘rt kun taqib beradilar, zirak ishlanib, bolaning qulog‘ini yara qilmaydi. Uni ho‘rda qilib berish deyiladi. Hoynahoy, sizlar shu paytga to‘g‘ri kelib qolgansizlar, ayol ham bunga mutlaqo e‘tibor qilmagan.

Qoyil, bu surat Opaning qo‘liga kelguncha nechta ayolning ko‘zidan o‘tdi-yu. Hatto eng sinchkov Xolida opa ham payqamabdilar.

Boris yig‘lamoqdan beri bo‘lib, shu zahoti Samarqandga jo‘nab ketdi, qahramonimizning o‘z ziragini taqdirib, suratga olib qaytdi.

Ўз зирагини тақдириб, суратга олиб қайтди.  
Боғча мудираси Опа айтган тахминни  
тасдиқлаб, суратчини овора қилгани учун  
Опадан узр сўраб, икки энлик хат ҳам ёзиб  
юборибди. Бу воқеа биз учун навбатдаги бир  
дарс бўлди.



Bog'cha mudirasi Opa aytgan taxmini tasdiqlab, suratchini ovora qilgani uchun Opadan uzr so'rab, ikki enlik xat ham yozib yuboribdi. Bu voqea biz uchun navbatdagi bir dars bo'ldi.





## ДЕПУТАТЛИК МАОШИ

Опа ҳар куни соат тўққизда ишда бўлардилар. Бу ўзига хос бир ички интизом бўлиб, ходимлар Опадан беш-ўн дақиқа олдин келишга ҳаракат қилишарди. Нимагадир бугун кеч қолаётган эдилар. У кишини хонамда бир одам сабрсизлик билан кутиб ўтирарди. Шу пайт кўнғирок бўлиб қолди. Гўшакни кўтарсам – Опа. Бир оз кечикишларини, почтачини кутаётганларини айтдилар. Мен хонамда тоқати-тоқ бўлиб ўтирган ҳарбий кийимдаги кишига қараб:

– Бу ерда ҳам сизни махсус почта кутаётган эди, – дедим, нима қилай деган маънода. Одатда, баъзи-баъзида бир ҳарбий одам усти сурғичланган махсус почта олиб келар, уни Опанинг ўзлари имзо чекиб оларди.

– Уларнинг машинаси бор, уйга олиб кела қолинглар, – дедилар.

Биз Опанинг квартирасига кўтариладиган йўлак олдида, почтачининг бола кўтарган хотин билан ғижиллашиб тургани устидан чиқиб қолдик. Почтачи бизни кўрди-ю, пил-

## DEPUTATLIK MAOSHI

Opa har kuni soat to‘qqizda ishda bo‘lardilar. Bu o‘ziga xos bir ichki intizom bo‘lib, xodimlar Opadan besh-o‘n daqiqa oldin kelishga harakat qilishardi. Nimagadir bugun kech qolayotgan edilar. U kishini xonamda bir odam sabrsizlik bilan kutib o‘tirardi. Shu payt qo‘ng‘iroq bo‘lib qoldi. Go‘shakni ko‘tarsam – Opa. Bir oz kechikishlarini, pochtachini kutayotganlarini aytdilar. Men xonamda toqati-toq bo‘lib o‘tirgan harbiy kiyimdagi kishiga qarab:

– Bu yerda ham sizni maxsus pochta kutayotgan edi, – dedim, nima qilay degan ma’noda. Odatda, ba’zi-ba’zida bir harbiy odam usti surg‘ichlangan maxsus pochta olib kelar, uni Opaning o‘zlari imzo chekib olardi.

– Ularning mashinasi bor, uyga olib kela qolinglar, – dedilar.

Biz Opaning kvartirasiga ko‘tariladigan yo‘lak oldida, pochtachining bola ko‘targan xotin bilan g‘ijillashib turgani ustidan chiqib qoldik. Pochtachi bizni ko‘rdi-yu, pildirpis



дирпис бўлиб, дарровда йўл берди. Юкори кўтарилдик. Эшикни Опанинг ўзлари очдилар. Бир қадам ичкари кирдик. Опа почтани олдилар. Ҳарбий одам хайрлашиб, тезда орқасига қайтди.

– Сиз шошманг, – деди Опа кетишга тараддудланганимни кўриб, – почтани очиб кўрайликчи, мабодо “Саодат”га тегишли гап бўлса, мен чикқунча Холидахон билан (ўринбосарлари Холида Ахророва) жавоб тайёраб кўясизлар.

Меҳмонхонага кирдик. Опа конвертни очиб, уни ўқишга улгурмай, эшик кўнги роғи жиринглади.

– Почтачи бўлса керак, Юлдуз, қарачи, қизим, – дедилар йўлак тарафга юзланиб. (Юлдуз шоир Тўра Сулаймоннинг қизи бўлиб, Тошкентда ўқир, Опаникида турарди.)

Дарҳақиқат, эшикда ҳозиргина болалик хотин билан ёжиллашиб турган почтачи кўринди. У ичкари кирмади, Опа яна бир қоғозга қўл кўйиб, конверт кўтариб қайтиб кирдилар. – Депутатлик маошим, – дедилар



bo'lib, darrovda yo'l berdi. Yuqori ko'tarildik. Eshikni Opaning o'zlari ochdilar. Bir qadam ichkari kirdik. Opa pochtani oldilar. Harbiy odam xayrlashib, tezda orqasiga qaytdi.

– Siz shoshmang, – dedi Opa ketishga taraddudlanganimni ko'rib, – pochtani ochib ko'raylikchi, mabodo “Saodat”ga tegishli gap bo'lsa, men chiqquncha Xolidaxon bilan (o'rinbosarlari Xolida Ahrorova) javob tayyorab qo'yasizlar.

Mehmonxonaga kirdik. Opa konvertni ochib, uni o'qishga ulgurmay, eshik qo'ng'irog'i jiringladi.

– Pochtachi bo'lsa kerak, Yulduz, qarachi, qizim, – dedilar yo'lak tarafga yuzlanib. (Yulduz shoir To'ra Sulaymonning qizi bo'lib, Toshkentda o'qir, Opanikida turardi.)

Darhaqiqat, eshikda hozirgina bolalik xotin bilan g'ijillashib turgan pochtachi ko'rindi. U ichkari kirmadi, Opa yana bir qog'ozga qo'l qo'yib, konvert ko'tarib qaytib kirdilar. – Deputatlik maoshim, – dedilar kulib, – pochta-

кулиб, – почтачи ҳар ойнинг шу куни, шу соатга обкелишга ўрганган.

Опа бояги хатни диққат билан ўқиб чиқдилар-да, – “Саодат”га алоқаси йўғакан, – деб қайтадан конвертга жойлаб қўйдилар. Мен Опадан руҳсат сўраб, эшик томон йўналдим. Шу пайт эшик қўнғироғи яна жиринглади. Очмоқчи бўлиб турганим учун ҳам очақолдим. Эшик тагида ийманибгина бояги бола кўтарган хотин турарди. Эътибор қилмаган эканман, уни танидим. Бир марта Опанинг ҳузурига келган эди. Эри қамалиб қолган. Опа бу аёлни ҳам кутаётган шекилли, исмини айтиб, ичкаридан чиқиб келдилар. Қўлларида “депутатлик маоши” солинган конверт. – Узр, жоним, ишга шошиб турибман, сизларни меҳмон қилолмайман, катта бўляпсизларми ишқилиб, ҳа яхши, яхши, – деб болани эркалаб, жажжи қўлчасига конвертни тутқаздилар.

Ҳаммаси тушунарли. Опа ҳеч қачон депутатлик маошини ўзларига ишлатмас эдилар. Ёрдам сўраб келганларга бериб юборардилар. Демак, Опа бу хотинни ишхонагамас,

chi har oyning shu kuni, shu soatga obkelishga o'rgangan.

Opa boyagi xatni diqqat bilan o'qib chiqdilar-da, – “Saodat”ga aloqasi yo‘g‘ akan, – deb qaytadan konvertga joylab qo‘ydilar. Men Opadan ruxsat so‘rab, eshik tomon yo‘naldim. Shu payt eshik qo‘ng‘irog‘i yana jiringladi. Ochmoqchi bo‘lib turganim uchun ham ochaqoldim. Eshik tagida iymanibgina boyagi bola ko‘targan xotin turardi. E‘tibor qilmagan ekanman, uni tanidim. Bir marta Opaning huzuriga kelgan edi. Eri qamalib qolgan. Opa bu ayolni ham kutayotgan shekilli, ismini aytib, ichkaridan chiqib keldilar. Qo‘llarida “deputatlik maoshi” solingan konvert. – UZR, jonim, ishga shoshib turibman, sizlarni mehmon qilolmayman, katta bo‘lyapsizlarmi ishqilib, ha yaxshi, yaxshi, – deb bolani erkalab, jajji qo‘lchasiga konvertni tutqazdilar.

Hammasi tushunarli. Opa hech qachon deputatlik maoshini o‘zlariga ishlatmas edilar. Yordam so‘rab kelganlarga berib yuborardilar. Demak, Opa bu xotinni ishxonagamas, uyga

уйга келишга ўргатибдилар-да. Почтачи буни сезиб қолган ва Опанинг пулини қизганиб, уни ўзича ёзтираётган бўлган. Ана шунака гаплар...



*Bir kuni Zulfiya opa...*

... o'rgatibdilar-da. Pochtachi buni  
... qolib qolgan va Opaning pulini qizg'anib, uni  
... o'zicha yozg'irayotgan bo'lgan. Ana shunaqa  
... gaplar...



## ЎЗЛАРИДАН КЎРСИН

“Саодат”га ишга келганимга ҳали бир йил бўлмади. Йил охирлаганда бухгалтерияга дағдаға билан чақириб қолишди. Маълум бўлишича, ҳар бир Бош муҳаррирга почта хизматлари учун йил бошида алоҳида пул ажратилар экан. Бу имкониятдан бошқа ҳамма Бош муҳаррирлар ортиғи билан фойдаланиб бўпти, аммо Опа йил давомида бир сўм ҳам фойдаланмаптилар. Бунга мен айбдор эканман, вақтида назорат қилмабман. Энди пулни келгуси йилга тенг ярмига қискартириб ташламоқчи бўлишди. Мен бунақа имконият борлигини мутлақо билмаганимни айтиб, айбимни бўйнимга олдим. Қисқартирмасликларини, бу хато такрорланмаслигини илтимос қилдим. Ўйлаб кўрсам, Опани йил давомида анча-мунча пулга туширибман. Чунки, у кишининг номига кунда бўлмаса ҳам кунора турли шаҳар ва қишлоқлардан, ҳатто чет эллардан хатлар, “бандерол” деган нарсалар келарди. Кўпчилигининг ичида Опанинг китоби бўлиб,

## O'ZLARIDAN KO'RSIN

“Saodat”ga ishga kelganimga hali bir yil bo‘lmadi. Yil oxirlaganda buxgalteriyaga dag‘dag‘a bilan chaqirib qolishdi. Ma‘lum bo‘lishicha, har bir Bosh muharrirga pochta xizmatlari uchun yil boshida alohida pul ajratilar ekan. Bu imkoniyatdan boshqa hamma Bosh muharrirlar ortig‘i bilan foydalanib bo‘pti, ammo Opa yil davomida bir so‘m ham foydalanmaptilar. Bunga men aybdor ekanman, vaqtida nazorat qilmabman. Endi pulni kelgusi yilga teng yarmiga qisqartirib tashlamoqchi bo‘lishdi. Men bunaqa imkoniyat borligini mutlaqo bilmaganimni aytib, aybimni bo‘ynimga oldim. Qisqartirmasliklarini, bu xato takrorlanmasligini iltimos qildim. O‘ylab ko‘rsam, Opani yil davomida ancha-muncha pulga tushiribman. Chunki, u kishining nomiga kunda bo‘lmasa ham kunora turli shahar va qishloqlardan, hatto chet ellardan xatlar, “banderol” degan narsalar kelardi. Ko‘pchiligining ichida Opaning kitobi bo‘lib,

дастхат кўйиб беришларини сўрашарди. Опа хат эгаларига жавоб ёзиб, китобларга дастхат кўйиб, Муҳаббатнинг кўлига пул бериб, почтага жўнатардилар. Бунақа харажатларга ажратилган пул эса бу ёқда ишлатилмай қолиб кетибди.

Мен бу ишим учун Опадан узр сўрагани чоғланардим-у, аммо мавридини тоқолмасдим. Янги йил арафасида Опага каттагина почта келиб қолди. Очсак, китоблар экан. Опанинг Болгария нашриётларидан бирида китоби чоп этилган, нашриётдагилар китобнинг биттасига имзо чекиб, қайтариб юборишни сўрашган эди. Опа бугунги ишни эртага кўядиганлардан эмасдилар. Ҳамма нарса иссиғида, ўз вақтида бўлишига ҳаракат қилардилар ва бошқалардан ҳам шуни талаб қилардилар. Бу талаб ва тартиб журналнинг матн ва суратларини босмахонага вақтида туширишда жуда қўл келарди. Опа мақола ёзилишини бугун, эрта деб орқага сурадиган ходимни дангаса, иш ёқмас деб ёқтирмасдилар.

Зулфия опа дарровда китобга имзо кўйиб, икки энлик хат ҳам ёздилар-да, ёнига



dastxat qo'yib berishlarini so'rashardi. Opa xat egalariga javob yozib, kitoblarga dastxat qo'yib, Muhabbatning qo'liga pul berib, pochtaga jo'natardilar. Bunaqa xarajatlarga ajratilgan pul esa bu yoqda ishlatilmay qolib ketibdi.

Men bu ish uchun Opadan uzr so'ragani chog'lanardim-u, ammo mavridini topolmasdim. Yangi yil arafasida Opaga kattagina pochta kelib qoldi. Ochsak, kitoblar ekan. Opaning Bolgariya nashriyotlaridan birida kitobi chop etilgan, nashriyotdagilar kitobning bittasiga imzo chekib, qaytarib yuborishni so'rashgan edi. Opa bugungi ishni ertaga qo'yadiganlardan emasdilar. Hamma narsa issig'ida, o'z vaqtida bo'lishiga harakat qilardilar va boshqalardan ham shuni talab qilardilar. Bu talab va tartib jurnalning matn va suratlarini bosmaxonaga vaqtida tushirishda juda qo'l kelardi. Opa maqola yozilishini bugun, erta deb orqaga suradigan xodimni dangasa, ishyoqmas deb yoqtirmasdilar.

Zulfiya opa darrovda kitobga imzo qo'yib, ikki enlik xat ham yozdilar-da, yoniga "Sao-

“Саодат”нинг Янги йил табригини кўшиб, ҳамёнларидан пул чиқариб:

– Муҳаббатга беринг, “заказной” қилиб, жўнатиб юборсин, – дедилар. Булғор тилида чиққан китоб Опанинг рухиятини кўтариб юборган, бунақа пайтларда Опа янаям ишчан бўлиб кетардилар.

– Узр, Опа, – дедим олдиларида хижолатлигимни билдириб, – мана шунақа почта хизматлари учун бухгалтерия йил бошида анчагина пул ажратган экан, мен беҳабар қолибман, шу... – дедим ерга қараб.

– Ҳа-а, – дедилар Опа бир нимани эслагандек, – ахир бу эски гап-ку, мен ҳар гал йиллик харажатларни олиб чиқишганда шу жойини ўчириб ташлайман, ахир ўзингиз ўйлаб кўринг, почталар менинг қувончларим, менинг дардларим, менинг ташвишларим бўлса-ю, уларга нашриёт пул тўлаши керакми, бўлмаган гап, ҳамма ўз кўмочига ўзи кул тортсин, кўяверинг, уларга эътибор қилманг, у пулдан бир тийинам ишлатманг...

Бўлиб ўтган бу воқеа хаёлимга ўрнашиб қолган эди. Кейинчалик худди шунга ўхшаш

dat"ning Yangi yil tabrigini qo'shib, hamyonlaridan pul chiqarib:

– Muhabbatga bering, “zakaznoy” qilib, jo'natib yuborsin, – dedilar. Bulg'or tilida chiqqan kitob Opaning ruhiyatini ko'tarib yuborgan, bunaqa paytlarda Opa yanayam ishchan bo'lib ketardilar.

– UZR, Opa, – dedim oldilarida xijolatligimni bildirib, – mana shunaqa pochta xizmatlari uchun buxgalteriya yil boshida anchagina pul ajratgan ekan, men bexabar qolibman, shu... – dedim yerga qarab.

– Ha-a, – dedilar Opa bir nimani eslagandek, – axir bu eski gap-ku, men har gal yillik xarajatlarni olib chiqishganda shu joyini o'chirib tashlayman, axir o'zingiz o'ylab ko'ring, pochta mening quvonchlarim, mening dardlarim, mening tashvishlarim bo'lsa-yu, ularga nashriyot pul to'lashi kerakmi, bo'lmagan gap, hamma o'z ko'mochiga o'zi kul tortsin, qo'yavering, ularga e'tibor qilmang, u puldan bir tiyinam ishlatmang...

Bo'lib o'tgan bu voqea xayolimga o'rnashib



бир ривоятни ўқиб, Опани эсладим. Ривоятда машҳур подшоҳлардан бири кечкурун арз билан келган одамни қабул қилади. Келган одам арз-додини айтиб бўлиб, бирдан бошқа мавзуга ўтади.

– Тўхта, – дейди подшо, – бу гапингни давлат ишига алоқаси борми, йўқми?

– Йўқ, фақат ўзингизга айтадиган гап.

– Унда, тўхтаб тур, – дейди подшо ва олдида ёниб турган шамни ўчириб, бошқасини ёқади-да, – ана энди гапиравер, – дейди.

Келувчи подшодан нимага бундай қилганини сўрайди.

– Униси давлат ишлари учун, хазина ҳисобидан сотиб олинган эди, буниси ўзим учун, ўз пулимга сотиб олинган, қани бўл, гапиравер, кулоғим сенда, – дейди подшо.

Опанинг бу ривоятдан хабарлари бормиди, йўқми, билмайман-у, лекин айнан ўхшашлик бор-а, нима дедингиз?

qolgan edi. Keyinchalik xuddi shunga o'xshash bir rivoyatni o'qib, Opani esladim. Rivoyatda mashhur podshohlardan biri kechqurun arz bilan kelgan odamni qabul qiladi. Kelgan odam arz-dodini aytib bo'lib, birdan boshqa mavzuga o'tadi.

– To'xta, – deydi podsho, – bu gapingni davlat ishiga aloqasi bormi, yo'qmi?

– Yo'q, faqat o'zingizga aytadigan gap.

– Unda, to'xtab tur, – deydi podsho va oldida yonib turgan shamni o'chirib, boshqasini yoqadi-da, – ana endi gapiraver, – deydi.

Keluvchi podshodan nimaga bunday qilganini so'raydi.

– Unisi davlat ishlari uchun, xazina hisobidan sotib olingan edi, bunisi o'zim uchun, o'z pulimga sotib olingan, qani bo'l, gapiraver, qulog'im senda, – deydi podsho.

Opaning bu rivoyatdan xabarlari bormidi, yo'qmi, bilmayman-u, lekin aynan o'xshashlik bor-a, nima dedingiz?



бир ривоятни ўқиб, Опани эсладим. Ривоятда машҳур подшоҳлардан бири кечкурун арз билан келган одамни қабул қилади. Келган одам арз-додини айтиб бўлиб, бирдан бошқа мавзуга ўтади.

– Тўхта, – дейди подшо, – бу гапингни давлат ишига алоқаси борми, йўкми?

– Йўк, фақат ўзингизга айтадиган гап.

– Унда, тўхтаб тур, – дейди подшо ва олдида ёниб турган шамни ўчириб, бошқасини ёқади-да, – ана энди гапиравер, – дейди.

Келувчи подшодан нимага бундай қилганини сўрайди.

– Униси давлат ишлари учун, хазина ҳисобидан сотиб олинган эди, буниси ўзим учун, ўз пулимга сотиб олинган, қани бўл, гапиравер, кулоғим сенда, – дейди подшо.

Опанинг бу ривоятдан хабарлари бормиди, йўкми, билмайман-у, лекин айнан ўхшашлик бор-а, нима дедингиз?

qolgan edi. Keyinchalik xuddi shunga o'xshash bir rivoyatni o'qib, Opani esladim. Rivoyatda mashhur podshohlardan biri kechqurun arz bilan kelgan odamni qabul qiladi. Kelgan odam arz-dodini aytib bo'lib, birdan boshqa mavzuga o'tadi.

– To'xta, – deydi podsho, – bu gapingni davlat ishiga aloqasi bormi, yo'qmi?

– Yo'q, faqat o'zingizga aytadigan gap.

– Unda, to'xtab tur, – deydi podsho va oldida yonib turgan shamni o'chirib, boshqasini yoqadi-da, – ana endi gapiraver, – deydi.

Keluvchi podshodan nimaga bunday qilganini so'raydi.

– Unisi davlat ishlari uchun, xazina hisobidan sotib olingan edi, bunisi o'zim uchun, o'z pulimga sotib olingan, qani bo'l, gapiraver, qulog'im senda, – deydi podsho.

Opaning bu rivoyatdan xabarlari bormidi, yo'qmi, bilmayman-u, lekin aynan o'xshashlik bor-a, nima dedingiz?

## ТАЛАНТЛАР КЎЧАДА ЁТМАЙДИЛАР

*Талантлар жамиятнинг гули, лекин уларни бир ерга жамлаб гуласта тузиш ҳамманинг ҳам қўлидан келавермайди, бунинг учун катта жасорат керак.*

Кекса ходимлардан бири нафақага чикиб, бир иш ўрни бўшади. Бухгалтериядан тезда ўринни тўлдирмасак қисқаришга тушиб қолиши мумкинлигини айтиб қолишди. Опага бу гапни етказдим. У киши бир зум тараддудланиб турдилар-да:

– Марғилонда бир киз бор, Мухтарама Улуғова, яхши шоира, ҳойнаҳой бу йил ўқишни тугатган бўлса керак, топиб, ўша кизни ишга таклиф қилиб кўринг-чи, – дедилар оддийгина қилиб.

Телефон орқали сўраб-суриштириб, Мухтарамани Марғилондаги педагогика билим юртидан топдим. Институтни тугатиб, эндигина иш бошлаган экан. Телефонда гаплаш-япмиз...

– Шеърларимни жўнатайми, Зулфия опа шуни сўраяптиларми? – деди у.



## TALANTLAR KO'CHADA YOTMAYDILAR

*Talantlar jamiyatning guli, lekin ularni bir yerga jamlab gulasta tuzish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi, buning uchun katta jasorat kerak.*

Keksa xodimlardan biri nafaqaga chiqib, bir ish o'rni bo'shadi. Buxgalteriyadan tezda o'rinni to'ldirmasak qisqarishga tushib qolishi mumkinligini aytib qolishdi. Opage bu gapni yetkazdim. U kishi bir zum taraddudlanib turdilar-da:

– Marg'ilonda bir qiz bor, Muhtarama Ulug'ova, yaxshi shoira, hoynahoy bu yil o'qishni tugatgan bo'lsa kerak, topib, o'sha qizni ishga taklif qilib ko'ring-chi, – dedilar oddiygina qilib.

Telefon orqali so'rab-surishtirib, Muhtaramani Marg'ilondagi pedagogika bilim yurtidan topdim. Institutni tugatib, endigina ish boshlagan ekan. Telefonda gaplashyapmiz...

– She'rlarimni jo'nataymi, Zulfiya opa shuni so'rayaptilarmi? – dedi u.



– Опа сизни “Саодат”га ишга чакиряптилар, ишга, – дедим овозимни кўтариб.

– А... “Саодат” га, ишга?

Мухтарама жим бўлиб қолди. Эшитган кулоғига ишонмаётган бўлса керак.

– Ўйлаб кўриб, қарорингизни телефон оркали менга тезроқ айтинг, – деб гўшакни кўйдим.

Мухтарама эртасигаёқ учиб-кўниб етиб келди. Кимсан, шоира Зулфия ишга чакиради-ю, келмайдими? Яна аёлларнинг энг севимли журнали “Саодат”га-я.

Келган куниеъ ишга олинганлиги ҳақидаги буйрук тушиб кетди. Мухтарамани Олимжон ака икковимиз “Пахтакор” стадиони ёнидаги “Ёшлик” меҳмонхонасига жойладик. Ўзига маъкул квартира топгунча ўша ерда турадиган бўлди. Бўлмаса, Опа ҳам, бошқа ходимлар ҳам ўзлари билан олиб кетмоқчи бўлишди. Аммо табиатан тортинчоқ Мухтарама унамади.

Эртасига Мухтарамани меҳмонхонага жойлаганимизни эшитган рассом Лайло Салимжонова:

Opa sizni “Saodat”ga ishga chaqiryaptilar, ishga, – dedim ovozimni ko‘tarib.

A... “Saodat” ga, ishga?

Muhtarama jim bo‘lib qoldi. Eshitgan qulog‘iga ishonmayotgan bo‘lsa kerak.

– O‘ylab ko‘rib, qaroringizni telefon orqali menga tezroq ayting, – deb go‘shakni qo‘ydim.

Muhtarama ertasigayoq uchib-qo‘nib yetib keldi. Kimsan, shoira Zulfiya ishga chaqiradi-yu, kelmaydimi? Yana ayollarning eng sevimli jurnali “Saodat”ga-ya.

Kelgan kuniyoq ishga olinganligi haqidagi buyruq tushib ketdi. Muhtaramani Olimjon aka ikkovimiz “Paxtakor” stadioni yonidagi “Yoshlik” mehmonxonasiga joyladik. O‘ziga ma’qul kvartira topguncha o‘sha yerda turadigan bo‘ldi. Bo‘lmasa, Opa ham, boshqa xodimlar ham o‘zlari bilan olib ketmoqchi bo‘lishdi. Ammo tabiatan tortinchoq Muhtarama unamadi.

Ertasiga Muhtaramani mehmonxonaga joylaganimizni eshitgan rassom Laylo Salimjonova:

– Опаям қизиклар-а, нима-а қилардилар бу қиззи Марғилондан чақириб, шоиралар Тошкандаям кўп-ку, энди у шунақа қилиб меҳмонхонада яшайдими? – деди.

– Катталар бир иш қилганда ҳамма томони ни ўйлашади, Лайлохон, – дедилар Олимжон ака, – Опага уй олиб бериш нима бўпти, оғизларининг ели...

Бир куни Опанинг хоналарига навбатдаги тайёр мақолани кўтариб кирсам Мухтарамани сўраб қолдилар, гап нима ҳақда эканлигини тушундим-да, шаҳар ҳаётига ўрганиб кетганини, бир дугонаси билан ижарада яшаётганини айтдим. У киши:

– Ҳозир, – дедилар-да, махсус телефоннинг рақамини тердилар. У ёқдан дарровда жавоб бўлди. Опа салом-алиқдан сўнг, яна квартира масаласида безовта қилаётганини айтдилар. У ёқдан “оилаликми”, деган гап бўлди шекилли. Одатда, квартира оиласиз, сўкқабошларга берилмас эди.

– Йўғ-а, ҳали киз бола, – дедилар Опа. – Нима? – Опанинг овози кўтарилиброк чикди, – ётоқхона дейсизми? – Йўғ-е, ётоқхона дега-

Opayam qiziqlar-a, nima-a qilardilar bu qizni Marg'ilondan chaqirib, shoirlar Toshkandayam ko'p-ku, endi u shunaqa qilib mehmonxonada yashaydimi? – dedi.

– Kattalar bir ish qilganda hamma tomonini o'ylashadi, Layloxon, – dedilar Olimjon aka, – Opara uy olib berish nima bo'пти, og'izlarining eli...

Bir kuni Opaning xonalariga navbatdagi tayyor maqolani ko'tarib kirsam Muhtaramani so'rab qoldilar, gap nima haqda ekanligini tushundim-da, shahar hayotiga o'rganib ketganini, bir dugonasi bilan ijarada yashayotganini aytdim. U kishi:

– Hozir, – dedilar-da, maxsus telefonning raqamini terdilar. U yoqdan darrovda javob bo'ldi. Opa salom-alikdan so'ng, yana kvartira masalasida bezovta qilayotganini aytdilar. U yoqdan “oilalikmi”, degan gap bo'ldi shekilli. Odatda, kvartira oilasiz, so'qqaboshlarga berilmas edi.

– Yo'g'-a, hali qiz bola, – dedilar Opa. – Nima? – Opaning ovozi ko'tarilibroq chiqdi, –



нингиз кўчадай гап-ку, билиб қўйинг, талантлар кўчада ётмайдилар, – деб гўшакни енгилгина қўйиб қўйдилар.

Олимжон ака айтмоқчи, Опа Муҳтарамма хақида яхшигина қайғураётган эканлар. Лекин бу иш оғизларининг ели ҳам эмас экан, айтганлари дарровда бўлавермас ҳам экан. Бироқ Опа бўш келмадилар, кўн ўтмай Муҳтараммага шахарнинг қоқ ўртасидан бир хонали квартира олиб бердилар. Муҳтарамма ўша уйга рўйхатга турди.

Ҳозир ҳар йили республикамизнинг бир гуруҳ талантли қизларига “Зулфия” номидаги давлат мукофоти берилганида беихтиёр Опанинг эзгу ниятлари давом этаётганини, талантли қизлар бир чеккада қолиб кетмаётганини ўйлайман. Шунақа, одамлар вақти-соати етиб ўлар экан-у, уларнинг эзгу ишлари ўлмас экан. Муҳтараммага келсак, у Опанинг ишонган, талантли шогирдларидан бўлди. Республикада хизмат кўрсатган маданият ходими унвони билан тақдирланди.

yotoqxonada deysizmi? – Yo‘g‘-e, yotoqxonada deganingiz ko‘chadagi gap-ku, bilib qo‘ying, talantlar ko‘chada yotmaydilar, – deb go‘shakni yengilgina qo‘yib qo‘ydilar.

Olimjon aka aytmoqchi, Opa Muhtarama haqida yaxshigina qayg‘urayotgan ekanlar. Lekin bu ish og‘izlarining eli ham emas ekan, aytganlari darrovda bo‘lavermas ham ekan. Biroq Opa bo‘sh kelmadilar, ko‘p o‘tmay Muhtaramaga shaharning qo‘q o‘rtasidan bir xonali kvartira olib berdilar. Muhtarama o‘sha uyga ro‘yxatga turdi.

Hozir har yili respublikamizning bir guruh talantli qizlariga “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti berilganida beixtiyor Opaning ezgu niyatlari davom etayotganini, talantli qizlar bir chekkada qolib ketmayotganini o‘ylayman. Shunaqa, odamlar vaqti-soati yetib o‘lar ekan-u, ularning ezgu ishlari o‘lmas ekan. Muhtaramaga kelsak, u Opaning ishongan, talantli shogirdlaridan bo‘ldi. Respublikada xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni bilan taqdirlandi.

## OLTIN MEDALLILAR

Katta qizim Dilfuza oltin medal bilan o'rtta maktabni tamomlab, O'rtta Osiyo pediatriya institutiga hujjat topshirdi. Ammo o'qishga kirishiga yarim bal etmay qoldi. Buni eshitib Opa: "Bor-yo'g'i yarim balmi", dedilar-da, darrovda Andijon meditsina instituti rektoriga telefon qildilar. Rektorni yaxshi tanirkanlar. U yerda kirish bali bu yerdagiga qaraganda pastroq bo'пти. Kelsin, olamiz, faqat, hujjatini ertaga tushgacha yetkazib kelsin, degan javob bo'ldi. Opa "Nima deysiz", degandek menga qaradilar. Men Opaga xursand bo'lganimdan yarim qarindoshimiz Andijonda yashashini, ammo hujjatni yetkazib borolmasligimni aytdim. Kun kech bo'lib qolgan, ertaga hujjatlarini olish ham kamida peshingacha cho'zilishi tayin edi. Opa xiyol o'ylanib turdilar-da, yana bir joyga qo'ng'iroq qildilar. U tomondan go'shakni ko'tarishdi shekilli:

– Menga Nabi Majidovichni ulang, qizim, – deb o'zlarini tanishtirdilar.





Наби Мажидович Педиатрия институтининг ректори эди. Улар куюқ салом-алик қилишди. Ичимда чироқ ёйди. Агарда ҳозир бориб ҳужжатни олсам, кечкурун поездга ўтирсам, эрталаб етказиб бораман. Опа нима демоқчи эканликларини одатларига кўра тез-тез айтдилар. Ҳа, телефонда узоқ гаплашишни ёқтирмасдилар. Бу ходимларга ҳам юккан, йил охирида телефон хизматидан энг кам фойдаланган таҳририят “Саодат” бўлиб чиқарди. Бу йил охирида нашриёт бўйича бўладиган ҳисобот йиғилишида алоҳида айтиб ўтилди. Енгил кулги кўтарилди. Ахир аёллар таҳририяти серган бўлиши керакмасми? Наби Мажидович томонидан қандайдир жавоб бўлди шекилли, Опа бирдан жиддий тортдилар.

– Ҳа, шундай денг, бари қизлар денг, бўпти, бўпти, биргаликда ҳаракат қиламиз унда, бир жойдан ёриб чиқармиз, ахир... нима дедингиз, ҳа... Сиз тавсиянгизни беровринг, хўп... келишдик, – дедилар.

Маълум бўлишича, олтин медаль олиб, ўқишга кира олмаган битта менинг кизим

Nabi Majidovich Pediatriya institutining rektori edi. Ular quyuq salom-alik qilishdi. Ichimda chiroq yondi. Agarda hozir borib hujjatni olsam, kechqurun poyezdga o'tirsam, ertalab yetkazib boraman. Opa nima demoqchi ekanliklarini odatlariga ko'ra tez-tez aytdilar. Ha, telefonda uzoq gaplashishni yoqtirmasdilar. Bu xodimlarga ham yuqqan, yil oxirida telefon xizmatidan eng kam foydalangan tahririyat "Saodat" bo'lib chiqardi. Bu yil oxirida nashriyot bo'yicha bo'ladigan hisobot yig'ilishida alohida aytib o'tilardi. Yengil kulgi ko'tarilardi. Axir ayollar tahririyati sergap bo'lishi kerakmasmi? Nabi Majidovich tomonidan qandaydir javob bo'ldi shekilli, Opa birdan jiddiy tortdilar.

– Ha, shunday deng, bari qizlar deng, bo'pti, bo'pti, birgalikda harakat qilamiz unda, bir joydan yorib chiqarmiz, axir... nima dedingiz, ha... Siz tavsiyangizni berovring, xo'p... kelishdik, – dedilar.

Ma'lum bo'lishicha, oltin medal olib, o'qishga kira olmagan bitta mening qi-

эмас экан, уларнинг сони йигирмадан ошаркан. Ҳаммасига ҳам шу ярим, бир бал етмай қопти. Опа хотин-қизлар журнали “Саодат” номидан қизларни ҳимоя қилсалар, битта кўшимча гуруҳ очилиши мумкин бўларкан. Ҳамма гап вазирликни кўндиришда қолибди. Опанинг бу ишни уддалашга кўзлари етди шекилли, яна Андижонга кўнгироқ қилиб, хужжатни кутмасликни айтиб қўйдилар. Опа бировни илҳақ қилишдан ёмони йўқ, дердилар ва бунга ўзлари қаттиқ амал қилардилар. Бирон жойга китобхонлар билан учрашувга борадиган бўлиб (уларнинг рўйхати менда турарди), боролмай қолсалар, албатта, ўзлари кўнгироқ қилиб, узрларини айтар, ўринларига таниқли шоиралардан бирини жўнатардилар.

Шундай қилиб, мен йигирманчи августдан ўттизинчи августга қадар, деярли ўн кун игна устида юргандек бўлдим. Опа шу кунлар давомида янги гуруҳ учун керакли ташкилотлар билан “жанг” олиб бордилар. Улар шу йил ўқишга кирмасалар, янаги йилгача эрга тегиб кетишади. Олтин медаллар сандикнинг бир чеккасида қолиб кетади... Эсиз, талантлар,

zim emas ekan, ularning soni yigirmadan osharkan. Hammasiga ham shu yarim, bir bal yetmay qopti. Opa xotin-qizlar jurnali "Saodat" nomidan qizlarni himoya qilsalar, bitta qo'shimcha guruh ochilishi mumkin bo'larkan. Hamma gap vazirlikni ko'ndirishda qolibdi. Opaning bu ishni uddalashga ko'zlari yetdi shekilli, yana Andijonga qo'ng'iroq qilib, hujjatni kutmaslikni aytib qo'ydilar. Opa birovni ilhaq qilishdan yomoni yo'q, derdilar va bunga o'zlari qattiq amal qildilar. Biron joyga kitobxonlar bilan uchrashuvga boradigan bo'lib (ularning ro'yxati menda turardi), borolmay qolsalar, albatta, o'zlari qo'ng'iroq qilib, uzrlarini aytar, o'rinlariga taniqli shoiralardan birini jo'natardilar.

Shunday qilib, men yigirmanchi avgustdan o'ttizinchi avgustga qadar, deyarli o'n kun igna ustida yurgandek bo'ldim. Opa shu kunlar davomida yangi guruh uchun kerakli tashkilotlar bilan "jang" olib bordilar. Ular shu yil o'qishga kirmasalar, yanagi yilgacha erga tegib ketishadi. Oltin medallar sandiqning bir chekkasida qolib

эсиз ўн йиллик меҳнат, эсиз орзу-умидлар! Мана Опанинг ташвиши нимада эди. Кейин, бу институтнинг ташкил этилганига кўп бўлмаган, республикамизда болалар врачлари етишмаслиги ҳақида таҳририятга кўплаб шикоят хатлари келарди. Болажон юртимиз учун бу жуда ташвишли ҳолат эди. Болалар ўлими кўп эди. Юқори ташкилотларга мурожаат қилганларида Опа ўша хатлардан фойдаландилар. Ниҳоят ўттизинчи август кuni янги гуруҳ очилгани ҳақида вазирликнинг қарори чиқди. Опа танимаган, билмаган йигирмата хонадонда тўй бўлгани аниқ. Йигирмата ёш, йигирмата тақдир! Улар бу хайрли ишнинг орқасида кимлар турганини билмасдилар ҳам. Ўшанда Опа катта ишонч ва умид билан:

– Хали бу қизлар ўз соҳасининг шундай мутахассислари бўлсинки... – деганлари ҳамон қулоғимда жаранглаб туради.

Чиндан ҳам шундай бўлди. Кўпчилиги ўз соҳаларининг етук кишилари, олималари бўлишди. Шу жумладан, менинг қизим Дилфуза ҳам медицина фанлари номзоди, чақалоқлар бўйича етук мутахассис...

ketadi... Esiz, talantlar, esiz o'n yillik mehnat, esiz orzu-umidlar! Mana Opaning tashvishi nimada edi. Keyin, bu institutning tashkil etilganiga ko'p bo'lmagan, respublikamizda bolalar vrachlari etishmasligi haqida tahririyatga ko'plab shikoyat xatlari kelardi. Bolajon yurtimiz uchun bu juda tashvishli holat edi. Bolalar o'limi ko'p edi. Yuqori tashkilotlarga murojaat qilganlarida Opa o'sha xatlardan foydalandilar. Nihoyat o'ttizinchi avgust kuni yangi guruh ochilgani haqida vazirlikning qarori chiqdi. Opa tanimagan, bilmagan yigirmata xonadonda to'y bo'lgani aniq. Yigirmata yosh, yigirmata taqdir! Ular bu xayrli ishning orqasida kimlar turganini bilmasdilar ham. O'shanda Opa katta ishonch va umid bilan:

– Hali bu qizlar o'z sohasining shunday mutaxassislari bo'lsinki... – deganlari hamon qulog'imda jaranglab turadi.

Chindan ham shunday bo'ldi. Ko'pchiligi o'z sohalarining yetuk kishilari, olimalari bo'lishdi. Shu jumladan, mening qizim Dilfuza ham meditsina fanlari nomzodi, chaqaloqlar bo'yicha yetuk mutaxassis...

## БИЗНИНГ ОНАМИЗ

*Оналар... нақадар муқаддассизлар. Зулфия она оналарни ҳаммадан ҳам кўра кўпроқ ардоқлардилар.*

Зулфия опа ҳар доим эрта билан аввал котибиятга кириб, рассом Лайлохон, Олимжон ака ва камина билан салом-алик қилгач, кабинетларига ўтиб кетардилар. Олимжон аканинг ишлари кўпроқ босмахона билан боғлиқ бўлса-да, Опа келишига ҳар доим жойларида бўлардилар. Бугун у киши йўқ эди. Опа Олимжон аканинг столига қараб қўйдилар. Мен оналари бетоб бўлиб қолганини айтдим. Опа хушёр тортдилар. Касалга қарайдиган Олимжон акадан бўлак беморнинг кизлари, келинлари бор, демак, у киши келмабдими, аҳвол жиддий.

– Қўнғироқ қилиб билингчи, нима ёрдам керак экан? – дедилар-да, кабинетларига ўтиб кетдилар.

Олимжон аканинг онаизорини “Яхшироқ дўхтирга кўрсатиш керак экан”. Кириб Опа-

## BIZNING ONAMIZ

*Onalar... naqadar muqaddassizlar. Zulfiya opa onalarni hammadan ham ko'ra ko'proq ardoqlardilar.*

Zulfiya opa har doim erta bilan avval kotibiyatga kirib, rassom Layloxon, Olimjon aka va kamina bilan salom-alik qilgach, kabinetlariga o'tib ketardilar. Olimjon akaning ishlari ko'proq bosmaxona bilan bog'liq bo'lsa-da, Opa kelishiga har doim joylarida bo'lardilar. Bugun u kishi yo'q edi. Opa Olimjon akaning stoliga qarab qo'yidilar. Men onalari betob bo'lib qolganini aytdim. Opa hushyor tortdilar. Kasalga qaraydigan Olimjon akadan bo'lak bemorning qizlari, kelinlari bor, demak, u kishi kelmabdimi, ahvol jiddiy.

– Qo'ng'iroq qilib bilingchi, nima yordam kerak ekan? – dedilar-da, kabinetlariga o'tib ketdilar.

Olimjon akaning onaizorini “Yaxshiroq do'xtirga ko'rsatish kerak ekan”. Kirib Opaga aytсам, darrovda hukumat shifoxonasiga sta-



га айтсам, дарровда ҳукумат шифохонасида стационарга кўнғироқ қилиб, бош врач билан боғландилар. “Биззи онажонимиз бестоблар, олиб борамиз, кўриб кўясиз”, дедилар. Кейин нашриётдан навбатчи машинани чақирдилар-да:

– Онажонни стационарга олиб боринглар, мен ўша ерда бўламан, – дедилар.

Олимжон аканинг оналари, кўн дард чеккан, ранглари кетиб, бир бурда бўлиб қолган эдилар. Учинчи қаватдан Олимжон аканинг ёрдамида зўрға тушиб, машинага ўтирдилар. Стационарга етиб келганимизда Опа эшик олдида Асқад Мухтор билан гаплашиб турган эканлар. Бизни кўриб, илдам шу ёққа юрдилар. Машинадан тушиб, зўрға юраётган онаизорга ёпишиб келиб, елкаларидан кучиб, секингина салом бердилар ва юзларига юзларини босдилар. Шунда бошларини кўтара олмаётган онаизор худди офтобга карагандек “ярқ” этиб Опага қаради. Бирдан онаизорнинг кўзлари кулди, ажинли юзларига нур югурди. Опа у кишини суяган бўлиб, олдинга бошла-

stasyonarga qo'ng'iroq qilib, bosh vrach bilan bog'landilar. "Bizzi onajonimiz betoblar, olib boramiz, ko'rib qo'yasiz", dedilar. Keyin nashriyotdan navbatchi mashinani chaqirdilar-da:

– Onajonni stasyonarga olib boringlar, men o'sha erda bo'laman, – dedilar.

Olimjon akaning onalari, ko'p dard chekkan, ranglari ketib, bir burda bo'lib qolgan edilar. Uchinchi qavatdan Olimjon akaning yordamida zo'rg'a tushib, mashinaga o'tirdilar. Stasyonarga yetib kelganimizda Opa eshik oldida Asqad Muxtor bilan gaplashib turgan ekanlar. Bizni ko'rib, ildam shu yoqqa yurdilar. Mashinadan tushib, zo'rg'a yurayotgan onaizorga yopishib kelib, elkalaridan quchib, sekingina salom berdilar va yuzlariga yuzlarini bosdilar. Shunda boshlarini ko'tara olmayotgan onaizor xuddi oftobga qaragandek "yarq" etib Opaga qaradi. Birdan onaizorning ko'zlari kuldi, ajinli yuzlariga nur yugurdi. Opa u kishini suyagan bo'lib, oldinga

дилар. Олимжон ака бу ҳолдан таъсирланиб, тескари каради, кўзлари ёшга тўлди.

Бош врач ҳам ташқарига чиқиб турган экан, уларга қараб илдам юриб келди.

– Мана бизнинг онажонимиз, яхшилаб кўриб кўйинг, дўхтир, отдек бўлиб кетсинлар, – деб онаизорнинг елкаларини силаб, бош врачнинг кўлига топширдилар. Ҳа, бош врач камдан-кам ҳолларда беморларини остонада кутиб оларди. Кўп кузатганман, Опанинг қаршисида отликлар гўё пойи-пиёдага, калондимоғлар латтага айланиб қоларди.

Опа бировга яхшилик қилсанг бутун қил, деган нақлга амал қилардилар. Бўлмаса, стационарга ўзлари боришлари шарт эмас, айтиб қўйсалар бас эди. Йўқ, унда ўзларига ўхшамай қолардилар.

boshladilar. Olimjon aka bu holdan ta'sirlanib, teskari qaradi, ko'zlari yoshga to'ldi.

Bosh vrach ham tashqariga chiqib turgan ekan, ularga qarab ildam yurib keldi.

– Mana bizning onajonimiz, yaxshilab ko'rib qo'ying, do'xtir, otdek bo'lib ketsinlar, – deb onaizorning yelkalarini silab, bosh vrachning qo'liga topshirdilar. Ha, bosh vrach kamdan-kam hollarda bemorlarini ostonada kutib olardi. Ko'p kuzatganman, Opaning qarshisida otliqlar go'yo poyi-piyodaga, kalondimog'lar lattaga aylanib qolardi.

Opa birovga yaxshilik qilsang butun qil, degan naqlga amal qilardilar. Bo'lmasa, stasionarga o'zlari borishlari shart emas, aytib qo'ysalar bas edi. Yo'q, unda o'zlariga o'xshamay qolardilar.

## ОПАНИНГ ЭРКАТОЙИ

*Меҳр Аллоҳдан. Бандаси шундай бир улуг неъмат билан сийланган. Лекин у инсонларда қай йўсин намоён бўлади?*

Жамоамизда Насима опа деганлари бор эди. У кишини ходимлар Опанинг эркатойи деб унчалик хушлашмасди. Узун бўй, товони билан тик юргани учун “ўқлоғи” деб ном қўйиб олишганди. У киши чарс-чурсроқ, жаҳлини чиқарган одамни аяб ўтирмас, ўқлоғидек бир зумда жувалаб қўяқоларди. Шунга бошқалар ўзларини сал тортиб юришарди. Насима опа ишга хоҳлаганда келиб, хоҳлаганда кетарди. Елкасида ҳамиша босиб турадиган бир юк бор-у, уни сездирмасликка ҳаракат қиларди. Ходимлар ўртасида бўладиган ҳар хил деди-деди, миш-мишларга қўшилмасди. Шунгами, димоғдорроқ кўринарди. Насима опа ишга хоҳлаганда келиб, хоҳлаганда кетса ҳам журнал материалларини вақтида туширар, саволга ўрин қолдирмасди. Шунгами, Опа у киши билан ҳар доим юмшоқ гаплашардилар.

## OPANING ERKATOYI

*Mehr Allohdan. Bandasi shunday bir ulug' ne'mat bilan siylangan. Lekin u insonlarda qay yo'sin namoyon bo'ladi?*

Jamoamizda Nasima opa deganlari bor edi. U kishini xodimlar Opaning erkatoyi deb unchalik xushlashmasdi. Uzun bo'y, tovoni bilan tik yurgani uchun "o'qlog'i" deb nom qo'yib olishgandi. U kishi chars-chursroq, jahlini chiqargan odamni ayab o'tirmas, o'qlog'idek bir zumda juvalab qo'yaqolardi. Shunga boshqalar o'zlarini sal tortib yurishardi. Nasima opa ishga xohlaganda kelib, xohlaganda ketardi. Yelkasida hamisha bosib turadigan bir yuk bor-u, uni sezdirmaslikka harakat qilardi. Xodimlar o'rtasida bo'ladigan har xil dedi-dedi, mish-mishlarga qo'shilmasdi. Shungami, dimog'dorroq ko'rinardi. Nasima opa ishga xohlaganda kelib, xohlaganda ketsa ham jurnal materillarini vaqtida tushirar, savolga o'rin qoldirmasdi. Shungami, Opa u kishi bilan har doim yumshoq gaplashardilar.



У кишини ниҳоятда аяшлари, киши билмас меҳр кўрсатишлари сезилиб қоларди. Мабодо, Насима опа керак бўлиб қолса, “Нимага ишда йўқ, нимага кеч қоляпти”, демасдилар, балки “Насимахон келса олдимга кирсин”, деб қўярдилар. Ҳа, кимсан, Бош муҳаррир билан оддий ходим ўртасидаги бу ҳолатни баъзилар тушуна олмасди. Шу жумладан, ўзим ҳам. Опа билан у кишининг ўртасида қандайдир сир бор-у, Насима опа ўша сирни суниестеъ-мол қилаётгандек туюларди менга.

Куз келиб, ходимларга даладан арзон нархда картошка сотиб олиб, Олимжон ака икковимиз уйма-уй тарқатадиган бўлдик. Насима опанинг дарвозасини тақиллатсак, давангирдек бир эркак чиқиб (аслида дарво-за ичкаридан беркитилмаган, юзигагина ёпиб қўйилган экан), салом-алик у ёқда турсин, бир ўқрайди-ю орқасига ўгирилиб, ҳовли адоғига қараб юраверди. Орқасидан “хай” деганимизча қолдик.

– Э, – дедилар Олимжон ака бирдан хушёр тортиб, – Насима опанинг битта-ю битта укаси бор, уям жинни дейишгани қулоғимга

U kishini nihoyatda ayashlari, kishi bilmas mehr ko'rsatishlari sezilib qolardi. Mabodo, Nasima opa kerak bo'lib qolsa, "Nimaga ishda yo'q, nimaga kech qolyapti", demasdilar, balki "Nasimaxon kelsa oldimga kirsin", deb qo'yardilar. Ha, kimsan, Bosh muharrir bilan oddiy xodim o'rtasidagi bu holatni ba'zilar tushuna olmasdi. Shu jumladan, o'zim ham. Opa bilan u kishining o'rtasida qandaydir sir bor-u, Nasima opa o'sha sirni suiiste'mol qilayotgandek tuyulardi menga.

Kuz kelib, xodimlarga daladan arzon narxda kartoshka sotib olib, Olimjon aka ikkovimiz uyma-uy tarqatadigan bo'ldik. Nasima opaning darvozasini taqillatsak, davangirdek bir erkak chiqib (aslida darvoza ichkaridan berkitilmagan, yuzigagina yopib qo'yilgan ekan), salom-alik u yoqda tursin, bir o'qraydi-yu orqasiga o'girilib, hovli adog'iga qarab yuraverdi. Orqasidan "hay" deganimizcha qoldik.

– E, – dedilar Olimjon aka birdan hushyor tortib, – Nasima opaning bitta-yu bitta





чалинувди, туркидан ўшанга ўхшайди, картошкани обкириб, бир чеккага кўйайликда, эсон-омон чиқиб кетайлик, мен жиннидан кўркаман, – дедилар кўзлари каттариб.

Икки қоп картошкани ҳовлига обкириб, энди чиқиб кетмоқчи бўлиб турган эдик. Ичкаридан “Ким у?” – деган овоз келди.

– Ие, Насима опа уйда эканлар-ку, – дедим Олимжон акага қараб.

Олимжон ака эшикни қия очиб:

– Опа, бу бизмиз, картошка обкелдик, – дедилар.

– Насима ишга кетган, мен онасиман, картошкани бу ёққа обкириб қўйинглар, ҳовлимиз карвонсарой, биров кўтариб кетади, – деди хаста бир овоз.

Ичкари бош суқиб, она билан салом-алик қилмоқчи бўлдик. У киши дераза ёнидаги каравотда осмонга қараб ётар, биз томонга ўгирилиб қарашга ҳам ҳоли йўққа ўхшарди. Шу пайт кўрқиб кетганимдан Олимжон аканинг тирсагидан маҳкам ушлаб олибман. Кампирнинг бошида сиртмоқ осилиб турарди. Ҳа, ҳа шундоқ... Олимжон ака ҳам бирдан эъ-

ukasi bor, uyam jinni deyishgani qulog'imga chalinuvdi, turqidan o'shanga o'xshaydi, kartoshkani obkirib, bir chekkaga qo'yaylikda, eson-omon chiqib ketaylik, men jinnidan qo'rqaman, – dedilar ko'zlari kattarib.

Ikki qop kartoshkani hovliga obkirib, endi chiqib ketmoqchi bo'lib turgan edik. Ichkaridan “Kim u?” – degan ovoz keldi.

– Ie, Nasima opa uyda ekanlar-ku, – dedim Olimjon akaga qarab.

Olimjon aka eshikni qiya ochib:

– Opa, bu bizmiz, kartoshka obkeldik, – dedilar.

– Nasima ishga ketgan, men onasiman, kartoshkani bu yoqqa obkirib qo'yinglar, hovlimiz karvonsaroy, birov ko'tarib ketadi, – dedi xasta bir ovoz.

Ichkari bosh suqib, ona bilan salom-alik qilmoqchi bo'ldik. U kishi deraza yonidagi karavotda osmonga qarab yotar, biz tomonga o'girilib qarashga ham holi yo'qqa o'xshardi. Shu payt qo'rqib ketganimdan Olimjon akaning tirsagidan mahkam ushlab olibman.

тибор қилиб, оркага тисарилдилар. Хаёлимда телба ўғил онани осмоқчи бўлган-у биз келиб қолганмиз, онани Худо бир сақлабди-да... Мана у нимга бизга ўқрайиб қараган экан? Кампир тепасида осилиб турган сиртмоқни кўрмаётган эди. Балки кўзлари кўрмас, вой Худойим-эй... Шошиб кампирнинг тепасига борганимни билмай қолдим:

– Холажон, кўзингиз кўрмайдими? – дедим.

– Худога шукр, кўраман, болам, кўраман, – дедилар ич-ичига тушиб кетган кўзларини базўр пирпиратиб, – шу оёғим шол бўлиб қолган-да, болам, – деб ихранди.

– Унда, мана бу сиртмоқни кўряпсизми, устингизда у нима қилиб турибди? – дедим.

– Ҳа, буми, бу менинг хассам, ҳар тугул кўлларим ишлайди, қорним очса, шу сиртмоққа тортилиб, Насима барака топкур тайёрлаб кетган, у-бу нарсани еган бўламан, – деб кампир кўзи билан дераза токчасига ишора қилди. У ерда усти оппоқ сочиқ билан ёпилган бир нималар турарди.

Kampirning boshida sirtmoq osilib turardi. Ha, ha shundoq... Olimjon aka ham birdan e'tibor qilib, orqaga tisarildilar. Xayolimda telba o'g'il onani osmoqchi bo'lgan-u biz kelib qolganmiz, onani Xudo bir saqlabdi-da... Mana u nimga bizga o'qrayib qaragan ekan? Kampir tepasida osilib turgan sirtmoqni ko'rmayotgan edi. Balki ko'zlari ko'rmas, voy Xudoyim-ey... Shoshib kampirning tepasiga borganimni bilmay qoldim:

– Xolajon, ko'zingiz ko'rmaydimi? – dedim.

– Xudoga shukr, ko'raman, bolam, ko'raman, – dedilar ich-ichiga tushib ketgan ko'zlarini bazo'r pirlpiratib, – shu oyog'im shol bo'lib qolgan-da, bolam, – deb ixrandi.

– Unda, mana bu sirtmoqni ko'ryapsizmi, ustingizda u nima qilib turibdi? – dedim.

– Ha, bumi, bu mening hassam, har tugul qo'llarim ishlaydi, qornim ochsa, shu sirtmoqqa tortilib, Nasima baraka topkur tayyorlab ketgan, u-bu narsani yegan bo'laman, – deb kampir ko'zi bilan deraza tokchasiga ishora qildi. U yerda usti oppoq sochiq bilan yopilgan bir nimalar turardi.



– Бунга анча бўлдим, холажон, ётиб қолганингизга? – сўради Олимжон ака.

– Етти йилдан берисига шу аҳвол, нимаиди...

– Зулфия опани бундан хабарлари борми?

– Бор, нимага бўлмасин, қизимдек бўлиб қолган-ку Зулфияхоним, кўрсатмаган дўхтири қолмади бечорани, бу ўзи шунақа бедаво дард экан, нима қилай...

Олимжон ака билан ҳовлидан чиқар эканмиз, елкамдан бир юк босгандек, юрагим сиқилди. Бу ғарибхонадан тезроқ узоқлашсак дердим. Насима опага ачиниб кетдим. Укаси телба, онаси бу аҳволда... Етти йилдан бери дейди-я... Воҳ, янаям Насима опа фил экан, қаддини кўтариб юрибди-я. Эркак киши бўлса “дод” деворган бўларди.

– Насима опанинг бола-чақаси борми? – сўрадим Олимжон акадан юк машинасида бошқа ходимникига йўл олар эканмиз.

– У кишини кўпам билмайман, укаси телбалигини эшитгандим, аммо онаси бу аҳволдалигини энди билишим, битта қизи бор дейишади, уям ўзиникимас, “Саодат”га

– Bunga ancha bo‘ldimi, xolajon, yotib qolganingizga? – so‘radi Olimjon aka.

– Yetti yildan berisiga shu ahvol, nimaydi...

– Zulfiya opani bundan xabarlari bormi?

– Bor, nimaga bo‘lmasin, qizimdek bo‘lib qolgan-ku Zulfiyaxonim, ko‘rsatmagan do‘xtiri qolmadi bechorani, bu o‘zi shunaqa bedavo dard ekan, nima qilay...

Olimjon aka bilan hovlidan chiqar ekanmiz, yelkamdan bir yuk bosgandek, yuragim siqildi. Bu g‘aribxonadan tezroq uzoqlashsak derdim. Nasima opaga achinib ketdim. Ukasi telba, onasi bu ahvolda... Yetti yildan beri deydi-ya... Voh, yanayam Nasima opa fil ekan, qaddini ko‘tarib yuribdi-ya. Erkak kishi bo‘lsa “dod” devorgan bo‘lardi.

– Nasima opaning bola-chaqasi bormi? – so‘radim Olimjon akadan yuk mashinasida boshqa xodimnikiga yo‘l olar ekanmiz.

– U kishini ko‘pam bilmayman, ukasi telbaligini eshitgandim, ammo onasi bu ahvoldaligini endi bilishim, bitta qizi bor deyishadi, uyam o‘zinikimas, “Saodat”ga

келган шикоят хатини текширгани бориб, ўша ёқдан чакалоқлигида олиб келган, ҳозир шифокорликка ўқитяпти шекилли...

Мана, Зулфия опа кимларни қандоқ қадрлар, кимларга қандоқ меҳр қўяр, кимларни қандоқ эркалатар эканлар. У киши ҳаётдан нолиб, кўзёши қилганларни ёқтирмасдилар. Дардини дoston қилмай, сабр-тоқат билан ўз бошига тушган қорни ўзи курайдиган мардона инсонларга жонларини берардилар.



kelgan shikoyat xatini tekshirgani borib, o'sha yoqdan chaqaloqligida olib kelgan, hozir shifokorlikka o'qityapti shekilli...

Mana, Zulfiya opa kimlarni qandoq qadrlar, kimlarga qandoq mehr qo'yar, kimlarni qandoq erkalatar ekanlar. U kishi hayotdan nolib, ko'zyoshi qilganlarni yoqtirmasdilar. Dardini doston qilmay, sabr-toqat bilan o'z boshiga tushgan qorni o'zi kuraydigan mardona insonlarga jonlarini berardilar.





## КҮНГИЛ ҚОЛИШ

*Инсон зоти фаришта эмас, хато қилади, бир-биридан кўнгли қолади, бир-бирини кечиради ва ҳоказо. Лекин хатокорнинг хатосини ошкор қилмай, юракка кўмиб кўйишнинг ўзи бўлмайди?*

Опанинг назаридан қолиш шогирдлари учун ўлим билан баробар эди. Шунгами, ҳаммалари Опанинг каршисида ўта хушёр, сергак, кўз қараш ва ишораларига мунтазир туришарди. Опа хаддан зиёд ошириб-тоширишларни, ялтоқланишларни ёқтирмасдилар. Лекин бировдан кўнгиллари қолса, охиригача қоларди. Илгаригидек гаплашиб юраверардилар-у, бир чимирилиб кўйишлари бор эди.

Бир куни Опа Алоқа вазирлигига бориб, шахсан вазирнинг ўзидан бир хат олиб келишимни тайинладилар. Бориб, вазирнинг кўлидан хатни олар эканман, у киши синиқлик билан: “Опага узримни айтиб кўясиз-да, иложи бўлса жоним билан эди”, деди.

## KO'NGIL QOLISH

*Inson zoti farishta emas, xato qiladi, bir-biridan ko'ngli qoladi, bir-birini kechiradi va hokazo. Lekin xatokorning xatosini oshkor qilmay, yurakka ko'mib qo'yishning o'zi bo'lmaydi?*

Opaning nazaridan qolish shogirdlari uchun o'lim bilan barobar edi. Shungami, hammalari Opaning qarshisida o'ta hushyor, sergak, ko'z qarash va ishoralariga muntazir turishardi. Opa haddan ziyod oshirib-toshirishlarni, yaltoqlanishlarni yoqtirmasdilar. Lekin birovdan ko'ngillari qolsa, oxirigacha qolardi. Ilgarigidek gaplashib yuraverardilar-u, bir chimirilib qo'yishlari bor edi.

Bir kuni Opa Aloqa vazirligiga borib, shaxsan vazirning o'zidan bir xat olib kelishimni tayinladilar. Borib, vazirning qo'lidan xatni olar ekanman, u kishi siniqlik bilan: "Opaga uzrimni aytib qo'yasiz-da, iloji bo'lsa jonim bilan edi", dedi.

Xatning konverti e'tiborimni tortdi. "Sao-



Хатнинг конверти эътиборимни тортди. “Саодат”нинг конверти. Вазирликда бизнинг конвертимиз нима қилиб юрипти экан, вазирлик хатни ўз конвертида жўнатиши керак-ку. Хатни келтириб Опага бердим ва вазирнинг узрини айтдим.

– Ўтиринг, – дедилар Опа муҳим бир нарсани айтмоқчи бўлгандек, назаримда хатда менга алоқадор гап борга ўхшарди. Опа хатни очиб кўрдилар-да, бир чимирилиб, уни менга узатдилар.

– Бу хатдан хабарингиз борми?

Хатда “Саодат”нинг бир ходимига бир ой муддат ичида телефон тушириб бериш сўралган ва унга Опа имзо чеккан эдилар.

Хабарим йўқлигини айтиб, Опага қарадим. Имзолари турибди-ку, бунақа хатлар менсиз ҳам котибаси орқали керакли жойларга юборилавериши мумкин.

– Имзога қаранг, имзога, ўхшайдими, – дедилар Опа диққатимни яна хатга қаратиб.

Қарасам, “З” ҳарфи ўхшайди-ю, ундан нарисси ўхшамайди. Этим жимирлаб, миямга қон ургандек бўлди. Наҳотки, Опанинг номи-

dat”ning konverti. Vazirlikda bizning konvertimiz nima qilib yuripti ekan, vazirlik xatni o‘z konvertida jo‘natishi kerak-ku. Xatni keltirib Opaga berdim va vazirning uzrini aytdim.

– O‘tiring, – dedilar Opa muhim bir narsani aytmoqchi bo‘lgandek, nazarimda xatda menga aloqador gap borga o‘xshardi. Opa xatni ochib ko‘rdilar-da, bir chimirilib, uni menga uzatdilar.

– Bu xatdan xabaringiz bormi?

Xatda “Saodat”ning bir xodimiga bir oy muddat ichida telefon tushirib berish so‘ralgan va unga Opa imzo chekkan edilar.

Xabarim yo‘qligini aytib, Opaga qaradim. Imzolari turibdi-ku, bunaqa xatlar mensiz ham kotibasi orqali kerakli joylarga yuborilaverishi mumkin.

– Imzoga qarang, imzoga, o‘xshaydimi, – dedilar Opa diqqatimni yana xatga qaratib.

Qarasam, “Z” harfi o‘xshaydi-yu, undan narisi o‘xshamaydi. Etim jimirlab, miyamga qon urgandek bo‘ldi. Nahotki, Opaning



дан шунақа хат ёзиб, устига-устак ясама имзо кўйиб, вазирликка жўнатиш мумкин? Кўз олдимга бу ишни қилган ходим келди. Чунки телефон унга сўралган эди. У ниҳоятда камгап, юмшоқ табиатли, мулоҳазали ходим эди. Наҳотки, у шу ишни қилган бўлса. Хаёлимда кимдир бу ишни унинг номидан қилган. У бечорани қорага чиқармокчи бўлган. Ҳа, бу ишнинг ҳали миси чиқади.

Опа қайгадир кўнғирок қилдилар. Ҳозир мен бориб келган Алоқа вазирлигига экан. Опа хатни қайтариб олганини, бу вазифа вазирликнинг зиммасидан тушганини таъкидлаб кўйдилар. Опа таниқли шоира, Бош муҳаррир бўлишдан ташқари, депутат ҳам эдилар. Шунинг учун у киши номидан борган хатлар, иложи борича ижобий ҳал бўлиши керак эди. Шу тарафларини ўйлаб, вазирнинг ўзи Опага кўнғирок қилган бўлиши керак. У найтларда, айникса, маҳалла жойларига телефон тушириш амримаҳол эди. Симёгочлар ўрнатиш, симлар тортиш дегандек ташвишлари бор эди. Шунга вазир иложи йўқлигини айтган. Кўнглимдан Опа ҳозир ҳаммани

nomidan shunaqa xat yozib, ustiga-ustak yasama imzo qo'yib, vazirlikka jo'natish mumkin? Ko'z oldimga bu ishni qilgan xodim keldi. Chunki telefon unga so'ralgan edi. U nihoyatda kamgap, yumshoq tabiatli, mulohazali xodim edi. Nahotki, u shu ishni qilgan bo'lsa. Xayolimda kimdir bu ishni uning nomidan qilgan. U bechorani qoraga chiqarmoqchi bo'lgan. Ha, bu ishning hali misi chiqadi.

Opa qaygadir qo'ng'iroq qildilar. Hozir men borib kelgan Aloqa vazirligiga ekan. Opa xatni qaytarib olganini, bu vazifa vazirlikning zimmasidan tushganini ta'kidlab qo'ydilar. Opa taniqli shoira, Bosh muharrir bo'lishdan tashqari, deputut ham edilar. Shuning uchun u kishi nomidan borgan xatlar, iloji boricha ijobiy hal bo'lishi kerak edi. Shu taraflarini o'ylab, vazirning o'zi Opaga qo'ng'iroq qilgan bo'lishi kerak. U paytlarda, ayniqsa, mahalla joylariga telefon tushirish amrimahol edi. Simyog'ochlar o'rnatish, simlar tortish degandek tashvishlari bor edi. Shunga vazir

йиғадилар-у бошқаларга ибрат бўлсин деб, ёзган одамнинг паттасини кўлига берадилар, деган ўй кечди. Кутилмаганда Опа хатни менадан олдиларда, жаҳл билан йиртиб-йиртиб челака ташладилар. Кейин менга қараб:

– Гап чувалмасин, бироқ у кишидан қаттиқ кўнглим қолганини айтиб кўйинг, – дедилар ходимнинг номини айтиб.

– Ишлайверадими, Опа, – деб сўрашга мажбур бўлдим. Ахир шундай воқеадан кейин ҳам у Опанинг ҳузурида ишлаши мумкинми?

– У ёғи у кишимнинг виждонига боглик, – дедилар Опа.

Ходим билан ишдан кейин ҳоли, бақамти ўтириб гаплашдим. Опа юмшаганлари учун мен ҳам анча юмшаган эдим. Аммо гап-сўзимда, юз-кўзимда “Наҳотки, шундай қилиш мумкин?” деган ҳайрат ҳамон сақланиб турарди. Ундан: “Бу ишни мен қилмаганман, кимдир мени қора қилиш учун атайлаб қилган”, дейишини кутган эдим. Йўқ, у айбини бўйнига олди, ўрнидан турди, ўтирди, рангида ранг қолмади... Хуллас, иш

iloji yoʻqligini aytgan. Koʻnglimdan Opa hozir hammani yigʻadilar-u boshqalarga ibrat boʻlsin deb, yozgan odamning pattasini qoʻliga beradilar, degan oʻy kechdi. Kutilmaganda Opa xatni mendan oldilarda, jahl bilan yirtib-yirtib chelakka tashladilar. Keyin menga qarab:

– Gap chuvalmasin, biroq u kishidan qattiq koʻnglim qolganini aytib qoʻying, – dedilar xodimning nomini aytib.

– Ishlayveradimi, Opa, – deb soʻrashga majbur boʻldim. Axir shunday voqeadan keyin ham u Opaning huzurida ishlashi mumkinmi?

– U yogʻi u kishimning vijdoniga bogʻliq, – dedilar Opa.

Xodim bilan ishdan keyin holi, baqamti oʻtirib gaplashdim. Opa yumshaganlari uchun men ham ancha yumshagan edim. Ammo gap-soʻzimda, yuz-koʻzimda “Nahotki, shunday qilish mumkin?” degan hayrat hamon saqlanib turardi. Undan: “Bu ishni men qilmaganman, kimdir meni qora qilish uchun ataylab qilgan”, deyishini kutgan edim. Yoʻq, u aybini boʻyniga oldi, oʻrnidan turdi,





бунчаликка боради, деб ўйламаган экан. Мен унга Опанинг гап чувалмасин деганини ва ундан кўнгиллари қаттиқ қолганини айтдим. У хонамда хаёл суриб, узоқ ўтириб қолди, кейин индамай чиқиб кетди. Унга ачиндим-у, аммо қилмиш-қидирмиш деб ўзимга таскин бердим. Ёпиғлиқ қозон ёпиғлигича қолди, буни Опа-ю, мен билдим, ҳатто вазир ҳам хат қалбаки эканини билмади.

Орадан ҳафта ўтиб, ходим ишдан бўша-тишларини сўраб ариза ёзди. Аризани Опага олиб кирдим.

– Модомики ариза ёзибдим, демак, виждони бор экан, ҳай майли, нафс йўлида ҳаммаям адашади, – деб аризага қўл кўйиб бердилар.

Ҳамкасблар ҳайрон, нуқул мендан сўрашади. Мен бўлсам, ариза ёзгани ўзидан сўранглар, деб елка қисаман...

o'tirdi, rangida rang qolmadi... Xullas, ish bunchalikka boradi, deb o'ylamagan ekan. Men unga Opaning gap chuvalmasin deganini va undan ko'ngillari qattiq qolganini aytdim. U xonamda xayol surib, uzoq o'tirib qoldi, keyin indamay chiqib ketdi. Unga achindim-u, ammo qilmish-qidirmish deb o'zinga taskin berdim. Yopig'liq qozon yopig'ligicha qoldi, buni Opa-yu, men bildim, hatto vazir ham xat qalbaki ekanini bilmadi.

Oradan hafta o'tib, xodim ishdan bo'shatishlarini so'rab ariza yozdi. Arizani Opaga olib kirdim.

– Modomiki ariza yozibdimi, demak, vijdoni bor ekan, hay mayli, nafs yo'lida hammayam adashadi, – deb arizaga qo'l qo'yib berdilar.

Hamkasblar hayron, nuqul mendan so'rashadi. Men bo'lsam, ariza yozganni o'zidan so'ranglar, deb yelka qisaman...

## ИНСОН ШАЪНИ

*Одам зотини жамики маъданлар ичида  
ноёб маъдан – зарга, олтинга ўхшатишади.  
Халқимизда “Зар қадрига заргар етар”,  
деган гап бор. Афсуски, ҳамма ҳам заргар  
бўлавермайди!*

Якшанба. Уйда эдим. Телефонда Опа сўраётганини айтиб қолишди. Дам олиш кунлари Опанинг безовта килиш одатлари йўқ эди. Демак, бирон бир зарурат билан кўнғироқ қилиптилар. Тинчликмикан, ишқилиб? Гўшакни олиб, салом бердим. Маълум бўлишича, Опанинг бир шода калитлари йўқолиб қолибди. Буни уйдаги китоб жавонини очаман деганда сезиб қолибдилар. Қачон, қаерда қолдирганларини билмайдилар. Қидирмаган жойлари қолмапти, ишхонадамикан деган гумонда эканлар. Сейфнинг ҳам калити ўша калитлар билан бирга экан. Якшанба кунлари эшик оғаси таҳририятга Бош муҳаррир, ўринбосар ва масъул котибларнигина кўярди. Бошқа ходимлар кириши

## INSON SHA'NI

*Odam zotini jamiyki ma'danlar ichida noyob ma'dan – zarga, oltinga o'xshatishadi. Xalqimizda “Zar qadriga zargar etar”, degan gap bor. Afsuski, hamma ham zargar bo'lavermaydi!*

Yakshanba. Uyda edim. Telefonda Opa so'rayotganini aytib qolishdi. Dam olish kunlari Opaning bezovta qilish odatlari yo'q edi. Demak, biron bir zarurat bilan qo'ng'iroq qilyaptilar. Tinchlikmikan, ishqilib? Go'shakni olib, salom berdim. Ma'lum bo'lishicha, Opaning bir shoda kalitlari yo'qolib qolibdi. Buni uydagi kitobjavonini ochamandeganda sezib qolibdilar. Qachon, qayerda qoldirganlarini bilmaydilar. Qidirmagan joylari qolmapti, ishxonadamikan degan gumonda ekanlar. Seyfning ham kaliti o'sha kalitlar bilan birga ekan. Yakshanba kunlari eshik og'asi tahririyatga Bosh muharrir, o'rinbosar va mas'ul kotiblarnigina qo'yardi. Boshqa xodimlar kirishi uchun bir kun oldin ro'yxat berib qo'yish kerak bo'lardi.

учун бир кун олдин рўйхат бериб қўйиш керак бўларди.

– Ҳзим Юлдуз билан чиқардим-у, умумий калитлар қаерда туришини билмайман, — дедилар Опа. Гап-сўзларидан хижолат бўлаётганлари сезилиб турарди. Дарҳақиқат, ишхонада хоналарнинг калитини фақат фаррошу, ўзимиз биладиган бир жойга беркитиб қўярдик. Ким ишга барвақт келса хоналарни очиб, шамоллатиб қўярди.

Ишхонага бориб, Опанинг кабинетларини очиб, стол устиларини, тортмаларни қарадим. Калит йўқ. Опага қўнғироқ қилиб, калит йўқлигини айтдим. Опа хиёл ўйланиб турдилар-да:

– Гўшакни қўймай, сейфнинг оғзини қаранг-чи, — дедилар. Ёзув столининг ёнидаги бурчакда сейф турарди. Шу ёққа “ярқ” этиб қараб, калитлар сейф оғзида турганини кўрдим.

– Калитлар сейфда экан, Опа, — дедим шошиб.

– Шундайми? — дедилар-да, Опа андек жим

– O‘zim Yulduz bilan chiqardim-u, umumiy kalitlar qayerda turishini bilmayman, – dedilar Opa. Gap-so‘zlaridan xijolat bo‘layotganlari sezilib turardi. Darhaqiqat, ishxonada xonalarning kalitini faqat farrosh-u, o‘zimiz biladigan bir joyga berkitib qo‘yardik. Kim ishga barvaqt kelsa xonalarni ochib, shamollatib qo‘yardi.

Ishxonaga borib, Opaning kabinetlarini ochib, stol ustilarini, tortmalarni qaradim. Kalit yo‘q. Opaga qo‘ng‘iroq qilib, kalit yo‘qligini aytdim. Opa xiyol o‘ylanib turdilar-da:

– Go‘shakni qo‘ymay, seyfning og‘zini qarang-chi, – dedilar. Yozuv stolining yonidagi burchakda seyf turardi. Shu yoqqa “yarq” etib qarab, kalitlar seyf og‘zida turganini ko‘rdim.

– Kalitlar seyfda ekan, Opa, – dedim shoshib.

– Shundaymi? – dedilar-da, Opa andek jim qoldilar. Men kalitlarni oling deyishlarini kutardim. Nimagadir Opa:

– Seyfni oching-chi, – dedilar. Seyf qulfanmagan, shundog‘am qiya ochiq turardi.

қолдилар. Мен калитларни олинг дейишларини кутардим. Нимагадир Опа:

– Сейфни очинг-чи, – дедилар. Сейф қулфланмаган, шундоғам қия очиқ турарди.

– Очдим, – дедим-у нимагадир юрагим “шиғ” этиб кетди. Ахир хонаға мендан олдин ҳам биров кирган бўлиши мумкин-ку. Масалан, фаррош, кейин музлаткич Опанинг хонасида туради. Ходимлар айнийдиган нарсаларини обкириб қўйишади. Шунинг учун Опанинг хонаси иш вақтида ўзлари бўлса-бўлмаса очиқ турарди. Бир нима дейиш қийин-у, барибир ўртада шайтон бор-да.

– Ичидағи қоғозлар жойидами, алғовдалғов бўлмаганми, ишқилиб? – дедилар Опа. Нимагадир у кишининг овозида хавотирланиш йўқ эди. Калит топилганига хурсанд эдилар шекилли.

– Жойидага ўхшайди, Опа, – дедим диққат билан ичкари кўз ташлаб, аммо қоғозларга қўл тегизмадим. Бари саранжом-саришта кўринди.

– Пастки қаватида каттагина яшил конверт бўлиши керагиди, – дедилар Опа сал иккиланиброқ.

– Ochdim, – dedim-u nimagadir yuragim “shig” etib ketdi. Axir xonaga mendan oldin ham birov kirgan bo‘lishi mumkin-ku. Masalan, farrosh, keyin muzlatkich Opaning xonasida turadi. Xodimlar ayniydigan narsalarini obkirib qo‘yishadi. Shuning uchun Opaning xonasi ish vaqtida o‘zlari bo‘lsa-bo‘lmasa ochiq turardi. Bir nima deyish qiyin-u, baribir o‘rtada shayton bor-da.

– Ichidagi qog‘ozlar joyidami, alg‘ov-dalg‘ov bo‘lmaganmi, ishqilib? – dedilar Opa. Nimagadir u kishining ovozi xavotirlanish yo‘q edi. Kalit topilganiga xursand edilar shekilli.

– Joyidaga o‘xshaydi, Opa, – dedim diqqat bilan ichkari ko‘z tashlab, ammo qog‘ozlarga qo‘l tegizmadim. Bari saranjom-sarishta ko‘rindi.

– Pastki qavatida kattagina yashil konvert bo‘lishi keragidi, – dedilar Opa sal ikkilanibroq.

– Ha, Opa, bor, turibdi...





– Ха, Опа, бор, турибди...

– Кўлингизга олиб, ичини қаранг-чи, нима-дир бўлиши ҳам керак, – деб кулдилар Опа.

Воҳ... қарадим-у нафасим ичимга тушиб кетди. Оламча, ха, бир дунё пул... бари йирик купюрлар...

– Нима гап? – дедилар Опа жим бўлиб колганимга.

– Пул бор экан, Опа, пул...

– Яхши, энди гўшакни жойига кўйинг-да, пулни санаб, қанчалигини менга айтинг, – дедилар.

Санаб бўлгач, яшил конверт устидаги рақамларга кўзим тушиб колди. Мен қанча санаган бўлсам ўшанча рақам турарди. Рақамлар мен санаган рақамга тенг бўлгани учун ҳам унга эътибор қилган эдим. Опага кўнғироқ қилиб, неча сўмлигини айтдим.

– Сизга катта раҳмат, мени хотиржам қилдингиз, – дедилар Опа янгроқ овозда, – ўша пулларни, – деб яқин дугоналарининг исмини айтдилар, – қарз олган эди, тунов куни олиб келган эди, сейфга кўйганману, гап билан бўлиб, кулфлаш паққос эсимдан

– Qo‘lingizga olib, ichini qarang-chi, nima-dir bo‘lishi ham kerak, – deb kuldilar Opa.

Voh... qaradim-u nafasim ichimga tushib ketdi. Olamcha, ha, bir dunyo pul... bari yirik kupyurlar...

– Nima gap? – dedilar Opa jim bo‘lib qolganimga.

– Pul bor ekan, Opa, pul...

– Yaxshi, endi go‘shakni joyiga qo‘ying-da, pulni sanab, qanchaligini menga ayting, – dedilar.

Sanab bo‘lgach, yashil konvert ustidagi raqamlarga ko‘zim tushib qoldi. Men qancha sanagan bo‘lsam o‘shancha raqam turardi. Raqamlar men sanagan raqamga teng bo‘lgani uchun ham unga e‘tibor qilgan edim. Opaga qo‘ng‘iroq qilib, necha so‘mligini aytdim.

– Sizga katta rahmat, meni xotirjam qildingiz, – dedilar Opa yangroq ovozda, – o‘sha pullarni, – deb yaqin dugonalarining ismini aytdilar, – qarz olgan edi, tunov kuni olib kelgan edi, seyfga qo‘yganman-u, gap bilan bo‘lib, qulflash paqqos esimdan chiqqan-da,



чиққан-да, укажон, энди пастга тушиб турсанғиз, ҳозир Юлдуз қизим боради, калитни ўшандан берворасиз. Узр, овора қилиб кўйдим.

Камина арзимасдек туйилган бу воқеани ҳали-ҳануз эслайман. Ўшанда Опа телефон орқали менга нима деб турган бўлсалар бари инсон шаъни, ҳаққи, ҳурмати учун бўлганини кейинроқ фаҳмладим. Олинг, ана, сейфнинг очиклигини бошқа бир одам кўрди ва уни шайтон йўлдан урди, дейлик. Шундай бўлиши мумкинми, мумкин! Кўк конвертдаги захира ғойиб бўлди, дейлик. Ҳа, менгача ғойиб бўлди! Унда нима бўларди? Шунинг учун ҳам Опа гумон билан “Яшил конверт бўлиши керагиди”, дедилар. Унақа конверт йўқ, Опа, деганимда, “ҳа” деб тақдирга тан бериб кўя қолардилар. Ўғирлаб кетилганини ўзлари билардилар-у, мен билмасдим. Билсам, Опанинг сейфига ким тушиши мумкин, деб бир олам гумон ва ташвиш ичида қолардим. Яна пулни Опа бекорга санатмадилар, ҳаммаси олинмаганда ҳам маълум сумма олиниши мумкин-ку. Агарда шундай бўлган

ukajon, endi pastga tushib tursangiz, hozir Yulduz qizim boradi, kalitni o'shandan bervorasiz. UZR, ovora qilib qo'ydim.

Kamina arzimasdek tuyilgan bu voqeani hali-hanuz eslayman. O'shanda Opa telefon orqali menga nima deb turgan bo'lsalar bari inson sha'ni, haqqi, hurmati uchun bo'lganini keyinroq fahmladim. Oling, ana, seyfning ochiqiligini boshqa bir odam ko'rdi va uni shayton yo'ldan urdi, deylik. Shunday bo'lishi mumkinmi, mumkin! Ko'k konvertdagi zaxira g'oyib bo'ldi, deylik. Ha, mengacha g'oyib bo'ldi! Unda nima bo'lardi? Shuning uchun ham Opa gumon bilan "Yashil konvert bo'lishi keragidi", dedilar. Unaqa konvert yo'q, Opa, deganimda, "ha" deb taqdirga tan berib qo'ya qolardilar. O'g'irlab ketilganini o'zlari bilardilar-u, men bilmasdim. Bilsam, Opaning seyfiga kim tushishi mumkin, deb bir olam gumon va tashvish ichida qolardim. Yana pulni Opa bekorga sanatmadilar, hammasi olinmaganda ham ma'lum summa olinishi mumkin-ku. Agarda shunday bo'lgan taqdirda



такдирда ҳам опа “ха” деб қўя қолардилар. Бунча эди, бунчаси кам, демасдилар. Ўзлари билиб, ўзлари қўяқолардилар. Инсон шаъни, қадр-қимматини бунчалар теран ва нозик ким ҳам тушуна оларди? Ҳа, кўнглингиздан кечган ўша Инсонгина...

Олам кенг. Одам оламнинг бир парчаси. Лекин одамнинг бағри оламдек кенг бўла оладими? Ҳамма гап шунда?! Навбатдаги баёнимиз ана шу ҳақда.



ham opa “ha” deb qo‘ya qolardilar. Buncha cdi, bunchasi kam, demasdilar. O‘zlari bilib, o‘zlari qo‘yaqolardilar. Inson sha’ni, qadr-qimmatini bunchalar teran va nozik kim ham tushuna olardi? Ha, ko‘nglingizdan kechgan o‘sha Insongina...

Olam keng. Odam olamning bir parchasi. Lekin odamning bag‘ri olamdek keng bo‘la oladimi? Hamma gap shunda?! Navbatdagi bayonimiz ana shu haqda.



## МИРТЕМИР ДОМЛА

Хонада ўтирсам кўнғироқ бўлиб қолди. Дўриллаган кўполдан кўпол бир овоз дабдурустдан:

– Савод борми, ким сизларга Миртемирни Халқ шоири деди, у ҳеч қанақа Халқ шоири эмас, журналингларида тузатиш беринглари, – деб гўшакни тарақлатиб кўйиб кўйди. Одатда, бунақа кўнғироқлар юқоридан бўларди. Қуйи идоралардан бўлмасди. “Саодат”нинг, Опанинг ҳурмати бор эди. Мен, кечирасиз, кимсиз, деганимча қолавердим. Ҳа, кимликларини айтишса обрўлари тўкилиб, мансабларидан тушиб қолишади. Гўё бу ёқдагилар уларнинг кимлигини овозлариданок билиши шарт. Пешонамдан муздек тер чикиб кетди. Журналнинг бу сонини Холида опа икковимиз бошдан-оёқ ўқиб, босмахонага туширган эдик. Опа чет эл сафарига эдилар. Миртемир домла ўша пайтда шоир сифатида машҳури олам эди. Шунинг учун бўлса керакки, бўлим мудири Ойдин Ҳожиева ҳам, Холида опа, мен ҳам Халқ шоири бўлсалар керак деб

## MIRTEMIR DOMLA

Xonada o‘tirsam qo‘ng‘iroq bo‘lib qoldi. Do‘rillagan qo‘poldan qo‘pol bir ovoz dabdurustdan:

– Savod bormi, kim sizlarga Mirtemirni Xalq shoiri dedi, u hech qanaqa Xalq shoiri emas, jurnalninglarda tuzatish beringlar, – deb go‘shakni taraqlatib qo‘yib qo‘ydi. Odatda, bunaqa qo‘ng‘iroqlar yuqoridan bo‘lardi. Quyi idoralardan bo‘lmasdi. “Saodat”ning, Opaning hurmati bor edi. Men, kechirasiz, kimsiz, deganimcha qolaverdim. Ha, kimliklarini aytishsa obro‘lari to‘kilib, mansablaridan tushib qolishadi. Go‘yo bu yoqdagilar ularning kimligini ovozlaridanoq bilishi shart. Peshonamdan muzdek ter chiqib ketdi. Jurnalning bu sonini Xolida opa ikkovimiz boshdan-oyoq o‘qib, bosmaxonaga tushirgan edik. Opa chet el safarida edilar. Mirtemir domla o‘sha paytda shoir sifatida mashhuri olam edi. Shuning uchun bo‘lsa kerakki, bo‘lim mudiri Oydin Hojiyeva ham, Xolida opa, men ham



ўйлаганмиз. Умуман ҳеч қайсимизда Халқ шоирими, йўқми деган савол туғилмаган. Журнални кўтариб, бўлим мудури Ойдин Ҳожиеванинг олдига кирдим. У ҳам “наҳотки” дегандек ўй суриб қолди. Холида опага кириб, бўлган гапни айтдим. У кишининг ҳам ранги қув ўчди.

– Ўлай агар, мен Миртемир домлани Халқ шоири деб юрардим, – дедилар-да, безовталаниб, ўтирган жойларидан туриб кетдилар. Кейин:

– Юқоридан сизга ким кўнғирок қилди? – деб сўрадилар. Мен кимлигини айтмай, гўшакни қўйиб қўйганини айтдим. Бирдан Холида опа ўзгариб, жилмайдилар.

– Вой, ваҳимачи-ей, – деди у киши, – кимлигини айтмаган бўлса, шунчаки шантаж қипти-да. Опа сафардан қайтиб, журнални кўрдилар, хурсанд бўлдилар, ҳатто Миртемир домлани бериб яхши иш қилибсизлар, дедилар. Халқ шоири бўлмаганда айтардилар-ку, хато бўпти деб. Миртемир домла бир эмас, ўн марта Халқ шоири, – деб ўзларини ҳам, мени ҳам хотиржам қилган бўлди Холида опа.

Xalq shoiri bo'lsalar kerak deb o'ylaganmiz. Umuman hech qaysimizda Xalq shoirimi, yo'qmi degan savol tug'ilmagan. Jurnalni ko'tarib, bo'lim mudiri Oydin Hojiyevaning oldiga kirdim. U ham "nahotki" degandek o'y surib qoldi. Xolida opaga kirib, bo'lgan gapni aytdim. U kishining ham rangi quv o'chdi.

– O'lay agar, men Mirtemir domlani Xalq shoiri deb yurardim, – dedilar-da, bezovtalanib, o'tirgan joylaridan turib ketdilar. Keyin:

– Yuqoridan sizga kim qo'ng'iroq qildi? – deb so'radilar. Men kimligini aytmay, go'shakni qo'yib qo'yganini aytdim. Birdan Xolida opa o'zgarib, jilmaydilar.

– Boy, vahimachi-ey, – dedi u kishi, – kimligini aytmagan bo'lsa, shunchaki shantaj qipti-da. Opa safardan qaytib, jurnalni ko'rdilar, xursand bo'ldilar, hatto Mirtemir domlani berib yaxshi ish qilibsizlar, dedilar. Xalq shoiri bo'lmaganda aytardilar-ku, xato bo'пти deb. Mirtemir domla bir emas, o'n marta Xalq shoiri, – deb o'zlarini ham, meni ham xotirjam qilgan bo'ldi Xolida opa.

У кишининг олдидан енгил тортиб чиқдим. Ишқилиб, айтганлари рост бўлсин-да. Одатда, газета-журналларда хато ўтиб, қайта тузатиш бериладиган бўлса, албатта, айбдор ишдан олинар ё қагтик ҳайфсан эълон қилиниб, бу ҳақда юқориға маълумот жўнатилади.

Мен Холида опанинг олдидан чиққунча Ойдинхон Ёзувчилар уюшмасига кўнғирок қилиб, билиб бўптилар. Ростдан ҳам Миртемир домла Халқ шоири эмас экан.

Ана, холос... Опа университетга учрашувга кетган, бугун ишга қайтмас эдилар. Мен тузатиш бериш ҳақида ўйлардим. Қизиқ-ку, кимсан, шундоқ Миртемирдек одамни Халқ шоири эмас экан, деб журналхонлардан кечирим сўраймизми? Кейин, ўқувчиларга бу тузатишнинг нима кераги бор. Қолаверса, бу шундоқ улуғ шоирга ҳалигача унвон берилмагани юқори учун калтак эмасми? Ҳа, гап бу ёқда, калтак бориб, тегиб бўлган, дағдағалари шунга, деган хулосага келдим. Шундай қилиб, бўлим мудирини, Бош муҳаррир ўринбосарини ва каминанинг тақдиримиз қил устида қолди.

U kishining oldidan yengil tortib chiqdim. Ishqilib, aytganlari rost bo'lsin-da. Odatda, gazeta-jurnallarda xato o'tib, qayta tuzatish beriladigan bo'lsa, albatta, aybdor ishdan olinar yo qattiq hayfsan e'lon qilinib, bu haqda yuqoriga ma'lumot jo'natilardi.

Men Xolida opaning oldidan chiqquncha Oydxon Yozuvchilar uyushmasiga qo'ng'iroq qilib, bilib bo'ptilar. Rostdan ham Mirtemir domla Xalq shoiri emas ekan.

Ana, xolos... Opa universitetga uchrashuvga ketgan, bugun ishga qaytmas edilar. Men tuzatish berish haqida o'ylardim. Qiziq-ku, kimsan, shundoq Mirtemirdek odamni Xalq shoiri emas ekan, deb jurnalxonlardan kechirim so'raymizmi? Keyin, o'quvchilarga bu tuzatishning nima keragi bor. Qolaversa, bu shundoq ulug' shoirga haligacha unvon berilmagani yuqori uchun kaltak emasmi? Ha, gap bu yoqda, kaltak borib, tegib bo'lgan, dag'dag'alari shunga, degan xulosaga keldim. Shunday qilib, bo'lim mudiri, Bosh muharrir o'rinbosari va kaminaning taqdirimiz qil ustida

Энди ҳамма гап Опада қолган. У киши нима десалар шу бўлади.

Эртасига эрта билан дард устига чипқон деганларидек тахририятга Миртемир домла-нинг ўзлари кириб келдилар. Хафаҳол. Мен билан сўрашдилар-у ҳеч нарса демадилар. Опа ҳали келмаганларини айтдим. У киши келганини эшитиб, Ойдинхон ҳам котибиятга кириб келди, устоз билан сўрашди. Миртемир домла шеърни тайёрлаб туширган Ойдинхонга ҳам индамадилар. Қўлларига чой тутдим. Журнал ҳақида мен ҳам оғиз очмадим. Нима учун келганларини сезиб турибман. Ишни қилган биз-у, у киши айбдордек. Опа одатдагидек хонамизга бир бош суқиб, кейин кабинетига ўтардилар. Коридордаги тақ-тук товушдан сездимки, келяптилар. Опа ҳар доим пошнаси қаттиқ пойабзал киярдилар. Қаддиларини тик тутиб юардилар.

– Опа келяптилар, – дедим ерга караб, хаёл суриб ўтирган Миртемир домлага. У киши шошиб ўринларидан турдилар. Бу орада Опа ҳам очиқ эшик олдида кўриниб қолдилар. Кўзлари Миртемир домлага тушиб:



qoldi. Endi hamma gap Opada qolgan. U kishi nima desalar shu bo'ladi.

Ertasiga erta bilan dard ustiga chipqon deganlaridek tahririyatga Mirtemir domlaning o'zlari kirib keldilar. Xafahol. Men bilan so'rashdilar-u hech narsa demadilar. Opa hali kelmaganlarini aytdim. U kishi kelganini eshitib, Oydinxon ham kotibiyatga kirib keldi, ustoz bilan so'rashdi. Mirtemir domla she'rni tayyorlab tushirgan Oydinxonga ham indamadilar. Qo'llariga choy tutdim. Jurnal haqida men ham og'iz ochmadim. Nima uchun kelganlarini sezib turibman. Ishni qilgan biz-u, u kishi aybdordek. Opa odatdagidek xonamizga bir bosh suqib, keyin kabinetiga o'tardilar. Koridordagi taq-tuq tovushdan sezdimki, kelyaptilar. Opa har doim poshnasi qattiq poyabzal kiyardilar. Qaddilarini tik tutib yurardilar.

– Opa kelyaptilar, – dedim yerga qarab, xayol surib o'tirgan Mirtemir domlaga. U kishi shoshib o'rinlaridan turdilar. Bu orada Opa ham ochiq eshik oldida ko'rinib qoldilar. Ko'zlari Mirtemir domlaga tushib:



– И-е, хай-й... Миртемир ака, нучук-нучук, бизни йўқлабсизми? – деб ичкари кириб, қадрдонлардек домланинг елкасини олиб кўришдилар. Домла ҳам ёш боладек елка тутиб турарди. Кейин Опанинг юзига қарамай:

– Шеърлар учун раҳмат дегани келдим, – дедилар сал хирқираган овозда. Дард ва кексалик кейинги пайтларда домлани анча енгиб кўйгани сезилиб турарди.

– Шундоқ дилбар шеърлар ёзибсизки, ўқиб, маза қилдим, илоё умрингиз узоқ бўлсин, – дедилар Опа яйраб, – қани юринг, кабинетга кирамиз...

– Узр, Зулфияхоним раҳматимни айтволдим, энди бораколай, – дедилар-у, Опага ярим қараб чайналдилар, – шу, сал ғалат иш бўпти-да, Зулфияхоним. Халқ шоири деворибсизлар, ишқилиб Ойдинжонга гап тегмайдими?..

– Э, – дедилар Опа бояги қувноқлик билан, – шунга шаштингиз пастми, дилда бори тилга чиқади-да, ўзи биз учун сиз аллақачондан Халқ шоирисиз... Ҳа, бу унвонни сизга

– I-e, hay-y... Mirtemir aka, nuchuk-nuchuk, bizni yo‘qlabsizmi? – deb ichkari kirib, qadrdonlardek domlani yelkasini olib ko‘rishdilar. Domla ham yosh boladek yelka tutib turardi. Keyin Opaning yuziga qaramay:

– She‘rlar uchun rahmat degani keldim, – dedilar sal xirqiragan ovozda. Dard va keksalik keyingi paytlarda domlani ancha yengib qo‘ygani sezilib turardi.

– Shundoq dilbar she‘rlar yozibsizki, o‘qib, maza qildim, iloyo umringiz uzoq bo‘lsin, – dedilar Opa yayrab, – qani yuring, kabinetga kiramiz...

– Uzi, Zulfiyaxonim rahmatimni aytvoldim, endi boraqolay, – dedilar-u, Opaga yarim qarab chaynaldilar, – shu, sal g‘alat ish bo‘pti-da, Zulfiyaxonim. Xalq shoiri devoribsizlar, ishqilib Oydingonga gap tegmaydimi?..

– E, – dedilar Opa boyagi quvnoqlik bilan, – shunga shashtingiz pastmi, dilda bori tilga chiqadi-da, o‘zi biz uchun siz allaqachondan Xalq shoirisiz... Ha, bu unvonni sizga alla-



аллақачонлар бериб бўлганмиз, бу фақат яхшиликка...

Бу гаплардан кейин Миртемир домла бирдан ўзгарди, бошларини кўтариб, баралла хохолаб кулиб юбордилар. Кўлларини кўксига қўйиб:

– Ташаккур, Зулфияхоним, ташаккур, сўзларингиздан кўп хузурландим, – дедилар.

Хонага бир ахволда, кириб келган Миртемир домла шахдам кайфият билан чиқиб кетди. Хато ўтказиб юборганимизни Опа билган эканлар-у, бир нима дейишга арзитмаган эканлар.

Энг кизиғи, орадан бир йил ўтиб, Миртемир домлага Ўзбекистон халқ шоири унвони берилди. Бу ҳамма учун, айниқса, “Саодат” учун катта байрам бўлди. Ўшанда Опа “Бу фақат яхшиликка”, деганларида гап бор экан...

qachonlar berib bo'lganmiz, bu faqat yaxshilikka...

Bu gaplardan keyin Mirtemir domla birdan o'zgardi, boshlarini ko'tarib, baralla xoxolab kulib yubordilar. Qo'llarini ko'ksiga qo'yib:

– Tashakkur, Zulfiyaxonim, tashakkur, so'zlaringizdan ko'p huzurlandim, – dedilar.

Xonaga bir ahvolda, kirib kelgan Mirtemir domla shaxdam kayfiyat bilan chiqib ketdi. Xato o'tkazib yuborganimizni Opa bilgan ekanlar-u, bir nima deyishga arzimagan ekanlar.

Eng qizig'i, oradan bir yil o'tib, Mirtemir domlaga O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi. Bu hamma uchun, ayniqsa, "Saodat" uchun katta bayram bo'ldi. O'shanda Opa "Bu faqat yaxshilikka", deganlarida gap bor ekan...

## ТАҚДИР МАСАЛАСИ

*Ҳар бир инсон бир тақдир. Лекин ана шу тақдирлар бир-бирини занжирдек ушлаб туришини ўйлаб кўрганмисиз? Унинг қандай намоён бўлишини-чи?*

Опа ички телефондан менга кўнғироқ қилиб:

– Кадрлар бўлимидан билинг-чи, бўш ўрнимиз бор эди, қисқариб кетмадимикан? – дедилар.

Аниқлаб, Опанинг олдига кирсам, кабинетда Йўлдош Шамшаров ўтирибди. Бўш ўрин қисқармаганини Опага айтдим.

– Қисқармагани яхши бўпти, эртага олдингизга бир йигит келади, гаплашиб кўринг-чи, маъкул бўлса ишга оламиз, – дедилар. Йўлдош Шамшаров менга “ялт” этиб қараб қўйди. Сездимки, келаётган у кишининг одами.

Опа: “Аёллар журналида, факат аёллар ишлайди дегани эмас, эркаклар ҳам ишлаши керак, мош-гуруч бўлгани яхши, эркакларнинг фариштаси бор”, дердилар. Бўш

## TAQDIR MASALASI

***Har bir inson bir taqdir. Lekin ana shu taqdirlar bir-birini zanjirdek ushlab turishini o‘ylab ko‘rganmisiz? Uning qanday namoyon bo‘lishini-chi?***

Opa ichki telefondan menga qo‘ng‘iroq qilib:

– Kadrlar bo‘limidan biling-chi, bo‘sh o‘rnimiz bor edi, qisqarib ketmadimikan? – dedilar.

Aniqlab, Opaning oldiga kirsam, kabinetida Yo‘ldosh Shamsharov o‘tiribdi. Bo‘sh o‘rin qisqarmaganini Opaga aytdim.

– Qisqarmagani yaxshi bo‘pti, ertaga oldingizga bir yigit keladi, gaplashib ko‘ring-chi, ma‘qul bo‘lsa ishga olamiz, – dedilar. Yo‘ldosh Shamsharov menga “yalt” etib qarab qo‘ydi. Sezdimki, kelayotgan u kishining odami.

Opa: “Ayollar jurnalida, faqat ayollar ishlaydi degani emas, erkaklar ham ishlashi kerak, mosh-guruch bo‘lgani yaxshi, erkak-



Ўринга шоира қизларидан кўп талабгорлар чиққан эди. Опа, эркак журналист ола-миз, деб уларни қайтарган эдилар. Масала-нинг яна бир томони хизмат сафарлари эди. Аёл ходимларни ҳадеганда хизмат сафарига жўнатиб бўлмасди. Бахоналари кўп эди. Эр-как журналистлар эса юрак ютиб, “Саодат”га келақолай демасди. Опа ўзларига яқин Бош муҳаррирларга “Бизга яхши бир эркак жур-налист керак”, деб айтиб қўйганларидан ха-барим бор эди. Демак, Йўлдош Шамшаров “Саодат”га ўша журналистни топибди-да. Йўлдош Шамшаров ўз даврининг етук очер-кисти ва таржимони сифатида танилган эди. Даниэл Дефонинг “Робинзон Крузо” асари-ни ўзбекчага қойиллатиб таржима қилган, у қайта-қайта нашр бўларди. Шундай одам журналимизга кимларни тавсия қилишни билса керак.

Эртасига хонада нимагадир кирди-чиқ-ди кўп бўлди. Ҳали “Гулистон”, “Гулхан”, “Ғунча” ходимлари, биз улар билан битта каватга жойлашган эдик. Бирдан эшик таги-да турган кўзойнакли жиккак йигитга кўзим

larning farishtasi bor”, derdilar. Bo‘sh o‘ringa shoira qizlaridan ko‘p talabgorlar chiqqan edi. Opa, erkak jurnalist olamiz, deb ularni qaytargan edilar. Masalaning yana bir tomoni xizmat safarlari edi. Ayol xodimlarni hadeganda xizmat safariga jo‘natib bo‘lmasdi. Bahonalari ko‘p edi. Erkak jurnalistlar esa yurak yutib, “Saodat”ga kelaqolay demasdi. Opa o‘zlariga yaqin Bosh muharrirlarga “Bizga yaxshi bir erkak jurnalist kerak”, deb aytib qo‘yganlaridan xabarim bor edi. Demak, Yo‘ldosh Shamsharov “Saodat”ga o‘sha jurnalistni topibdi-da. Yo‘ldosh Shamsharov o‘z davrining yetuk ocherkisti va tarjimoni sifatida tanilgan edi. Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” asarini o‘zbekchaga qoyillatib tarjima qilgan, u qayta-qayta nashr bo‘lardi. Shunday odam jurnalimizga kimlarni tavsiya qilishni bilsa kerak.

Ertasiga xonada nimagadir kirdi-chiqdi ko‘p bo‘ldi. Hali “Guliston”, “Gulxan”, “G‘uncha” xodimlari, biz ular bilan bitta qavatga joylashgan edik. Birdan eshik tagida

тушди. Унинг халидан бери ичкари киромай тортиниб турганини эсладим.

– Кечирасиз, менда ишингиз бормиди?

– Ҳа, бўшашингизни кутётувдим, – деди у иссиқ жилмайиб.

– Бостириб кировурмайсизми, секретариатлар ўзи шунақа, отбозор бўлади, – дедим унга бошдан-оёқ қараб. У костюм-шим кийиб, галстук тақиб, сочини силлиқ қилиб орқага тараб, ўзига қараган-у, барибир шаҳарлик эмаслиги сезилиб турарди.

– Мени Йўлдош Шамшаров юбордилар, – деди у боягидек иссиқ жилмайиб.

– Ҳа, сизмидингиз? – деб унга қайтадан қарадим. Илгари кўрмаган эканман. Исми, фамилияси ҳам нотаниш. У менга мўлтираб, ғалати қараб турарди. Худди ишга олиш-олмаслик менга боғлиқдек. Балки Йўлдош Шамшаров Опанинг масъул котиби билан яхшилаб гаплаш, дегандир.

– Қаердансиз?

– Намонгандан.

– Ишлайсизми?

turgan ko'zoynakli jikkak yigitga ko'zim tushdi. Uning halidan beri ichkari kirolmay tortinib turganini esladim.

– Kechirasiz, menda ishingiz bormidi?

– Ha, bo'shalingizni kutyotuvdim, – dedi u issiq jilmayib.

– Bostirib kirovurmaysizmi, sekretariatlar o'zi shunaqa, otbozor bo'ladi, – dedim unga boshdan-oyoq qarab. U kostyum-shim kiyib, galstuk taqib, sochini silliq qilib orqaga tarab, o'ziga qaragan-u, baribir shaharlik emasligi sezilib turardi.

– Meni Yo'ldosh Shamsharov yubordilar, – dedi u boyagidek issiq jilmayib.

– Ha, sizmidingiz? – deb unga qaytadan qaradim. Ilgari ko'rmagan ekanman. Ismi, familiyasi ham notanish. U menga mo'l-tirab, g'alati qarab turardi. Xuddi ishga olish-olmaslik menga bog'liqdek. Balki Yo'ldosh Shamsharov Opaning mas'ul kotibi bilan yaxshilab gaplash, degandir.

– Qayerdانسiz?

– Namongandan.

– Ishlaysizmi?





– Ишлардим, район газетасида, hozир бўшман.

Хуллас, коридорга чиқиб, тик оёқда туриб бўлса ҳам, узок гаплашдик. Бошидан ўтганларини эшитиб ачиниб кетдим. У обрўли бир одамни фельетон қилган, фактлар тасдиқланиб, у одам ишдан олинган. Аммо у болашақирни астойдил йўқ қивориш пайига тушган. Шунда иттифоқо Йўлдош Шамшаров у томонларга иш билан бориб қолади. Ёш журналистнинг бошига тушган ташвишдан отахон журналистни хабардор қилишади. Ота қараса, шу жимиртдеккина болага қасдлашиб қолган одамга тиши ўтмайди. Йигитнинг онаси, хотини ва битта боласи бор, бошқа суяйдиган ҳеч кими йўқ. Йўлдош Шамшаров уни хотини ва боласи билан Тошкентга олиб келишдан ўзга чора тополмайди. Уйидан битта хонани бўшатиб беради. “Саодат”дан бошқа газета ва журналларга ишга жойлаб қўяй деса, ҳалиги одамнинг қўли узунлигидан кўрқади. Йигит учун бирдан-бир тинч жой “Саодат” – Опанинг паноҳи. Бечора журъатли журналист ҳақиқатни ҳимоя қиламан

– Ishlardim, rayon gazetasida, hozir bo'shman.

Xullas, koridorga chiqib, tik oyoqda turib bo'lsa ham, uzoq gaplashdik. Boshidan o'tganlarini eshitib achinib ketdim. U obro'li bir odamni felyeton qilgan, faktlar tasdiqlanib, u odam ishdan olingan. Ammo u bolapaqirni astoydil yo'q qivorish payiga tushgan. Shunda ittifoqo Yo'ldosh Shamsharov u tomonlarga ish bilan borib qoladi. Yosh jurnalistning boshiga tushgan tashvishdan otaxon jurnalistni xabardor qilishadi. Ota qarasa, shu jimirtdekkina bolaga qasdlashib qolgan odamga tishi o'tmaydi. Yigitning onasi, xotini va bitta bolasi bor, boshqa suyaydigan hech kimi yo'q. Yo'ldosh Shamsharov uni xotini va bolasi bilan Toshkentga olib kelishdan o'zga chora topolmaydi. Uyidan bitta xonani bo'shatib beradi. "Saodat"dan boshqa gazeta va jurnallarga ishga joylab qo'yay desa, haligi odamning qo'li uzunligidan qo'rqadi. Yigit uchun birdan-bir tinch joy "Saodat" – Opaning panohi. Bechora jur'atli jurnalist haqiqatni



деб ўзи ҳимояга муҳтож бўлиб қолибди. Энг муҳими, журналистга хос журъати бор экан, йигитни. Менга шуниси ёқди. Демак, нимадир бор, ўша “нимаси” учун ҳам уни ишга олиш керак. Шу гапим Опага маъкул бўлдию йигит ишга олинди. Йўлдош Шамшаров тўғри иш қилган экан, халиги одам тишини кайраганича қолди. Опанинг паноҳидаги ходимга тазйиқ ўтказа олмади. Ёш журналист аста-секин ишга ҳам киришиб кетди. Чиройли лавҳалари, репортажлари, очерклари билан устози Йўлдош Шамшаров, Зулфия опанинг ишончини қозонди. Ҳаёти бир чиройли изга тушиб кетди.

У журъатли журналист ким бўлди экан, дейсизми? Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист Ортиқали Намозов. Ҳа, юртимиз мустақилликка эришгандан кейин у ана шундай унвонга сазовор бўлди. Учрашиб қолганимизда, Йўлдош Шамшаров, Зулфия опаларнинг охиратлари обод бўлсин, менга тоғдек суянчиқ бўлишган, бўлмаса чигирткадек эзворишарди, деб қадимгидек иссиқ жилмаяди Ортиқали.

himoya qilaman deb o'zi himoyaga muhtoj bo'lib qolibdi. Eng muhimi, jurnalistga xos jur'ati bor ekan, yigitni. Menga shunisi yoqdi. Demak, nimadir bor, o'sha "nimasi" uchun ham uni ishga olish kerak. Shu gapim Opa-ga ma'qul bo'ldi-yu yigit ishga olindi. Yo'ldosh Shamsharov to'g'ri ish qilgan ekan, haligi odam tishini qayraganicha qoldi. Opaning panohidagi xodimga tazyiq o'tkaza olmadi. Yosh jurnalist asta-sekin ishga ham kirishib ketdi. Chiroyli lavhalari, reportajlari, ocherklari bilan ustoz Yo'ldosh Shamsharov, Zulfiya opaning ishonchini qozondi. Hayoti bir chiroyli izga tushib ketdi.

U jur'atli jurnalist kim bo'ldi ekan, deysizmi? O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ortiqali Namozov. Ha, yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin u ana shunday unvonga sazovor bo'ldi. Uchrashib qolganimizda, Yo'ldosh Shamsharov, Zulfiya opalarning oxiratlari obod bo'lsin, menga tog'dek suyanchiq bo'lishgan, bo'lmasa chigirtkadek ezvorishardi, deb qadimgidek issiq jilmayadi Ortiqali.

## МАОШИ БИЛАН КЕЛГАН ХОДИМ

*Катта-ю кичик жамоаларда шундай бир ички қонуният бўлади. Жамоага ташқаридан бегона кирмаса, кирса ҳам ўз одами бўлса. Лекин Она бундай қарашдан узоқ эдилар.*

Ҳамма машмаша кекса ходим Роза опа Сайфиеванинг нафақа ёшига етганидан кейин бошланди. Наприёт кадрлар бўлимидан у кишини зудлик билан нафақага кузатишимиз кераклигини, буни Опага ётиғи билан тушунтиришимни тайинлашди. Одатда, иш ўрни қисқариши керак бўлса кучлари нафақага чиқадиганларга етар, шу билан иш ўрни қисқарган бўларди. Мен шунақа бўладими, деб кадрлар бўлимининг бошлиғидан сўрадим.

– Йўқ, – деди у сирлироқ қилиб, – иш ўрни қисқармайди, олий маълумотли ёшларни ишга оламиз, Роза опанинг маълумоти ўрта, Опага шундай деб айтинг.

Кадрлар бўлими бу гапларни менга қан-

## MAOSHI BILAN KELGAN XODIM

*Katta-yu kichik jamoalarda shunday bir ichki qonuniyat bo'ladi. Jamoaga tashqaridan begona kirmasa, kirsa ham o'z odami bo'lsa. Lekin Opa bunday qarashdan uzoq edilar.*

Hamma mashmasha keksa xodim Roza opa Sayfiyevaning nafaqa yoshiga yetganidan keyin boshlandi. Nashriyot kadrlar bo'limidan u kishini zudlik bilan nafaqaga kuzatishimiz kerakligini, buni Opaga yotig'i bilan tushuntirishimni tayinlashdi. Odatda, ish o'rni qisqarishi kerak bo'lsa kuchlari nafaqaga chiqadiganlarga yetar, shu bilan ish o'rni qisqargan bo'lardi. Men shunaqa bo'ladimi, deb kadrlar bo'limining boshlig'idan so'radim.

– Yo'q, – dedi u sirliroq qilib, – ish o'rni qisqarmaydi, oliy ma'lumotli yoshlarni ishga olamiz, Roza opaning ma'lumoti o'rta, Opaga shunday deb ayting.

Kadrlar bo'limi bu gaplarni menga qanchalik siyosat bilan jiddiy qilib aytmasin, Opaning parvoyiga ham kelmadi.



чалик сиёсат билан жиддий қилиб айтмасин, Опанинг парвойига ҳам келмади.

– Кадрлар бўлимига айтиб кўйинг, Мен Роза Сайфиевани ўнта олий маълумотлига алмашмайман, хатларнинг тақдири ҳазилакам иш бўптими, ҳаммани алмаштиришлари мумкин, ҳатто мени ҳам, мен ҳам олий маълумотли эмасман, лекин хатлар бўлимига тега кўришмасин, кейин кимни ишдан бўшатиб, кимни ишга олишни Бош муҳаррир ҳал қилади, кадрлар бўлими эмас...

Опа бу гапларни шунчаки оддий ва жўн қилиб айтдиларки, кўз олдимдан кадрлар бўлимининг қилаётган босими тумандек тарқадикетди. Чиндан ҳам Роза опа ўттиз неча йилдан бери хатлар бўлимини бошқарар, ҳам ўзбек, ҳам рус тилларини мукаммал билар, у киши ёзган жавоб хатларига Опа ўқибоқ кўл кўйиб берардилар. Роза опа бўлимларга келган хатлар ва уларга жавобларни ҳам қаттиқ назорат қиларди. Жамоатчи мухбирлар билан ишларди, уларнинг мақола ва лавҳаларини журналга кўйиш учун мен билан жой талашарди. Кадрлар бўлими айтаётган олий маъ-

– Kadrlar bo‘limiga aytib qo‘ying, Men Roza Sayfiyevani o‘nta oliy ma‘lumotliga almashmayman, xatlarning taqdiri hazilakam ish bo‘ptimi, hammani almashtirishlari mumkin, hatto meni ham, men ham oliy ma‘lumotli emasman, lekin xatlar bo‘limiga tega ko‘rishmasin, keyin kimni ishdan bo‘shatib, kimni ishga olishni Bosh muharrir hal qiladi, kadrlar bo‘limi emas...

Opa bu gaplarni shunchaki oddiy va jo‘n qilib aytdilarki, ko‘z oldimdan kadrlar bo‘limining qilayotgan bosimi tumandek tarqadiketdi. Chindan ham Roza opa o‘ttiz necha yildan beri xatlar bo‘limini boshqarar, ham o‘zbek, ham rus tillarini mukammal bilar, u kishi yozgan javob xatlariga Opa o‘qiboq qo‘l qo‘yib berardilar. Roza opa bo‘limlarga kelgan xatlar va ularga javoblarni ham qattiq nazorat qilardi. Jamoatchi muxbirlar bilan ishlardi, ularning maqola va lavhalarini jurnalga qo‘yish uchun men bilan joy talashardi. Kadrlar bo‘limi aytayotgan oliy ma‘lumotli xodimning bu o‘rinda ishlab ketishiga mening ham ko‘zim yetmasdi.



лумотли ходимнинг бу ўринда ишлаб кетишига менинг ҳам кўзим етмасди.

Опанинг гапларини кадрлар бўлимига қандай бўлса шундайлигича етказдим. Бошлиқнинг тарвузи кўлтиғидан тушди. Шу заҳоти қайгадир кўнғирок қилиб, “Опа йўқ дебдилар”, деди. Сездимки, кадрлар бўлими ҳам кимнингдир топшириғини бажаряпти.

Орадан бир хафта ўтиб, каминани яна кадрлар бўлимига чақириб қолишди. Бирданига журналга битта иш ўрни берадиган бўлишибди. Аслида биз штат сўрамаган эдик. Лекин хатлар бўлимига битта одам жуда керак эди, кейинги пайтда хатлар сони кундан-кун ошиб борарди.

– Яхши бўпти, Опа эшитсалар жудаям хурсанд бўладилар, бизни ишга олинг деган олий маълумотли шогирдлари кўп, – дедим, “олий маълумотли” сўзига атайлаб урғу бериб.

– Йўқ, – деди кадрлар бўлимининг бошлиғи, – бу ўрин ўз маоши билан келяпти, маош ажратган жой кимни ол деса ўшани ишга оласизлар.

Бу гап ходимлар ўртасида бирдан норо-

Opaning gaplarini kadrlar bo'limiga qanday bo'lsa shundayligicha yetkazdim. Boshliqning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. Shu zahoti qaygadir qo'ng'iroq qilib, "Opa yo'q debdilar", dedi. Sezdimki, kadrlar bo'limi ham kimningdir topshirig'ini bajaryapti.

Oradan bir hafta o'tib, kaminani yana kadrlar bo'limiga chaqirib qolishdi. Birdaniga jurnalga bitta ish o'rni beradigan bo'lishibdi. Aslida biz shtat so'ramagan edik. Lekin xatlar bo'limiga bitta odam juda kerak edi, keyingi paytda xatlar soni kundan-kun oshib borardi.

– Yaxshi bo'пти, Opa eshitsalar judayam xursand bo'ladilar, bizni ishga oling degan oliy ma'lumotli shogirdlari ko'p, – dedim, "oliy ma'lumotli" so'ziga ataylab urg'u berib.

– Yo'q, – dedi kadrlar bo'limining boshlig'i, – bu o'rin o'z maoshi bilan kelyapti, maosh ajratgan joy kimni ol desa o'shani ishga olasizlar.

Bu gap xodimlar o'rtasida birdan norozilik uyg'otdi. Yuqorining tavsiyasi bilan kelayotgan bo'lsa, demak, kamida bo'lim mudiri



зилик уйғотди. Юқорининг тавсияси билан келаётган бўлса, демак, камида бўлим мудир, масъул котиб ёки Холида опанинг ўрнига келаётган бўлади-да, кейин... ҳа, Опа ҳам нафақа ёшидалар... Жамоодаги бу руҳий ҳолат Опанинг ҳам қулоғига етди. Дарров мажлис чақирдилар.

– Аввало, журналга янги иш ўрни берилганидан қувонмоқ керак, яна бўлажак ходим, барака топкур, ўз маоши билан келяпти экан, бу яхши-ку. Сизлар билан ишлаб кетса, нур устига нур, ишлолмаса иш ўрнини ўзи билан орқалаб кетмайди-ку, таҳририятга қолади-ку...

Опа ҳали келмаган ходимнинг ҳурматини шундай ўрнига қўйиб гапирдиларки, жамоа ун босгандек бўлиб қолди.

Янги ходим келди. Ким экан дейсизми? Кимлигининг аҳамияти йўқ. Ёш, оилали, камсуқимгина, киришимли бир аёл экан. Ўзи шунақа бўлади, ваҳима қилинган нарсалар кўпинча тескариси бўлиб чиқади. У “Саодат”да ишлашни кўпдан орзу қилар экан. Тоғаси иш ўринларини ҳал қиладиган

ri, mas'ul kotib yoki Xolida opaning o'rniga kelayotgan bo'ladi-da, keyin... ha, Opa ham nafaqa yoshidalar... Jamoadagi bu ruhiy holat Opaning ham qulog'iga yetdi. Darrov majlis chaqirdilar.

– Avvalo, jurnalga yangi ish o'rni berilganidan quvonmoq kerak, yana bo'lajak xodim, baraka topkur, o'z maoshi bilan kelyapti ekan, bu yaxshi-ku. Sizlar bilan ishlab ketsa, nur ustiga nur, ishlolmasa ish o'rmini o'zi bilan orqalab ketmaydi-ku, tahririyatga qoladi-ku...

Opa hali kelmagan xodimning hurmatini shunday o'rniga qo'yib gapirdilarki, jamoa un bosgandek bo'lib qoldi.

Yangi xodim keldi. Kim ekan deysizmi? Kimligining ahamiyati yo'q. Yosh, oilali, kamsuqingina, kirishimli bir ayol ekan. O'zi shunaqa bo'ladi, vahima qilingan narsalar ko'pincha teskarisi bo'lib chiqadi. U "Saodat"da ishlashni ko'pdan orzu qilar ekan. Tog'asi ish o'rinlarini hal qiladigan kattakon idorada ishlagani uchun jiyaniga himmat



каттакон идорада ишлагани учун жиянига ҳиммат қилган жойи экан. Роза опа жон деб унга бағрини очди, ишларини ўргатди ва вақти-соати келганда ўринларига хотиржам қолдириб кетдилар.



qilgan joyi ekan. Roza opa jon deb unga bagʻrini ochdi, ishlarini oʻrgatdi va vaqti-soati kelganda oʻrinlariga xotirjam qoldirib ketdilar.





## КЕЛИНЛИКНИНГ ОҚ ЛИБОСИ

*Ҳар бир одам кимлигидан қатъи назар, кузатувлар, таҳлиллар ва таваккаллар билан яшайди. Қанийди бу саъй-ҳаракатлари фақат ўзи учун бўлмаса. Дунё нақадар гўзаллашиб кетган бўларди-я!*

“Саодат”нинг бир ойлик махсус сонини самарқандлик хотин-қизлар ҳаётига бағишлайдиган бўлдик. Бу анча машаққатли, кўпкунлик сафар эди. Бундай узоқ сафарга аёлларни юбора олмасдик. Борис билан яна йўлга тушишга мажбур бўлдик. Опа менга қараб:

– “Келинликнинг оқ либосини” ёзган самарқандлик аёл борку, ўшани топинг-да, номерни у билан тайёрланг, ҳарҳолда аёл киши, кўпроқ ёрдами тегади, – дедилар.

Самарқандлик бу аёл нарсаларини “Саодат”га почта орқали юборар, бирор марта таҳририятга келмаган эди. Мақолаларига қараб, пасту баландни анча кўриб кўйган, тажрибали бир аёл деб ўйлардик. Унинг ке-

## KELINLIKNING OQ LIBOSI

*Har bir odam kimligidan qat'i nazar, kuzatuvlar, tahlillar va tavakkallar bilan yashaydi. Qaniydi bu sa'y-harakatlari faqat o'zi uchun bo'lmasa. Dunyo naqadar go'zallashib ketgan bo'lardi-ya!*

“Saodat”ning bir oylik maxsus sonini samarqandlik xotin-qizlar hayotiga bag'ishlaydigan bo'ldik. Bu ancha mashaqqatli, ko'pkunlik safar edi. Bunday uzoq safarga ayollarni yubora olmasdik. Boris bilan yana yo'lga tushishga majbur bo'ldik. Opa menga qarab:

– “Kelinlikning oq libosini” yozgan samarqandlik ayol borku, o'shani toping-da, nomerni u bilan tayyorlang, harholda ayol kishi, ko'proq yordami tegadi, – dedilar.

Samarqandlik bu ayol narsalarini “Saodat”ga pochta orqali yuborar, biror marta tahririyatga kelmagan edi. Maqolalariga qarab, past-u balandni ancha ko'rib qo'ygan, tajribali bir ayol deb o'ylardik. Uning keyingi sonda



йинги сонда эълон қилинган “Келинликнинг оқ либоси” Опага жудаям маъқул бўлган, хатто муаллифга хат орқали ўз миннатдорчиликларини ҳам билдирган эдилар. Мақола таъсирли бўлиб, енгил кўчага кириб, келинликнинг оқ либосидан мосуво бўлиб қолган бир киз тақдири ҳақида эди. Мақолага журналхонлардан кўплаб хатлар келди. Жиддий муҳокамага сабаб бўлди. Зулфия опа мухбирлар ва ёш шоираларнинг бир қатор шеъри, ёки бир оғиз сўзидан кимлигини илғаб олардилар. Журнал муҳокамаларида, кўз тегмасин, талантли экан, деб кўярдилар. Масалан, Муҳтараманинг “Тиззасига дўпписин кўйиб, катим тортар қизгина” шеъри уни ишга келишига сабаб бўлган эди. Самарқандлик мухбирни ҳам у ёзган мақола сарлавҳаси билан эсладилар.

Суратчи икковимизни обком биносининг эшиги тагида лўппи юзли, пастаккина бир қизалоқ жилмайибгина кутиб олди.

– Бўлақолинглар, сизларни биринчи котиб кутяпти, – деди ва бизларни илдам юқори бошлаб кетди. Бектош Раҳимов обкомнинг

e'lon qilingan "Kelinlikning oq libosi" Opaga judayam ma'qul bo'lgan, hatto muallifga xat orqali o'z minnatdorchiliklarini ham bildirgan edilar. Maqola ta'sirli bo'lib, yengil ko'chaga kirib, kelinlikning oq libosidan mosuvo bo'lib qolgan bir qiz taqdiri haqida edi. Maqolaga jurnalxonlardan ko'plab xatlar keldi. Jiddiy muhokamaga sabab bo'ldi. Zulfiya opa muxbirlar va yosh shoiralarning bir qator she'ri, yoki bir og'iz so'zidan kimligini ilg'ab olardilar. Jurnal muhokamalarida, ko'z tegmasin, talantli ekan, deb qo'yardilar. Masalan, Muhtaramaning "Tizzasiga do'ppisin qo'yib, qatim tortar qizgina" she'ri uni ishga kelishiga sabab bo'lgan edi. Samarqandlik muxbirni ham u yozgan maqola sarlavhasi bilan esladilar.

Suratchi ikkovimizni obkom binosining eshigi tagida lo'ppi yuzli, pastakkina bir qizaloq jilmayibgina kutib oldi.

– Bo'laqolinglar, sizlarni birinchi kotib kut-yapti, – dedi va bizlarni ildam yuqori boshlab ketdi. Bektosh Rahimov obkomning birin-

биринчи котиби эди. Журналнинг, Опанинг обрўси туфайли деярли ҳамма жойда биринчи котибнинг хузурига кириб чиқиш одат тусига кирган эди.

Суҳбат давомида Бектош Раҳимов Опанинг ҳол-аҳволларини сўради, саломларини етказишимизни айтди. Ўз навбатида, биз режаларимизни қисқача баён қилдик. У киши хузурига бошлаб кирган қизни кўрсатиб, “Шу қизим сизлар билан бирга бўлади, нима десанглар муҳайё қилиб беради”, – деди.

Ишимиз тез битиши учун котибаларини кўшиб беряптилар шекилли, деган ўй кўнглимдан кечди. Биз котиба қиз билан режа тузиб олиш учун бир хонага кирдик. Мен ундан “Келинликнинг оқ либоси”ни ёзган Дилбар Саидовани сафимизга кўшишни илтимос қилдим. У кулди-да, мактаб ўқувчисидек ўрнидан дик этиб туриб:

– Дилбар Саидова хизматингизда, – деди.

– А, ҳазиллашманг, синглим, – дедим ишонмай.

– Бу даргоҳда ҳазиллашиб бўларканми? – деди у баралла кулиб.

chi kotibi edi. Jurnalning, Opaning obro'si tufayli deyarli hamma joyda birinchi kotibning huzuriga kirib chiqish odat tusiga kirgan edi.

Suhbat davomida Bektosh Rahimov Opaning hol-ahvollarini so'radi, salomlarini yetkazishimizni aytdi. O'z navbatida, biz rejalarimizni qisqacha bayon qildik. U kishi huzuriga boshlab kirgan qizni ko'rsatib, "Shu qizim sizlar bilan birga bo'ladi, nima desanglar muhayyo qilib beradi", – dedi.

Ishimiz tez bitishi uchun kotibalarini qo'shib beryaptilar shekilli, degan o'y ko'nglimdan kechdi. Biz kotiba qiz bilan reja tuzib olish uchun bir xonaga kirdik. Men undan "Kelinlikning oq libosi"ni yozgan Dilbar Saidovani safimizga qo'shishni iltimos qildim. U kuldi-da, maktab o'quvchisidek o'rnidan dik etib turib:

– Dilbar Saidova xizimatingizda, – dedi.

– A, hazillashmang, singlim, – dedim ishonmay.

– Bu dargohda hazillashib bo'larkanmi? – dedi u baralla kulib.

Мақола чиндан ҳам уни машхур қилиб юборганини, ҳатто бу катга даргоҳга ишга олиниб, ҳозир вилоят хотин-қизлари масалалари билан шуғулланаётганини айтди. Ана, холос, биз уни оилали, бола-чақали, кўпни кўрган аёл деб юрибмиз. У бўлса, эндигина йигирма беш ёшни қоралаган, оила қурмаган бир кизалок экан. Опа эшитсалар роса таъсирланадилар-да.

Гапнинг қисқаси, “Ақли ўзиданам ўзган” (бу Опанинг ташбеҳлари) Дилбар Саидовани ишга чақириб олдик. У муносиб шогирд сифатида ҳаётда Опанинг ишончини оқлади. Журналистика соҳасида самарали қалам тебратди. Қиссалар, ҳикоялар тўпламларини чоп эттирди. Айниқса, “Оила ва жамият” газетасига Бош муҳаррир бўлган йиллари уни гуллатди, яшнатди. Юртбошимиз кўлларидан Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист деган муборак унвонни олди.

Maqola chindan ham uni mashhur qilib yuborganini, hatto bu katta dargohga ishga olinib, hozir viloyat xotin-qizlari masalalari bilan shug'ullanayotganini aytdi. Ana, xolos, biz uni oilali, bola-chaqali, ko'pni ko'rgan ayol deb yuribmiz. U bo'lsa, endigina yigirma besh yoshni qoralagan, oila qurmagan bir qizaloq ekan. Opa eshitsalar rosa ta'sirlanadilar-da.

Gapning qisqasi, "Aqli o'zidanam o'zgan" (bu Opaning tashbehlari) Dilbar Saidovani ishga chaqirib oldik. U munosib shogird sifatida hayotda Opaning ishonchini oqladi. Jurnalistika sohasida samarali qalam tebratdi. Qissalar, hikoyalar to'plamlarini chop ettirdi. Ayniqsa, "Oila va jamiyat" gazetasiga Bosh muharrir bo'lgan yillari uni gullatdi, yashnatdi. Yurtboshimiz qo'llaridan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist degan muborak unvonni oldi.

## ХОТИРЖАМ ЯШАШ

*Ҳаёт тарзимизда масъулият деган тушунча бор. У инсоннинг табиатига қараб ундоқ ёки бундоқ бўлиши мумкин. Хўш, барқарор бўлиши ҳам мумкинми?*

Режа бўйича журналга киритилган материалларнинг кўпчилиги Опанинг эътиборидан ўтарди. Қисқа хабарлар, суратларнинг тагсўзларини уларга тақдим этмай кўяколардик. Журнал тайёр бўлгач, Холида опа охирги марта синчиклаб ўқиб чиқардилар-да, кейин Олимжон ака, рассом Лайлохон ва каминани бошлаб, Опанинг олдига кирардилар. Опа журнал макети устига “Босишга рухсат” деб имзо қўймагунларича ишлаб чиқариш бўлимига қабул қилмасди. Опа имзо қўйишдан олдин Холида опага бир қараб кўярдилар-да:

– Яхшилаб ўқидингизми? – деб сўрардилар. Холида опа “ҳа, ишоновринг”, дегандек бош ирғарди.

– Унда увол-чуволи Холидахоннинг бўй-

## XOTIRJAM YASHASH

*Hayot tarzimizda mas'uliyat degan tushuncha bor. U insonning tabiatiga qarab undoq yoki bundoq bo'lishi mumkin. Xo'sh, barqaror bo'lishi ham mumkinmi?*

Reja bo'yicha jurnalga kiritilgan materiallarning ko'pchiligi Opaning e'tiboridan o'tardi. Qisqa xabarlar, suratlarning tag-so'zlarini ularga taqdim etmay qo'yaqolardik. Jurnal tayyor bo'lgach, Xolida opa oxirgi marta sinchiklab o'qib chiqardilar-da, keyin Olimjon aka, rassom Layloxon va kaminani boshlab, Opaning oldiga kirardilar. Opa jurnal maketi ustiga "Bosishga ruxsat" deb imzo qo'ymaganlaricha ishlab chiqarish bo'limiga qabul qilmasdi. Opa imzo qo'yishdan oldin Xolida opaga bir qarab qo'yardilar-da:

– Yaxshilab o'qidingizmi? – deb so'rardilar. Xolida opa "ha, ishonovring", degandek bosh irg'ardi.

– Unda uvol-chuvoli Xolidaxonning bo'y-





нига, – деб кулардилар-да, имзо қўйиб берардилар.

– Ма-а-йли, – деб Холида опа эркалангандек бўлардилар. Опа тахририятдаги барча ишларни у кишига ўзларига ишонгандек ишонардилар.

Навбатдаги сон тайёр бўлиши олдидан Холида опа шамоллаб, ишга келмай қолди. “Менинг ўрнимга ҳам яхшилаб ўқинглар-да, Опага обкировринглар”, дедилар қўнғирок қилиб. Опанинг хузурига Холида опасиз кириб бордик.

– Бу сафар увол-чуволини бизга қўйиб, қўл қўйиб бераверасиз-да, Опа, – деди рассомимиз Лайлохон, – ходимлар қайта-қайта яхшилаб ўқишди.

Опа “шунаками” дегандек менга қарадилар.

– Ҳа, шундай, – дедим мен Опани ишонтаришга уриниб, айни пайтда уларни аярдим ҳам. Уттиз икки саҳифа журнални ўқиб чиқишнинг ўзи бўладими? У киши Олимжон акадан журнал қачон тушишини сўрадилар. “Эртага тушгача” деган жавоб бўлди. Агарда

niga, – deb kulardilar-da, imzo qo‘yib berardilar.

– Ma-a-yli, – deb Xolida opa erkalangandek bo‘lardilar. Opa tahririyatdagi barcha ishlarni u kishiga o‘zlariga ishongandek ishonardilar.

Navbatdagi son tayyor bo‘lishi oldidan Xolida opa shamollab, ishga kelmay qoldi. “Mening o‘rnimga ham yaxshilab o‘qinglar-da, Opaga obkirovringlar”, dedilar qo‘ng‘iroq qilib. Opaning huzuriga Xolida opasiz kirib bordik.

– Bu safar uvol-chuvolini bizga qo‘yib, qo‘l qo‘yib beraverasiz-da, Opa, – dedi rassomimiz Layloxon, – xodimlar qayta-qayta yaxshilab o‘qishdi.

Opa “shunaqami” degandek menga qaradilar.

– Ha, shunday, – dedim men Opani ishon-tirishga urinib, ayni paytda ularni ayardim ham. O‘ttiz ikki sahifa jurnalni o‘qib chiqish-ning o‘zi bo‘ladimi? U kishi Olimjon akadan jurnal qachon tushishini so‘radilar. “Ertaga tushgacha” degan javob bo‘ldi. Agarda

топшириш тушдан кейинга қолса, журнал кейинги кун ҳисобидан қабул қилинар, уни босиш ишлари бир кунга кечикарди. “Саодат”нинг адади кўплиги учун бу кечикиш почта хизматларигача таъсир қилиб, жойларга етказиш жараёнини ҳам издан чиқариб юборарди. Шунинг учун журнални вақтида топшириш жудаям муҳим эди.

– Бўпти, – дедилар Опа, – эртагача хали анча вақт бор экан-у, мен кўриб, эрта билан олиб келиб бераман, тушгача улгурасизлар.

Ҳеч нарса дея олмай у кишининг ҳузуридан чикдик. Демак, журнал материалларини бир кечада ухламай ўқиб чиқадилар. Ишонаверсалар бўларди ўзларини қийнамай, дедим ичимда. Опа ҳамиша ҳаётда хотиржам яшай десангиз меҳнатдан қочманг, дер эдилар. Мана энди хотиржам бўлиш учун бир кечалик уйкудан воз кечадилар. Ишқилиб, жиддий хато ўтиб кетмаган бўлсин-да.

Эрта билан Опа келдилар, хонага кириб столим устига журнални қўйиб, кабинетига ўтиб кетдилар. Олимжон ака, тинчликмикан ишқилиб, дегандек мен томон юрди. Опа

topshirish tushdan keyinga qolsa, jurnal keyingi kun hisobidan qabul qilinadi, uni bosish ishlari bir kunga kechikardi. "Saodat"ning adadi ko'pligi uchun bu kechikish pochta xizmatlarigacha ta'sir qilib, joylarga yetkazish jarayonini ham izdan chiqarib yuborardi. Shuning uchun jurnalni vaqtida topshirish judayam muhim edi.

— Bo'пти, — dedilar Opa, — ertagacha hali ancha vaqt bor ekan-u, men ko'rib, erta bilan olib kelib beraman, tushgacha ulgurasizlar.

Hech narsa deya olmay u kishining huzuridan chiqdik. Demak, jurnal materiallarini bir kechada uxlamay o'qib chiqadilar. Ishonaversalar bo'lardi o'zlarini qiynamay, dedim ichimda. Opa hamisha hayotda xotirjam yashay desangiz mehnatdan qochmang, der edilar. Mana endi xotirjam bo'lish uchun bir kechalik uyqudan voz kechadilar. Ishqilib, jiddiy xato o'tib ketmagan bo'lsin-da.

Erta bilan Opa keldilar, xonaga kirib stolim ustiga jurnalni qo'yib, kabinetiga o'tib ketdilar. Olimjon aka, tinchlikmikan ishqilib,



ғилоф устига “Тузатишлари билан” деб имзо кўйибдилар. Ҳайрият, имзо чекибдилар-ку. Қандай тузатишлари бор экан? Шошиб материалларни варақлай бошладим. Пешонамдан тер чиқиб кетди. Ҳарфий хатолар, тиниш белгилар... ҳатто тузатишлар ҳам бор эди. Мен тузатишларга эътибор қилдим. “Умр йўлдоши” деган сўзни ўчириб, “эри”, “ёстикдоши” деган сўзни ўчириб, “хотини”, “илик-милиқ”ни ўчириб, “мўътадил” деб ёзибдилар. Тузатишлар Опа кўришга улгурмаган материаллардан ўтиб кетган эди. Ҳатто суратларга берилган тагсўзларигача таҳрир қилибдилар. Бир ишнинг увол-чуволини бўйинга олиш масъулияти қанақа бўлишини ўшанда ҳис қилганман. Ҳа, ҳаётда хотиржам яшаш учун инсон роҳат-фароғатдан кечиши, масъулият деган нарсани ҳис қилиб яшаши керак. Албатта, бу азалий гап. Лекин қахрамонимиз бир умр шундай яшаб ўтдилар.

degandek men tomon yurdi. Opa g'ilof ustiga "Tuzatishlari bilan" deb imzo qo'yibdilar. Hayriyat, imzo chekibdilar-ku. Qanday tuzatishlari bor ekan? Shoshib materiallarni varaqlay boshladim. Peshonamdan ter chiqib ketdi. Harfiy xatolar, tinish belgilar... hatto tuzatishlar ham bor edi. Men tuzatishlarga e'tibor qildim. "Umr yo'ldoshi" degan so'zni o'chirib, "eri", "yostiqdoshi" degan so'zni o'chirib, "xotini", "iliq-miliq"ni o'chirib, "mo'tadil" deb yozibdilar. Tuzatishlar Opa ko'rishga ulgurmagan materiallardan o'tib ketgan edi. Hatto suratlarga berilgan tagso'zlarigacha tahrir qilibdilar. Bir ishning uvol-chuvolini bo'yinga olish mas'uliyati qanaqa bo'lishini o'shanda his qilganman. Ha, hayotda xotirjam yashash uchun inson rohat-farog'atdan kechishi, mas'uliyat degan narsani his qilib yashashi kerak. Albatta, bu azaliy gap. Lekin qahramonimiz bir umr shunday yashab o'tdilar.

## КУҶЧАДА ЮРГАНДА...

*Ҳаёт узук бўлса инсон унинг кўзидир. Ҳа, кўзсиз узукни тасаввур қилиб бўлмаганидек, инсонсиз ҳаётни ҳам тасаввур қилиб бўлмайди. Узукка кўз бўлиш қанчалар шараф-а. Аммо шарафга лойиқ бўлиш-чи?*

Катта матбуотда бир олғир, порахўр журналист ҳақида фельетон босилди-ю, у журналистлар ишлайдиган барча жамоаларда кенг муҳокамага сабаб бўлди. Касаба уюшмамиз бир бўлгани учун “Саодат”, “Гулхан” ва “Ғунча” журнали ходимлари Опанинг хонасига тўпландик. Ўтирганлар Опа бошлаб берармиканлар деган умидда у кишига қарашди. Масала жуда нозик. Буни устига фельетон қилинган олғирни ҳеч ким танимайди. Қайси бир газетанинг штатсиз муҳбири экан. Инсофсиз, диёнатсиз, қалам аҳли номига доғ туширибди деган умумий гаплар билан иш битмайди. Мажлис баённомаси юқорига юборилиши керак. Юқоридагилар бошқаларникини ўқиб кўрмасалар ҳам “Сао-

## **KO'CHADA YURGANDA...**

*Hayot uzuk bo'lsa inson uning ko'zidir. Ha, ko'zsiz uzukni tasavvur qilib bo'lmaganidek, insonsiz hayotni ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Uzukka ko'z bo'lish qanchalar sharaf-a. Ammo sharafga loyiq bo'lish-chi?*

Katta matbuotda bir olg'ir, poraxo'r jurnalist haqida felyeton bosildi-yu, u jurnalistlar ishlaydigan barcha jamoalarda keng muhokamaga sabab bo'ldi. Kasaba uyushmamiz bir bo'lgani uchun "Saodat", "Gulxan" va "G'uncha" jurnali xodimlari Opaning xonasiga to'plandik. O'tirganlar Opa boshlab berarmikanlar degan umidda u kishiga qarashdi. Masala juda nozik. Buni ustiga felyeton qilingan olg'irni hech kim tanimaydi. Qaysi bir gazetaning shtatsiz muxbiri ekan. Insofsiz, diyonatsiz, qalam ahli nomiga dog' tushiribdi degan umumiy gaplar bilan ish bitmaydi. Majlis bayonnomasi yuqoriga yuborilishi kerak. Yuqoridagilar boshqalarnikini o'qib ko'rmasalar ham



дат”дан борган мажлис протоколига бир қараб қўйишади. Чунки, бу ерда Зулфия ишлайди.

– Гапираман, – дедилар Опа, ўтирганларга ҳар доимгидек иссиқ қараб, – фақат сизларни эшитиб бўлгандан кейин гапираман. Бундай нарсалар мен учун мутлақо ёт. Пора сўрайдиган юз қанақа безбет бўлади-ю, уни оладиган қўл қанақа оташкурак бўлади? Ҳеч тасаввуримга сиғдира олмайман...

Шу гапларнинг ўзиёқ мажлиснинг бошланишига йўналиш бергандек бўлди. Сўзга чиққанлар Опа қўйган саволлар атрофида айланишди. Одамийлик кийёфасини йўқотган, харомхўр, жамиятга ёт унсур, журналист деган номга доғ туширган сўзлар билан порахўр ва олғирларни қоралашди. Ҳеч ким орамизда шунақа одам бор, фалончи ёки мен шунақаман, демади. Лекин ҳамма ўзини-ўзи имтиҳон қилиб, ичида фельетон бўлганининг кунига тушиб қолишдан Худонинг ўзи асрасин деб ўтиргани аниқ. Муҳокамалардан кўзланган асл мақсад ҳам шу эди. Сўзга чиқ-

“Saodat”dan borgan majlis protokoliga bir qarab qo‘yishadi. Chunki, bu yerda Zulfiya ishlaydi.

– Gapiraman, – dedilar Opa, o‘tirganlarga har doimgidek issiq qarab, – faqat sizlarni eshitib bo‘lgandan keyin gapiraman. Bunday narsalar men uchun mutlaqo yot. Pora so‘raydigan yuz qanaqa bezbet bo‘ladi-yu, uni oladigan qo‘l qanaqa otashkurak bo‘ladi? Hech tasavvurimga sig‘dira olmayman...

Shu gaplarning o‘ziyoq majlisning boshlanishiga yo‘nalish bergandek bo‘ldi. So‘zga chiqqanlar Opa qo‘ygan savollar atrofida aylanishdi. Odamiylik qiyofasini yo‘qotgan, haromxo‘r, jamiyatga yot unsur, jurnalist degan nomga dog‘ tushirgan so‘zlar bilan poraxo‘r va olg‘irlarni qoralashdi. Hech kim oramizda shunaqa odam bor, falonchi yoki men shunaqaman, demadi. Lekin hamma o‘zini-o‘zi imtihon qilib, ichida felyeton bo‘lganning kuniga tushib qolishdan Xudoning o‘zi asrasin deb o‘tirgani aniq. Muhokamalardan ko‘zlangan asl maqsad ham shu edi. So‘zga



канлар орасида “Гунча” журналининг ходими Собит Ғофуров таъсирли гапирди: “Нон дўконларида икки хил нон сотилади: оқ нон, қора нон, порахўрлик қилиб болаларимга оқ нон едиргандан кўра, бир умр қора нон едиришни афзал биламан”. Охирида Она сўз олдилар-да, гапни ғалатироқ бошладилар:


– Ҳамид Олимжон билан янги тўйимиз бўлган, гоҳида эр-хотин кўчага бошлашиб чиқамиз. Бизга танишлардан кўра нотанишлар кўпроқ салом беришади. Орқамиздан шивирлашиб, бир нималар деб қолишади. Мен уялибми, ерга қараб оламан. Ҳамид Олимжон бўлса, кўчада юрганда одамлар мен ҳақимда фақат яхши гапларни айтишяпти, деган ўйда бўлсангиз, бошингиз ҳам, қадингиз ҳам расо, тик юради, деган эдилар. Мен бир умр шундай бўлишга ҳаракат қилдим. Элнинг эътиборига тушиш қийин, тушундингизми, унга муносиб бўлиш ундан-да қийин. Қолаверса, журналист деган номнинг ўзи бир унвондек гап. Ҳамма ҳам кўлига қалам олиб, ёзиб кетавермайди. Бу бир иктидор, жуда кам одам-

chiqqanlar orasida “G‘uncha” jurnalining xodimi Sobit G‘ofurov ta’sirli gapirdi: “Non do‘konlarida ikki xil non sotiladi: oq non, qora non, poraxo‘rlik qilib bolalarimga oq non yedirgandan ko‘ra, bir umr qora non yedirishni afzal bilaman”. Oxirida Opa so‘z oldilar-da, gapni g‘alatiroq boshladilar:

– Hamid Olimjon bilan yangi to‘yimiz bo‘lgan, gohida er-xotin ko‘chaga boshlashib chiqamiz. Bizga tanishlardan ko‘ra notanishlar ko‘proq salom berishadi. Orqamizdan shivirlashib, bir nimalar deb qolishadi. Men uyalibmi, yerga qarab olaman. Hamid Olimjon bo‘lsa, ko‘chada yurganda odamlar men haqimda faqat yaxshi gaplarni aytishyapti, degan o‘yda bo‘lsangiz, boshingiz ham, qaddingiz ham raso, tik yuradi, degan edilar. Men bir umr shunday bo‘lishga harakat qildim. Elning e’tiboriga tushish qiyin, tushundingizmi, unga munosib bo‘lish undan-da qiyin. Qolaversa, jurnalist degan nomning o‘zi bir unvondek gap. Hamma ham qo‘liga qalam olib, yozib ketavermaydi. Bu bir iqtidor, juda


ларга насиб қилади. Шунинг учун ҳам журналистларнинг соясига кўрпача соладиганлар кўп бўлади. Улардан эҳтиёт бўлмоқ керак. Акс холда бир умр шарманда бўлиб қолиш ҳеч гапмас... Сиз билан биз, одамлар мен ҳақимда фақат яхши гапларни гапиришяпти, деган ишонч билан яшашимиз керак...

Қанийди, бу сўзлар бутун инсониятнинг шиорига айланса?!



kam odamlarga nasib qiladi. Shuning uchun ham jurnalistlarning soyasiga ko'rpacha so-ladiganlar ko'p bo'ladi. Ulardan ehtiyot bo'lmoq kerak. Aks holda bir umr sharmanda bo'lib qolish hech gapmas... Siz bilan biz, odamlar men haqimda faqat yaxshi gaplarni gapirishyapti, degan ishonch bilan yashashimiz kerak...

Qaniydi, bu so'zlar butun insoniyatning shioriga aylansa?!



## МУСТАЖОБ ДУО

*Инсоннинг умри, ризқ-насибаси Худодан,  
озига сабр қилиб, сўраганда андиша билан  
сўрасанг кўпайтириб беради, дейишади.*

1 март Опанинг туғилган куни. Бу куни Опа ишга чиқмайдилар, уйда яқин дўстларини кутадилар. Туғилган кунни чинакам байрам қиладилар. Жамоамизни атайлаб, пешинга чақирадиларки, тушлик қилиб кетишсин деб. У киши совғага гулдан бошқасини олмайдилар. Худога шукур, ҳамма нарсам бадас-тир, дейдилар. Опанинг хузурига узун-қисқа бўлиб кириб борамиз. Опа олдин Борис, Олимжон ака ва мен билан сўрашиб, кейин аёлларга ўтадилар. Бизларни тўрига чиқариб, ўзлари пойгакда ўтирадилар. Пойгакда ўтиришларининг сабаби бор. Опа деразага тескари ўтира олмайдилар. Рўпараларидан ёруғлик тушиб туришини яхши кўрадилар. Буни билганимиз учун бетакаллуф юқорига чиқиб кетаверамиз. Кабинетларида ҳам бир эмас, ёнма-ён учта дераза бўлиб, нур чап тарафдан

## MUSTAJOB DUO

*Insonning umri, rizq-nasibasi Xudodan, oziga sabr qilib, so'raganda andisha bilan so'rasang ko'paytirib beradi, deyishadi.*

1-mart Opaning tug'ilgan kuni. Bu kuni Opa ishga chiqmaydilar, uyda yaqin do'stlarini kutadilar. Tug'ilgan kunni chinakam bayram qiladilar. Jamoamizni ataylab, peshinga chaqiradilarki, tushlik qilib ketishsin deb. U kishi sovg'aga guldan boshqasini olmaydilar. Xudoga shukur, hamma narsam badastir, deydilar. Opaning huzuriga uzun-qisqa bo'lib kirib boramiz. Opa oldin Boris, Olimjon aka va men bilan so'rashib, keyin ayollarga o'tadilar. Bizlarni to'riga chiqarib, o'zlari poygakda o'tiradilar. Poygakda o'tirishlarining sababi bor. Opa derazaga teskari o'tira olmaydilar. Ro'paralaridan yorug'lik tushib turishini yaxshi ko'radilar. Buni bilganimiz uchun betakalluf yuqoriga chiqib ketaveramiz. Kabinetlarida ham bir emas, yonma-yon uchta deraza bo'lib, nur chap tarafdin tushib turadi,





тушиб туради, пардалари ҳеч қачон ёпилмайди. Ҳа, Халқ шоираси нурга ташна эдилар.

Ажабо, биз Опанинг уйида машҳур Зулфияни кўрмасдик. Ҳамма уй бекалари каби одми, узун кўйлақда, бошларига ҳарир шарф ташлаб, фавкулудда сергап, хушчакчак, оддий бир уй аёлига айланиб колардилар. Қизларимиз ошхонадаги у-бу хизматга қарашаман деса, ўринларидан қимирлатмас, ҳатто котибаси Муҳаббатни ҳам, тек ўтиринг, бугун менинг меҳмонимсиз, дердилар. Сухбат орасида “Риояхон, уни олиб келинг, буни олиб келинг-чи”, деб кўярдилар. Ўғиллари Омон аканинг хотини Риояхон кулиб-кулиб, чакқон-чакқон хизмат қилиб юрарди. Опа “Саодат” билан боғлиқ кизик-қизик ҳангомаларни айтиб, кулдириб, даврани қиздирардилар. Айтишларича, райкомда тез-тез ҳар хил мажлислар, конференциялар бўлиб турар экан. Уларга кўпинча Роза опа Сайфиева қатнашар эканлар. Бир сафар у киши бетоб бўлиб қолиб, ўринларига масъул котиб Салоҳ Ҳасан борибдилар. Мажлисида фақат журнал раҳбарларидан бири

pardalari hech qachon yopilmaydi. Ha, Xalq shoirasi nurga tashna edilar.

Ajabo, biz Opaning uyida mashhur Zulfiyani koʻrmasdik. Hamma uy bekalari kabi odmi, uzun koʻylakda, boshlariga harir sharf tashlab, favqulodda sergap, xushchaqchaq, oddiy bir uy ayoliga aylanib qolardilar. Qizlarimiz oshxonadagi u-bu xizmatga qarashaman desa, oʻrinlaridan qimirlatmas, hatto kotibasi Muhabbatni ham, tek oʻtiring, bugun mening mehmonimsiz, derdilar. Suhbat orasida “Rioyaxon, uni olib keling, buni olib keling-chi”, deb qoʻyardilar. Oʻgʻillari Omon akaning xotini Rioyaxon kulib-kulib, chaqqon-chaqqon xizmat qilib yurardi. Opa “Saodat” bilan bogʻliq qiziq-qiziq hango-malarni aytib, kuldirib, davrani qizdirardilar. Aytishlaricha, raykomda tez-tez har xil majlislar, konferensiyalar boʻlib turar ekan. Ularga koʻpincha Roza opa Sayfiyeva qatnashar ekanlar. Bir safar u kishi betob boʻlib qolib, oʻrinlariga masʼul kotib Saloh Hasan boribdilar. Majlisda faqat jurnal rahbarlaridan



иштирок этиши керак экан-да. Салоҳ ака узун бўйли, гавдали, йирик киши бўлганлар. Мажлисида маъруза қилувчи республикадаги кўп болали қаҳрамон оналар хақида гапираётганда, райком котиби маърузачини тўхтатиб, “Ўзбекистон хотин-қизларидан” ким бор, ўрнидан турсин, деб қолади-ю. У пайтда “Саодат”нинг номи шундай аталган. Ҳамма ҳозир кетворган бир чиройли аёл ўрнидан турса керак, деб аланглаб қарайди. Аммо шифтдек бўлиб ўрнидан турган Салоҳ Ҳасанни кўриб, зал кулгидан ёрилай дейди. Буни эшитиб, биз ҳам яйраб-яйраб куламыз.

– Унда жудаям ёшман, – деб яна гапни гапга улайдилар Опа, – Ёзувчилар уюшмасига ишга катнайман, руҳимда ҳаётга ташналик, қизиқувчанлик кучли. Бир куни Ғафур аканинг ютоқиб, шошиб нос чекаётганини кўриб қолдим. Чекди-ю маза қилгандек ҳузур қилиб кўзларини юмди. “Ғафур ака, носда қанақа лаззат бор”, деб сўрадим. “Ов, кизим, – деди у киши худди шеър ўқимокчидек кўкрагини кериб, – Ғафур Ғуломни булбулдек сайратадиган шу-да. Илҳом париси-ку бу”, деди-

biri ishtirok etishi kerak ekan-da. Saloh aka uzun bo'lyi, gavnali, yirik kishi bo'lganlar. Majlisda ma'ruza qiluvchi respublikadagi ko'p bolali qahramon onalar haqida gapirayotganda, raykom kotibi ma'ruzachini to'xtatib, "O'zbekiston xotin-qizlaridan" kim bor, o'rnidan tursin, deb qoladi-yu. U paytda "Saodat"ning nomi shunday atalgan. Hamma hozir ketvorgan bir chiroyli ayol o'rnidan tursa kerak, deb alanglab qaraydi. Ammo shiftdek bo'lib o'rnidan turgan Saloh Hasanni ko'rib, zal kulgidan yorilay deydi. Buni eshitib, biz ham yayrab-yayrab kulamiz.

– Unda judayam yoshman, – deb yana gapni gapga ulaydilar Opa, – Yozuvchilar uyushmasiga ishga qatnayman, ruhimda hayotga tashnalik, qiziquvchanlik kuchli. Bir kuni G'afur akaning yutoqib, shoshib nos chekayotganini ko'rib qoldim. Chekdi-yu maza qilgandek huzur qilib ko'zlarini yumdi. "G'afur aka, nosda qanaqa lazzat bor", deb so'radim. "Ov, qizim, – dedi u kishi xuddi she'r o'qimoqchidek ko'kragini kerib, – G'afur

лар. “Ростданми, рост айтяпсизми”, сўрадим ижикилаб. “Ҳа, бу сир шетта қосин, яхши шоира бўганинг учунам сенга айтяпман, хоҳлайсанми бир отим бераман”, дедилар. Мен умримда нос чекмаганимни айтдим. “Чекишинг шарт эмас, кафтингни очгин-а”, деб чўнтақларидан қирмизиранг носковок чиқардилар. Мен итоат билан иккала кафтимни очдим. “Биттаси етади, илҳом келиб қолса ўнг кўлинг ёзишга қолсин”, деб чап кафтимга нос ташладилар-да, маҳкам юм, ўзим айтмагунча очма, дедилар. Ўтирибман-ўтирибман, чўлоқ одамдек на иш унади, на кўлёмаларни варақлай оламан. Илҳом париси қаёқда дейсиз. Вақт пешин бўлиб қолди. Нима қилишимни билмайман. Бировга айтолмайман. Сир ошқор бўлиб қолади. Ғафур акадан бўлса дарак йўқ. Секингина суриштирсам, менга носни чангаллатиб, ўзлари Самарқандга жўнаворибдилар. Ана сизга соддагина Зулфия-ю, ана сизга хазилкаш Ғафур Ғулом. Хона самимий кулгидан яна бир гуриллайди. Опа тобора очилиб боради-

G'ulomni bulbuldek sayratadigan shu-da. Ilhom parisi-ku bu", dedilar. "Rostdanmi, rost aytyapsizmi", so'radim ijkilab. "Ha, bu sir shetta qosin, yaxshi shoira bo'ganing uchunam senga aytyapman, xohlaysanmi bir o'tim beraman", dedilar. Men umrimda nos chekmaganimni aytdim. "Chekishing shart emas, kaftingni ochgin-a", deb cho'ntaklaridan qirmizirang nosqovoq chiqardilar. Men itoat bilan ikkala kaftimni ochdim. "Bittasi yetadi, ilhom kelib qolsa o'ng qo'ling yozishga qolsin", deb chap kaftimga nos tashladilar-da, mahkam yum, o'zim aytmaguncha ochma, dedilar. O'tiribman-o'tiribman, cho'loq odamdek na ish unadi, na qo'lyozmalarni varaqlay olaman. Ilhom parisi qayoqda deysiz. Vaqt peshin bo'lib qoldi. Nima qilishimni bilmayman. Birovga aytolmayman. Sir oshkor bo'lib qoladi. G'afur akadan bo'lsa darak yo'q. Sekingina surishtirsam, menga nosni changallatib, o'zlari Samarqandga jo'navoribdilar. Ana sizga soddagina Zulfiya-yu, ana sizga hazilkash G'afur G'ulom. Xona

лар. Ходимларининг иш ва уй-рўзгор ташвишларини унутиб, яйраб ўтиришларидан кайфиятланардилар. – Бир куни, – деб янаган бошладилар Опа, – биз шоира кизлар, шундай жой бўлсаки, ош-овқатимизни ҳам ўзимиз қилсак, бегона одам аралашмаса, мушоира бўлса, дардлашсак, дам олсак, деб Гафур акага эркалик қилдик. “Сизлар учун жоним сатқа, бир оғиз сўзларинг”, дедилар Гафур ака. Дарҳақиқат, бир автобусчада шундай бир жойга олиб бордиларки, асти кўяверасиз. Ҳовлики, бамисоли жаннат дейсиз. Гафур ака ичкари, ташқари эшикларнинг калитларини бериб, “Бемалол дам оловринглар, кўркманглар, бу ҳовлининг теппасидан, ҳатто пашшанинг эркаги ҳам учиб ўтмайди”, дедилар... Яна гуррос кулги...

Шундай қилиб, ўтириш поёнлайди. Тараддудга тушиб, Опага термиламиз. Ишхонада иш кутиб турибди. Бу орада Олимжон акани босмахонадан чакириб қолишган шекилли, орадан чиқиб кетишга улгурибдилар ҳам.



samimiy kulgidan yana bir gurillaydi. Opa tobora ochilib boradilar. Xodimlarining ish va uy-ro'zg'or tashvishlarini unutib, yayrab o'tirishlaridan kayfiyatlanardilar. – Bir kuni, – deb yana gap boshladilar Opa, – biz shoira qizlar, shunday joy bo'lsaki, osh-ovqatimizni ham o'zimiz qilsak, begona odam aralashmasa, mushoira bo'lsa, dardlashsak, dam olsak, deb G'afur akaga erkalik qildik. “Sizlar uchun jonim satqa, bir og'iz so'zlaring”, dedilar G'afur aka. Darhaqiqat, bir avtobuschada shunday bir joyga olib bordilarki, asti qo'yaverasiz. Hovliki, bamisoli jannat deysiz. G'afur aka ichkari, tashqari eshiklarning kalitlarini berib, “Bemalol dam olovringlar, qo'rqmanglar, bu hovlining teppasidan. hatto pashshaning erkagi ham uchib o'tmaydi”, dedilar... Yana gurros kulgi...

Shunday qilib, o'tirish poyonlaydi. Taraddudga tushib, Opaga termilamiz. Ishxonada ish kutib turibdi. Bu orada Olimjon akani bosmaxonadan chaqirib qolishgan shekilli, oradan chiqib ketishga ulguribdilar ham.





– Ҳай, майли, – дедилар Опа жиддий тортиб, – Олимжоннинг ўрнига энди сиз дуо берасиз, – дедилар менга қараб. Мен шошиб, кўнглимга келган гапни айтиб қўя қолдим. “Сизга Худодан яна бир йил тинч ва хотиржам, умр тилаймиз, келгуси йилнинг 1 мартада ҳам мана шундай ўтириш яна насиб қилсин, омин Аллоҳу акбар...”

– Вой, – деди Лайлохон ҳар доимгидек ботирлик қилиб, – нима бу бир йил, эллик, юз йил демайсизми?

– Йўқ, – дедилар Опа, – Худодан ҳаё қилиб қанча кам сўрасангиз, шунча кўпайтириб бераверади, илойим дуоингиз мустажоб бўлсин, – дедилар Опа.

– Hay, mayli, – dedilar Opa jiddiy tortib, – Olimjonning o‘rniga endi siz duo berasiz, – dedilar menga qarab. Men shoshib, ko‘nglimga kelgan gapni aytib qo‘ya qoldim. “Sizga Xudodan yana bir yil tinch va xotirjam, umr tilaymiz, kelgusi yilning 1-martida ham mana shunday o‘tirish yana nasib qilsin, omin Allohu akbar...”

– Voy, – dedi Layloxon har doimgidek botirlik qilib, – nima bu bir yil, ellik, yuz yil demaysizmi?

– Yo‘q, – dedilar Opa, – Xudodan hayo qilib qancha kam so‘rasangiz, shuncha ko‘paytirib beraveradi, iloyim duoingiz mustajob bo‘lsin, – dedilar Opa.

## КУЧАЛА

Опанинг олдига арз қилиб келувчилар кўп бўларди. Кимдир депутатликлари учун, кимдир таниқли шоира, ҳамма жойга қўллари етади деб юкинарди. Опа уларни қабул қилар, керакли жойларга қўнғироқ қилиб, ишларини битириб берардилар. Буни арз билан келган аёлларнинг яйраб-яшнаб чиқиб кетишларидан билардим. Баъзи идораларга ўзбекчалаб, русчалаб ўз қўллари билан хат ёзардилар, русчалари яхши эди-ю, барибир Роза опага бир кўрсатиб олардилар. Ҳатто Роза опа нафақага чиқиб кетганларидан кейин ҳам машина жўнатиб, олдириб келиб, хатни ўқитиб олардилар. Хат деганлари бу шунчаки хат эмас, балки дийдорлашувдек гап, дердилар. Баъзан вақти-вақти билан таҳририятдан жўнатилаётган жавоб хатларини кўздан кечирардилар ҳам. Кўнгиллари тўлмаса, ходимни чақириб, танбех бериб ўтирмасдилар. Балки, ўзлари жавоб ёзиб, бўлимга чиқариб юборардилар. Бунинг таъсири мингта танбехдан кучлироқ бўларди.

## KUCHALA

Opaning oldiga arz qilib keluvchilar ko'p bo'lardi. Kimdir deputatliklari uchun, kimdir taniqli shoira, hamma joyga qo'llari yetadi deb yukinardi. Opa ularni qabul qilar, kerakli joylarga qo'ng'iroq qilib, ishlarini bitirib berardilar. Buni arz bilan kelgan ayollarning yayrab-yashnab chiqib ketishlaridan bilardim. Ba'zi idoralarga o'zbekchalab, ruschalab o'z qo'llari bilan xat yozardilar, ruschalari yaxshi edi-yu, baribir Roza opaga bir ko'rsatib olardilar. Hatto Roza opa nafaqaga chiqib ketganlaridan keyin ham mashina jo'natib, oldirib kelib, xatni o'qitib olardilar. Xat deganlari bu shunchaki xat emas, balki diydorlashuvdek gap, derdilar. Ba'zan vaqti-vaqti bilan tahririyatdan jo'natilayotgan javob xatlarini ko'zdan kechirardilar ham. Ko'ngillari to'lmasa, xodimni chaqirib, tanbeh berib o'tirmasdilar. Balki, o'zlari javob yozib, bo'limga chiqarib yuborardilar. Buning ta'siri mingta tanbehdan kuchliroq bo'lardi.



Бир куни Опа, ходимларни чакиринг, хатлар бўйича алоҳида гаплашиб олишимиз керак, деб қолдилар. Машинисткаларни ҳам, деб кўшиб кўйдилар орқасидан. Маълум бўлишича, эркак кишига юборилаётган битта хат фамилиясига “а” кўшилиб, аёлга айланиб қолибди. Хато бўлимдан эмас, машинисткадан ўтган. Бўлим эса хатни диққат билан ўқимай, жўнатиш учун қўл кўйган. Жавоб хатларини кўздан кечираётганда Опа буни кўриб қолганлар. Хатнинг асл матнини ҳам ўқишлар-да. Шундан эркак киши эканини билиб қолганлар. Опа машинисткадан ҳам кўра бўлимни айбладилар. Ахир, хатнинг жавобгарлиги бўлимнинг зиммасида-да. Хатго имзо ҳам чекибди-ку.

– Аёлнинг фамилияси эркакча бўлиб кетса, ўқир-да, кулиб кўяқолар, лекин эркак-чи, яхшилаб сўкади, унинг учун бу бориб турган ҳақорат, шаънини ерга уриш дегани, – дедилар.

Опа кўп нарсаларни бағрикенглик билан кечирворишлари мумкин эди-ю, лекин ин-

Bir kuni Opa, xodimlarni chaqiring, xatlar bo'yicha alohida gaplashib olishimiz kerak, deb qoldilar. Mashinistkalarini ham, deb qo'shib qo'ydilar orqasidan. Ma'lum bo'lishicha, erkak kishiga yuborilayotgan bitta xat familiyasiga "a" qo'shilib, ayolga aylanib qolibdi. Xato bo'limdan emas, mashinistkadan o'tgan. Bo'lim esa xatni diqqat bilan o'qimay, jo'natish uchun qo'l qo'ygan. Javob xatlarini ko'zdan kechirayotganda Opa buni ko'rib qolganlar. Xatning asl matnini ham o'qiganlar-da. Shundan erkak kishi ekanini bilib qolganlar. Opa mashinistkadan ham ko'ra bo'limni aybladilar. Axir, xatning javobgarligi bo'limning zimmasida-da. Hatto imzo ham chekibdi-ku.

– Ayolning familiyasi erkakcha bo'lib ketsa, o'qir-da, kulib qo'yaqolar, lekin erkak-chi, yaxshilab so'kadi, uning uchun bu borib turgan haqorat, sha'nini yerga urish degani, – dedilar.

Opa ko'p narsalarni bag'rikenglik bilan kechirvorishlari mumkin edi-yu, lekin inson sha'ni, g'ururi masalasiga juda qattiq

сон шаъни, ғурури масаласига жуда каттик қарардилар. Айникса, бу “Саодат”да босиладиган очерк ва танқидий материалларда яққол сезиларди, Опа уларни қайта-қайта ишлаб, бўяб ташлардилар.

Бир воқеа ҳеч эсимдан чиқмайди. Одатда, арз билан келганлар қабулхонага кирар, котиба аввал Холида опа бўлса у кишига, бўлмаса менга йўлларди. Масалани ўрганиб, Опа аралашмаса бўлмаслигига кўзимиз етгач, у кишига рўпара қилардик. Агарда муаммо бирон идора раҳбари билан битадиган бўлса, арзини эшитиб, ёзиб олардик-да, кейин Опанинг номидан ўша жойга хат жўнатардик.

Бир куни хонамга чиройли, ёшгина жувон пишиллаганича кириб келди. Ҳомиладор, ой-куни яқинлашиб қолгани кўриниб турарди. Фермада ишлар экан. Ферма мудирини уни йўлдан урибди. Бола бўлиб қолибди. Энди мудир бўйнига олмаётганмиш. Менга тухмат қилаяпсан, деяётганмиш. Қишлоқда бош кўтариб юролмай қолганмиш. Одатда, ферма мудирлари деярли эркаклардан бўлар, сут



qarardilar. Ayniqsa, bu “Saodat”da bosiladigan ocherk va tanqidiy materiallarda yaqqol sezilardi, Opa ularni qayta-qayta ishlab, bo‘yab tashlardilar.

Bir voqea hech esimdan chiqmaydi. Odatda, arz bilan kelganlar qabulxonaga kirar, kotiba avval Xolida opa bo‘lsa u kishiga, bo‘lmasa menga yo‘llardi. Masalani o‘rganib, Opa aralashmasa bo‘lmasligiga ko‘zimiz yetgach, u kishiga ro‘para qilardik. Agarda muammo biron idora rahbari bilan bitadigan bo‘lsa, arzini eshitib, yozib olardik-da, keyin Opaning nomidan o‘sha joyga xat jo‘natardik.

Bir kuni xonamga chiroyli, yoshgina juvon pishillaganicha kirib keldi. Homilador, oy-kuni yaqinlashib qolgani ko‘rinib turardi. Fermada ishlar ekan. Ferma mudiri uni yo‘ldan uribdi. Bola bo‘lib qolibdi. Endi mudir bo‘yniga olmayotganmish. Menga tuhmat qilayapsan, deyayotganmish. Qishloqda bosh ko‘tarib yurolmay qolganmish. Odatda, ferma mudirlari deyarli erkaklardan bo‘lar, sut sog‘uvchilar esa yoppasiga xotin-qizlar edi. Shunga o‘xshagan



соғувчилар эса ёппасига хотин-қизлар эди. Шунга ўхшаган машмашаларни хизмат сафарига борганда кўп эшитардим. Иш жойида асосий куч аёлларми, демак, бошлиқ ҳам аёллардан бўлиши керак, деган ўйда юрардим. Тўғри, республикада аёл ферма мудирлари ҳам йўқ эмас, бор эди. Лекин бармоқ билан санарли эди. Уларни қидириб топиб, журналга мақтаб ёзиб турардик. Мана, кўз олдимда ўз оёғи билан келган тайёр факт. У ферма мудирини хотинбоздан олиб, хотинбозга солди, талон-тарожликлари билан боғлиқ айбларини ҳам очиб ташлади. Барини ёзиб олдим, бу ўта нозик маънавий масалани журналда кўтариш керак, деган қарорга ҳам келиб қўйдим. Ҳа, бу муаммони ҳал қилишнинг вақти келди. Хаёлимда Опа ҳам фикримни маъқуллайдигандек.

Опанинг ёнларига кириб, жабрдийда аёл ҳақида қисқача маълумот бериб улгурмаёк Опа менга жаҳл билан дедилар:

– Ўша аёлга чиқиб айтинг, кучала еган жойига бориб тиришсин...

mashmashalarni xizmat safariga borganda ko'p eshitardim. Ish joyida asosiy kuch ayollarmi, demak, boshliq ham ayollardan bo'lishi kerak, degan o'yda yurardim. To'g'ri, respublikada ayol ferma mudirlari ham yo'q emas, bor edi. Lekin barmoq bilan sanarli edi. Ularni qidirib topib, jurnalga maqtab yozib turardik. Mana, ko'z oldimda o'z oyog'i bilan kelgan tayyor fakt. U ferma mudirini xotinbozdan olib, xotinbozga soldi, talon-tarojliklari bilan bog'liq ayblarini ham ochib tashladi. Barini yozib oldim, bu o'ta nozik ma'naviy masalani jurnalda ko'tarish kerak, degan qarorga ham kelib qo'ydim. Ha, bu muammoni hal qilishning vaqti keldi. Xayolimda Opa ham fikrimni ma'qullaydigandek.

Opaning yonlariga kirib, jabrdiyda ayol haqida qisqacha ma'lumot berib ulgurmayoq Opa menga jahl bilan dedilar:

– O'sha ayolga chiqib ayting, kuchala yegan joyiga borib tirishsin...

Xonadan qanday qilib chiqib ketganimni bilmay qoldim. Opaning nigohi bamisoli



Хонадан қандай килиб чиқиб кетганимни билмай қолдим. Опанинг нигоҳи бамисоли ўткир бир тигга айланган эди шу тобда. Ўша воқеадан кейин ўз шаъни, ғурури, номусини топтатиб қўядиган аёлларни жинлари суймаслигини билиб қолдим. Ҳа, “Танача кўзини сузмаса, буқача ипини узмайди”, дейди доно халқимиз.



o'tkir bir tig'ga aylangan edi shu tobda. O'sha voqeadan keyin o'z sha'ni, g'ururi, nomusini toptatib qo'yadigan ayollarni jinlari suymasligini bilib qoldim. Ha, "Tanacha ko'zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi", deydi dono xalqimiz.





## МЕХР

Баъзан ижодкорлар ҳақида: “Ўзи зўр одаму, ижодининг мазаси йўқда, ёки ўзи бир тийинга қиммату, лекин ёзганлари зўр, ўқиб, маза қиласан”, деган гаплар кулоққа чалиниб қолади. Бундай пайтда ўйланиб қоласан, ижодкорнинг ўзини ҳурмат қилиш керакми ёки ижодиними?

Бир ходимимиз интизом масаласида ишдан кетадиган бўлиб қолди. У материалларни вақтида туширмас, бунинг устига нукул ишга кеч қолиб келарди. “Бу қанақаси, аёл кишилар уйи-рўзғорини эплаб, ош-овқатини қилиб, кўлидаги мақолаларни вақтида топшириб, ишга вақтида келса-ю... йўқ, бўлмайди, ўрнига одам топинг”, дедилар Опа. Ходим йигит киши эди. Шунинг учун ўрнига эркак киши топишим керак эди.

Ўша куни ҳам эрта билан Опа котибиятга кириб, Олимжон ака икковимиз билан саломалик қилиб турган эдилар, коридордан таниш оёқ товуши эшитилди. Сездим, ишдан кетиши керак бўлган ходим келяпти. Мана унинг

## MEHR

Ba'zan ijodkorlar haqida: "O'zi zo'r odam-u, ijodining mazasi yo'qda, yoki o'zi bir tiyinga qimmatu, lekin yozganlari zo'r, o'qib, maza qilasan", degan gaplar quloqqa chalinib qoladi. Bunday paytda o'ylanib qolasan, ijodkorning o'zini hurmat qilish kerakmi yoki ijodinimi?

Bir xodimimiz intizom masalasida ishdan ketadigan bo'lib qoldi. U materiallarni vaqtida tushirmas, buning ustiga nuqul ishga kech qolib kelardi. "Bu qanaqasi, ayol kishilar uyi-ro'zg'orini eplab, osh-ovqatini qilib, qo'lidagi maqolalarni vaqtida topshirib, ishga vaqtida kelsa-yu... yo'q, bo'lmaydi, o'rniga odam toping", dedilar Opa. Xodim yigit kishi edi. Shuning uchun o'rniga erkak kishi topishim kerak edi.

O'sha kuni ham erta bilan Opa kotibiyatga kirib, Olimjon aka ikkovimiz bilan salomalik qilib turgan edilar, koridordan tanish oyoq tovushi eshitildi. Sezdim, ishdan ketishi kerak bo'lgan xodim kelyapti. Mana uning



интизомсизлиги яна бир бор тасдиқланяпти, ҳатто Опадан ҳам кеч қолиб келяпти. Аслида унинг учун бунинг энди ахамияти йўқ, барибир ишдан кетади. Лекин бу узил-кесил гапни ўзига айтганимча йўқ, олдин ўрнига одам топай, кейин, деб орқага суриб юрибман. У котибиятнинг рўпарасига келганда қадамини секинлатди. Опанинг овозини эшитиб қолди шекилли, ярим кўриниш берди-ю, ўзини тезда орқага олди, нари ўтмади.

Опа жудаям сезгир эдилар, дилингиздаги тилингизга чиқмасдан нима демокчилигингизни билиб турардилар. Шу қандайдир сонияда шўринг курғур бечора ходимни пайқаб улгурган эдилар. Аслида эътибор қилмасалар ҳам бўларди. Кутилмаганда Опа, фалончи, деб номини айтиб чақириб қолдилар. Оҳ, ана энди ҳаммаси тамом бўлди. Ҳозир бир нарса дейдилар-у, Опанинг кайфиятлари ҳам тушади. Энг ёмони ходим Опанинг назаридан қолади. Бу яхшимас, Опанинг назаридан қолган одамнинг кўкариши қийин. Ходим салом бериб, ичкари кирди-да, ўғирлик қилиб қўлга

intizomsizligi yana bir bor tasdiqlanyapti, hatto Opadan ham kech qolib kelyapti. Aslida uning uchun buning endi ahamiyati yo'q, baribir ishdan ketadi. Lekin bu uzil-kesil gapni o'ziga aytganimcha yo'q, oldin o'rniga odam topay, keyin, deb orqaga surib yuribman. U kotibiyatning ro'parasiga kelganda qadamini sekinlatdi. Opaning ovozi eshitib qoldi shekilli, yarim ko'rinish berdi-yu, o'zini tezda orqaga oldi, nari o'tmadi.

Opa judayam sezgir edilar, dilingizdagi tilingizga chiqmasdan nima demoqchiligingizni bilib turardilar. Shu qandaydir soniyada sho'ring qurg'ur bechora xodimni payqab ulgurgan edilar. Aslida e'tibor qilmasalar ham bo'lardi. Kutilmaganda Opa, falonchi, deb nomini aytib chaqirib qoldilar. Oh, ana endi hammasi tamom bo'ldi. Hozir bir narsa deyдилar-u, Opaning kayfiyatlari ham tushadi. Eng yomoni xodim Opaning nazaridan qoladi. Bu yaxshimas, Opaning nazaridan qolgan odamning ko'karishi qiyin. Xodim salom berib, ichkari kirdi-da, o'g'irlik qilib





тушиб қолгандек, ерга қаради. Опага қарай олмади. Опа бўлсалар, кулиб туриб унга яқинлашди-да, беихтиёр бошини ўзига тортиб, пешонасидан ўпди. Бу ёқда Олимжон ака икковимиз хайратдан қотиб қолдик. Нималар бўляпти, ўзи, нима гап?

– Балли, – дедилар Опа яйраб, – бу оқшом “Шарқ юлдузи”да босилган нарсангизни ўқиб чиқдим, бир яхши... – дедилар баттар хайратлари тошиб.

Ходим бошини кўтариб “ярқ” этиб Опага қаради-ю, дувиллаб келган кўзёшларини эплотмай қолди... Опа ижодкорданам кўра унинг ижодини олдинги ўринларга қўйган эдилар. Шундай бир меҳрдан кейин ҳам мен унинг ўрнига одам қидирайми? Энг қизиғи, шу воқеадан кейин ходим тамом ўзгарди. Ундан интизомли, ундан тартибли одам бўлмай қолди.

qo'lga tushib qolgandek, yerga qaradi. Opaga qaray olmadi. Opa bo'lsalar, kulib turib unga yaqinlashdi-da, beixtiyor boshini o'ziga tortib, peshonasidan o'pdi. Bu yoqda Olimjon aka ikkovimiz xayratdan qotib qoldik. Nimalar bo'lyapti, o'zi, nima gap?

– Balli, – dedilar Opa yayrab, – bu oqshom “Sharq yulduzi”da bosilgan narsangizni o'qib chiqdim, bir yaxshi... – dedilar battar hayratlari toshib.

Xodim boshini ko'tarib “yarq” etib Opaga qaradi-yu, duvillab kelgan ko'zyoshlarini ep-lolmay qoldi... Opa ijodkordanam ko'ra uning ijodini oldingi o'rinlarga qo'ygan edilar. Shunday bir mehrdan keyin ham men uning o'rniga odam qidiraymi? Eng qizig'i, shu voqeadan keyin xodim tamom o'zgardi. Undan intizomli, undan tartibli odam bo'lmay qoldi.



## ФАРЗАНД

Мактабда ўқиб юрганимизда бу икки улуғ ижодкорнинг Омон, Хулкар исмли фарзандлари борлигини дарсликлар оркали ўқигандик. Ўзимизча уларни “Қоринлари тўйиб нон ейишса керак, қирқ ямоқ жулдурвоқи кийимларни кийишмаса керак, этикларидан сув ўтмаса керак?” деб муҳокама қилардик.

Мактабдош дўстим Тошкентга малака оширишга келган экан. Ўқитувчи бўлиб ишлар, адабиётдан дарс берарди. Ишдан кейин уйга олиб бориб, меҳмон қилмоқчи бўлдим. Икковимиз трамвай бекатига қараб юрдик. Бекатда Опанинг кизи Хулкарни кўриб қолдим. Сўрашдик.

– Келган экансиз-да, Опани кўролдингизми, яқиндагина кетувдилар? – дедим.

– Ҳа, аямларни кўрдим, кўрмай кетармидим, – деди Опадек самимий жилмайиб.

Хулкар бирон тансиқ таом қилса, илиниб, Опанинг ишдан чиқишларига олиб келар, мен уни ҳафтада бир-икки шу бекатда учратиб қолардим. Уйлари “Ишчилар шаҳарчасида”,

## FARZAND

Maktabda o‘qib yurganimizda bu ikki ulug‘ ijodkorning Omon, Hulkar ismli farzandlari borligini darsliklar orqali o‘qigandik. O‘zimizcha ularni “Qorinlari to‘yib non yeyishsa kerak, qirq yamoq juldurvoqi kiyimlarni kiyishmasa kerak, etiklaridan suv o‘tmasa kerak?” deb muhokama qilardik.

Maktabdosh do‘stim Toshkentga malaka oshirishga kelgan ekan. O‘qituvchi bo‘lib ishlar, adabiyotdan dars berardi. Ishdan keyin uyga olib borib, mehmon qilmoqchi bo‘ldim. Ikkovimiz tramvay bekatiga qarab yurdik. Bekatda Opaning qizi Hulkarni ko‘rib qoldim. So‘rashedik.

– Kelgan ekansiz-da, Opani ko‘roldingizmi, yaqindagina ketuvdilar? – dedim.

– Ha, ayamlarni ko‘rdim, ko‘rmay ketar-midim, – dedi Opadek samimiy jilmayib.

Hulkar biron tansiq taom qilsa, ilinib, Opaning ishdan chiqishlariga olib kelar, men uni haftada bir-ikki shu bekatda uchratib

10-трамвайда келиб кетарди. Хулкар машхур ёзувчи Ойбекнинг келини экани ҳаммага маълум. Унинг трамвайи бизникидан олдин келди. Ҳар доимгидек тикилинч. Одамлар ишдан қайтяпти. Хулкар яхши боринг дегандек бош силкиди-да, шошиб ўзини ичкари урди ва бир зумда одамлар орасида кўздан йўқолди.

– У аёл ким бўлади, нимагадир кўзимга танишдек кўринди, кимгадир ўхшатдим, – қизикди меҳмоним. Ўзини тортиб, сал нарида тургани учун мен уни таништирмай қўяқолган эдим. Лекин адабиёт ўқитувчисининг Хулкар билан танишиб қўйгани ёмон бўлмасди. Ахир Ҳамид Олимжон “Хулкарга” деб шеър битган. Дарсда ўқувчилари шоирнинг фарзандлари Омон, Хулкар хақида саволлар бериши табиий.

– Ёввойига ўхшаб бир четда турмаганинда таништирардим, у аёл Ҳамид Олимжон ва Зулфиянинг кизи Хулкар бўлади, – дедим.

– Ола... қишлоқи деб, кулоққа тепма, шаҳарлик, – деб кифтимга бир туртди ўртоғим, – гапини қарайлар, кимсан Ҳамид Олимжон ва Зулфиянинг қизи, шундоқ катта ёзувчи

qolardim. Uylari “Ishchilar shaharchasida”, 10-tramvayda kelib ketardi. Hulkar mashhur yozuvchi Oybekning kelini ekani hammaga ma’lum. Uning tramvayi biznikidan oldin keldi. Har doimgidek tiqilinch. Odamlar ishdan qaytyapti. Hulkar yaxshi boring degandek bosh silkidi-da, shoshib o‘zini ichkari urdi va bir zunda odamlar orasida ko‘zdan yo‘qoldi.

– U ayol kim bo‘ladi, nimagadir ko‘zimga tanishdek ko‘rindi, kimgadir o‘xshatdim, – qiziqdi mehmonim. O‘zini tortib, sal narida turgani uchun men uni tanishtirmay qo‘yaqolgan edim. Lekin adabiyot o‘qituvchisining Hulkar bilan tanishib qo‘ygani yomon bo‘lmasdi. Axir Hamid Olimjon “Hulkarga” deb she’r bitgan. Darsda o‘quvchilari shoirning farzandlari Omon, Hulkar haqida savollar berishi tabiiy.

– Yovvoyiga o‘xshab bir chetda turmaganingda tanishtirardim, u ayol Hamid Olimjon va Zulfiyaning qizi Hulkar bo‘ladi, – dedim.

– Ola... qishloqi deb, quloqqa tepma, shaharlik, – deb kiftimga bir turti o‘rtog‘im, –



Ойбекнинг келини, хаммани кўйиб, трамвайга осилиб юрармиш-а, ха, ха-а... – деб бекатдагиларни ўзига қаратиб кулди у.

– Ха, нима? – дедим унинг ишонмаётганига хайрон бўлиб. – Кейин, секинроқ хохола, – деб кўшиб кўйдим.

У ён-верига қараб, пинжимга тикилиб деди:

– Раисимизнинг машинаси уззукун болачақасидан ортмайди. Раиснинг болалари қайда-ю Зулфиянинг қизи қайда... У самолётда юрса ҳам ҳақи кетади.

– Малака оширишга кимларни юборади десам, сенга ўхшаганларни юборишар эканда, – дедим пичинг қилиб. – Ол, ана, сен айтгандек, Зулфиянинг қизи раисингни болаларига ўхшаб хизмат машинасида юрса, сен уни шаҳарнинг қоқ ўртасида, тикилинч бир трамвайга чиқиб кетганини қаердан кўрардинг? – дедим.

У анграйганича аллақачон кўздан йўқолган трамвай орқасидан қараб қолди.

gapini qaraylar, kimsan Hamid Olimjon va Zulfiyaning qizi, shundoq katta yozuvchi Oybekning kelini, hammani qo'yib, tramvayga osilib yurarmish-a, ha, ha-a... – deb bekatdagilarni o'ziga qaratib kuldi u.

– Ha, nima? – dedim uning ishonmayotganiga hayron bo'lib. – Keyin, sekinroq xoxola, – deb qo'shib qo'ydim.

U yon-veriga qarab, pinjimga tiqilib dedi:

– Raisimizning mashinasi uzzukun bolachaqasidan ortmaydi. Raisning bolalari qayda-yu Zulfiyaning qizi qayda... U samolyotda yursa ham haqi ketadi.

– Malaka oshirishga kimlarni yuboradi desam, senga o'xshaganlarni yuborishar ekan-da, – dedim piching qilib. – Ol, ana, sen aytgandek, Zulfiyaning qizi raisingni bolalariga o'xshab xizmat mashinasida yursa, sen uni shaharning qoq o'rtasida, tiqilinch bir tramvayga chiqib ketganini qayerdan ko'rarding? – dedim.

U angrayganicha allaqachon ko'zdan yo'qolgan tramvay orqasidan qarab qoldi.



## ҚАЛАМ ҲАКИ

*Одам қачон нафсига бир уриб, ўз насибасини бошқага илинади? Бу анча қийин масала-а? Кимга қандоғ-у, лекин...*

Куз келган, пахта мавсуми бошланган, журнал муковасига кечалари машинада пахта тераётган аёл механизатор ҳақида рангли сурат беришимиз керак бўлиб қолди. Машина терими Қашқадарёда бошланган эди. Борис икковимиз шу ёққа жўнаб кетдик. Пахта терадиган машинани бошқарадиган аёл номдор ҳам бўлиши керак. Борис ўтирса ҳам, турса ҳам фотоаппаратини қўлидан қўймасди. Ниҳоятда эҳтиётлайди. Ҳа, аппарат жуда ноёб, бутун бошли нашриётда биттагина. Японларники, фалон пулга сотиб олинган, махсус сейфда сақланади. Тунги рангли суратларни фақат шундагина олиш мумкин. Борис уни тилхат билан олган. Бир нима бўлса тўлайди.

Манзилга эрта кунда етиб бордик. Майдон танланди. Аксига олиб, бу совхозда икки қаторли машиналар бор, тўрт қаторлиси йўқ

## QALAM HAQI

*Odam qachon nafsiga bir urib, o'z nasibasini boshqaga ilinadi? Bu ancha qiyin masala-a? Kinga qandog'-u, lekin...*

Kuz kelgan, paxta mavsumi boshlangan, jurnal muqovasiga kechalari mashinada paxta terayotgan ayol mexanizator haqida rangli surat berishimiz kerak bo'lib qoldi. Mashina terimi Qashqadaryoda boshlangan edi. Boris ikkovimiz shu yoqqa jo'nab ketdik. Paxta teradigan mashinani boshqaradigan ayol nomdor ham bo'lishi kerak. Boris o'tirsa ham, tursa ham fotoapparatini qo'lidan qo'ymasdi. Nihoyatda ehtiyotlaydi. Ha, apparat juda noyob, butun boshli nashriyotda bittagina. Yaponlarniki, falon pulga sotib olingan, maxsus seyfda saqlanadi. Tungi rangli suratlarni faqat shundagina olish mumkin. Boris uni tilxat bilan olgan. Bir nima bo'lsa to'laydi.

Manzilga erta kunda yetib bordik. Maydon tanlandi. Aksiga olib, bu sovxozda ikki qatorli mashinalar bor, to'rt qatorlisi yo'q ekan.

экан. Кўшни совхоздан ҳайдаб келишди. Бу орада куёш ҳам ботиб, тун кирди. Машина чирокларини ёқиб, гуриллаб ишлай бошлади. Бироқ Борис ҳадеганда суратга оладиган нуқтани тополмаётган эди. Шақиллатиб олиб, таваккал қила олмасди. Фотоаппаратнинг плёнкалари ўзидек ноёб ва санокли. У уч оёкли штатив билан у ёқдан-бу ёққа юрар, терга ботиб, хуноби ошарди. Охири бир юк машинасини олиб келиб, бортларини очиб беришди. У штативга баландлик қилди. Бурунли бир тракторни олиб келишган эди, у мос келди. Борис тракторнинг бурнига штативни ўрнатди. Пахта териш машинаси пахтани териб келади-да, тракторга бир қадам қолганда такка тўхтайтиди, шу пайтда Борис суратга тушириб олиши керак. Иш биз кутгандек чикмади, расво бўлди. Механизатор аёл машинани тўхтата олмай, тракторни туртиб юборди. Воҳ... Бундоқ қарасам Борис йўқ. Қайгадир учиб тушибди. Шошиб тракторни айланиб ўтсам, у ерда чалқанча тушиб ётибди. Кўкраги устида аппарат. Нуқул аппаратни ол, аппаратни ол, дейди. Йиқилганда

Qo'shni sovxozdan haydab kelishdi. Bu orada quyosh ham botib, tun kirdi. Mashina chiroqlarini yoqib, gurillab ishlay boshladi. Biroq Boris hadeganda suratga oladigan nuqtani topolmayotgan edi. Shaqillatib olib, tavakkal qila olmasdi. Fotoapparatning plyonkalari o'zidek noyob va sanoqli. U uch oyoqli shtativ bilan u yoqdan-bu yoqqa yurar, terga botib, xunobi oshardi. Oxiri bir yuk mashinasini olib kelib, bortlarini ochib berishdi. U shtativga balandlik qildi. Burunli bir traktorni olib kelishgan edi, u mos keldi. Boris traktorning burniga shtativni o'rnatdi. Paxta terish mashinasi paxtani terib keladi-da, traktorga bir qadam qolganda taqqa to'xtaydi, shu paytda Boris suratga tushirib olishi kerak. Ish biz kutgandek chiqmadi, rasvo bo'ldi. Mexanizator ayol mashinani to'xtata olmay, traktorni turtib yubordi. Voh... Bundoq qaragam Boris yo'q. Qaygadir uchib tushibdi. Shoshib traktorni aylanib o'tsam, u yerda chalqancha tushib yotibdi. Ko'kragi ustida apparat. Nuqul apparatni ol, apparatni

ol, deydi. Yiqilganda hoynahoy apparatni ko'kragiga bosib, orqasi bilan yiqilgan. O'ziga nima bo'lsa bo'lsin-u apparat omon qolsa bas. Apparatni oldim. Boris qiziq ustida shartta o'rnidan turib ketdi. Apparatni qo'limdan olib, darrovda u yoq, bu yog'ini chiroqqa solib ko'rdi. "Xudoyga shukur", dedi o'zbekchalab. Orqasidan "Всё в порядке", deb qo'ydi.

Xullas, ne mashaqqatlar bilan tungi mashina terimini suratga olib, Toshkentga qaytdik. Boris bir hafta, o'n kun belangi bo'lib yotib oldi. Jurnal bosilib ham chiqdi. U chiqishi bilan ertasigayoq qalam haqlarini qo'yib, buxgalteriyaga topshirish kerak, tartib shunaqa edi. Opa qalam haqi masalasida juda ehtiyotkor edilar. Qo'shni tahririyatlarda ko'pgina janjallar, shikoyatlar, yoz-yozlar shundan chiqardi. Xizmat safariga borib kelganlarning piligini ko'tarib qo'ying, uyidan, bola-chaqasidan kechib borib keladi axir, deb tayinlardilar Opa. Hikoya, she'r, bular ko'ngil ishi, deb maqolalarning narxini ulardan baland qo'yardilar. Navbatdagi jurnalning qalam



батдаги журналнинг калам хақини кўрар эканлар Борисга ёзилганини кўриб:

– Бу нимаси? – дедилар менга қараб, – бечора Бориснинг тортган азобларига шугинами, бир ўлимдан қолганига ўзингиз гувоҳсиз-ку.

Опа саргузаштларимиздан хабардор эдилар. Мен кўрсатилган норма бўйича кўйганимни, кейин ортиқча пул ҳам йўқлигини айтдим. Опа шартга бош мақолага кўйилган калам хақини қисқартириб, Борисга кўшиб кўйдилар.

– Бунака пайтда ўзимизга кучимиз етмоғи керак, – деб кўшиб кўйдилар. Бош мақола Опаники эди.

haqini ko'rar ekanlar Borisga yozilganini ko'rib:

– Bu nimasi? – dedilar menga qarab, – bechora Borisning tortgan azoblariga shuginami, bir o'limdan qolganiga o'zingiz guvohsiz-ku.

Opa sarguzashtlarimizdan xabardor edilar. Men ko'rsatilan norma bo'yicha qo'yganimni, keyin ortiqcha pul ham yo'qligini aytdim. Opa shartta bosh maqolaga qo'yilgan qalam haqini qisqartirib, Borisga qo'shib qo'ydilar.

– Bunaqa paytda o'zimizga kuchimiz yetmog'i kerak, – deb qo'shib qo'ydilar. Bosh maqola Opaniki edi.

## ВАФОНИНГ МУКОФОТИ

*Халқимиз улуг ва донишманд. Халқ эътиборидан ҳеч нарса қочиб қутулмайди. Хатто шоира Зулфиянинг Ҳамид Олимжонга бўлган абадий муҳаббати, вафоси ҳам.*

Опа билан ёнма-ён турадиган кўшни-синикига ўғри тушди-ю Опа қулф-калитли сандиқ хоҳлаб қолдилар. Ўйлаб қарасалар, уйда китоб жавонини хисобламаганда мустаҳкамроқ қулф-калитли нарсанинг ўзи йўқ экан. Олимжон ака билан бозорга тушиб, сандиқ олиб берадиган бўлдик. Опа: “Бозорнинг сандиғи керакмас”, деб қўлимизга бир чизма тутқаздилар. У тўртбурчакли сандиққа ўхшамас, учбурчак, конуссимон бир нарса эди. Лекин сантиметр, миллиметрларигача аниқ кўрсатилган.

Сандиқчиларнинг бозори якшанба куни қизийди. Бозорга тушдим. Албатта, чизмадагидек сандиқ йўқ эди. Буюртма берай десаам ҳаммаси “йўқ” деб бош кимирлатишди.



## VAFONING MUKOFOTI

*Xalqimiz ulug' va donishmand. Xalq e'tiboridan hech narsa qochib qutulmaydi. Hatto shoira Zulfiyaning Hamid Olimjonga bo'lgan abadiy muhabbati, vafosi ham.*

Opa bilan yonma-yon turadigan qo'sh-nisinikiga o'g'ri tushdi-yu Opa qulf-kalitli sandiq xohlab qoldilar. O'ylab qarasarlar, uyda kitob javonini hisoblamaganda mustahkamroq qulf-kalitli narsaning o'zi yo'q ekan. Olimjon aka bilan bozorga tushib, sandiq olib beradigan bo'ldik. Opa: "Bozorning sandig'i kerakmas", deb qo'limizga bir chizma tutqazdilar. U to'rtburchakli sandiqqa o'xshamas, uch-burchak, konussimon bir narsa edi. Lekin santimetr, millimetrlarigacha aniq ko'rsatilgan.

Sandiqchilarning bozori yakshanba kuni qiziydi. Bozorga tushdim. Albatta, chizmadagidek sandiq yo'q edi. Buyurtma beray desam hammasi "yo'q" deb bosh qimirlatishdi. Haqini ikki barobar to'layman desam ham unashmadi. Birinchidan, bunaqa narsaga o'r-

Ҳақини икки баробар тўлайман десам ҳам унашмади. Биринчидан, бунақа нарсага ўрганишмаган, иккинчидан, кўлни ушлайди, учинчидан, хомашё исроф бўлади. Охири, мулоҳазалироқ, ёши каттароқ бир сандиқчига дардимни очик айтдим. Зора юмшаса деб Опанинг номларини тилга олдим... У бир сандиқчи борлигини, вақт ўтсинга, эрмакка сандиқ ясашини, сандиғи ерга тушмай сотилиб кетишини айтди. У бу ҳафта ўтиб, янаги ҳафтага келаркан. Ўшагина бунақа нарсаларга кўл уриши мумкин, деди. Манзилини сўрасам, билмади.

Опага бу гапларни айтиб ўтирмадим. Бу-юртма бериб кўйдим, дедим таваккал. Аммо келаётган якшанбани сабрсизлик билан кута бошладим. Ишқилиб, ўша уста бозорга чиқсин-да. Бозорга барвақт бориб, кутиб ўтирдим. “Кўп диққат бўлманг, кечикиброк келади, моли туриб қолмаслигини биледи-да, у занғар”. Дарҳақиқат, у бир эшакаравада келди. Сандиқнинг устини чойшаб билан ёпиб кўйибди. Ерга кўйиши билан харидорлар эмас, усталарнинг ўзи сандиқни ўраб

ganishmagan, ikkinchidan, qo‘lni ushlaydi, uchinchidan, xomashyo isrof bo‘ladi. Oxiri, mulohazaliroq, yoshi kattaroq bir sandiqchiga dardimni ochiq aytdim. Zora yumshasa deb Opaning nomlarini tilga oldim... U bir sandiqchi borligini, vaqt o‘tsinga, ermakka sandiq yasashini, sandig‘i yerga tushmay sotilib ketishini aytdi. U bu hafta o‘tib, yanagi haftaga kelarkan. O‘shagina bunaqa narsalarga qo‘l urishi mumkin, dedi. Manzilini so‘rasam, bilmadi.

Opaga bu gaplarni aytib o‘tirmadim. Bu-yurtma berib qo‘ydim, dedim tavakkal. Ammo kelayotgan yakshanbani sabrsizlik bilan kuta boshladim. Ishqilib, o‘sha usta bozorga chiqsin-da. Bozorga barvaqt borib, kutib o‘tirdim. “Ko‘p diqqat bo‘lmang, kechikibroq keladi, moli turib qolmasligini biladi-da, u zang‘ar”. Darhaqiqat, u bir eshakaravada keldi. Sandiqning ustini choyshab bilan yopib qo‘yibdi. Yerga qo‘yishi bilan xaridorlar emas, ustalarning o‘zi sandiqni o‘rab olishdi. Choyshabni ko‘targan edi, bir nima lov

олишди. Чойшабни кўтарган эди, бир нима лов этгандек, турганларнинг кўзи қамашди. Ана сандиғу, мана сандиқ.

– Буниси янаям бошқача бўлибди-ку, абзий...

– Рангларни қатган топасиз-а, гуллари-чи...

– Бизгаям андоза беринг...

Усталар ичини очиб, сандиқнинг деворларига шапатилаб уриб кўришар, ичидан жангиллаган овоз чиқарди. “Ҳа, энди бу безак, бу меҳнатга ёғочиям асил бўлиши керак-да”. Абзий нос отиб, мақтовлардан ёйилиб турарди. Сандиққа дарровда харидор ҳам чикди, икки баробар ҳақ тўлаб олди-кетди. Мен у кишига журналист эканимни, сандиқни санъат асари қилиб юборганини, бунақа нарсаларни яхши тушунишимни айтдим. Кейин чизмани кўлига тутказдим. У коғозни кўздан кечираётганда секингина қулоғига “Бу машҳур шоира Зулфиянинг буюртмаси, чизмаям ўзлариники”, деб кўшиб кўйдим. У менга “ярқ” этиб қаради. Қарашидан билдимки, у Опани танийди.

– Опани танийсизми, абзий? – деб сўрадим.

etgandek, turganlarning ko'zi qamashdi. Ana sandig'u, mana sandiq.

– Bunisi yanayam boshqacha bo'libdi-ku, abziy...

– Ranglarni qattan topasiz-a, gullari-chi...

– Bizgayam andoza bering...

Ustalar ichini ochib, sandiqning devorlariga shapatilab urib ko'rishar, ichidan jangillagan ovoz chiqardi. “Ha, endi bu bezak, bu mehnatga yog'ochiyam asil bo'lishi kerak-da”. Abziy nos otib, maqtovlardan yoyilib turardi. Sandiqqa darrovda xaridor ham chiqdi, ikki barobar haq to'lab oldi-ketdi. Men u kishiga jurnalist ekanimni, sandiqni san'at asari qilib yuborganini, bunaqa narsalarni yaxshi tushunishimni aytdim. Keyin chizmani qo'liga tutqazdim. U qog'ozni ko'zdan kechirayotganda sekingina qulog'iga “Bu mashhur shoira Zulfiyaning buyurtmasi, chizmayam o'zlariniki”, deb qo'shib qo'ydim. U menga “yarq” etib qaradi. Qarashidan bildimki, u Opani taniydi.

– Opani taniysizmi, abziy? – deb so'radim.

Sin malay, Tuqayni taniysinmi? – dedi xuddi meni imtihon qilgandek bo‘lib.

Abdulla To‘qaynimi, taniyman, nimaga tanimas ekanman, “Muhabbat eski narsadir, har bir shoir uni o‘zicha yangrita”, deb To‘qaydan chala-chulpa she‘r o‘qigan bo‘ldim.

Menda Hamid Olimjonni, Zulfiyani bilam, bilmiy-chi, – dedi u.

Xullas, buyurtmani qabul qilib oldi, o‘n besh kundan keyin uchrashadigan bo‘ldik. Ustimdan go‘yo tog‘ ag‘darildi. Hatto bay puli ham olmadi. Men abziydan sandiq necha pulga tushishini so‘radim. Bilib qo‘yganim yaxshi-da. Ko‘nglimda shu sandiqni Opaga o‘z nomimdan sovg‘a qilishni o‘ylardim. Narxini ish bitgandan keyin aytishini, ammo kelayotganda Opaning bitta kitobiga dastxat yozdirib kelishimni tayinladi. Ism-sharifini so‘ragan edim, qo‘ynidan bloknot chiqardi-da, “Kalimulla” deb yozib berdi. Yozuvni ko‘rib angrayib qolibman. Harflar shunaqangi jim-jimador ediki, xayolimda harflar oppoq qog‘oz ustida bamisoli raqsga tushardi. Ha,



хуснихат билан катта ишларда ишлаган бўлса керак, нафақага чиқиб, зерикканидан хунармандликка ўзини урган. Яна бир гап, у кишининг исми “Каламулло” – Аллоҳнинг каломи – “Қуръон” экан, паспорт столидагилар кўрқиб кетиб, Калимулла деб ёзиб беришган экан.

Ўша пайтда Опанинг “Мушоира” деган китоблари чоп этилиб, жуда машҳур бўлиб кетган эди. Биттасига дастхат ёздириб олдим. Опа устанинг исмини ёзатуриб, бир зум ўйланиб қолдилар. Исм ҳақидаги гапларни айтганимдан кейин чиройлари очилиб, дастхат кўйиб бердилар. Китоб ичига конвертда пул солдилар. Бу ҳали нархи чикмаган сандикнинг пули эди. Кўнглимга туғиб кўйган ниятимни айтдим. Унамадилар. Энг кизиғи, уста ҳам пулни олишдан бош тортди. Ҳамид Олимжонга бўлган вафоси учун мендан шоира Зулфияга совға бўлсин, мен ўз ҳақимни олдим, мана, деб дастхат битилган китобни кўрсатди у. Оббо, Опа пулни ташлаб келавермабсиз-да, десалар нима дейман, деган хаёлда сандикни олиб йўлга тушдим.

tabiatan qo‘li gul odam ekan, bunaqa husnixat bilan katta ishlarda ishlagan bo‘lsa kerak, nafaqaga chiqib, zerikkanidan hunarmandlikka o‘zini urgan. Yana bir gap, u kishining ismi “Kalamullo” – Allohning kalomi – “Qur‘on” ekan, pasport stolidagilar qo‘rqib ketib, Kalimulla deb yozib berishgan ekan.

O‘sha paytda Opaning “Mushoira” degan kitoblari chop etilib, juda mashhur bo‘lib ketgan edi. Bittasiga dastxat yozdirib oldim. Opa ustaning ismini yozaturib, bir zum o‘ylanib qoldilar. Ism haqidagi gaplarni aytganimdan keyin chiroylari ochilib, dastxat qo‘yib berdilar. Kitob ichiga konvertda pul soldilar. Bu hali narxi chiqmagan sandiqning puli edi. Ko‘nglimga tugib qo‘ygan niyatimni aytdim. Unamadilar. Eng qizig‘i, usta ham pulni olishdan bosh tortdi. Hamid Olimjonga bo‘lgan vafosi uchun mendan shoira Zulfiyaga sovg‘a bo‘lsin, men o‘z haqimni oldim, mana, deb dastxat bitilgan kitobni ko‘rsatdi u. Obbo, Opa pulni tashlab kelavermabsiz-da, desalar nima deyman, degan xayolda sandiqni olib



## УЙҒОҚ ҚАЛБ

*Хаётда учрайдиган ювош, беозор киши-ларни “кўй оғзидан чўп олмаган” дейишади. Улар кўпинча сиртдан ювош кўринганлари билан қалблари бамисоли нўртанадек уйғоқ бўлади...*

Касаба уюшмамиз “Ғунча” журнали жамоаси билан бирга эди. Раисимиз “Ғунча”нинг масъул котиби Маҳмуд Муродов эди. Озиқ-овқат дўконларида гўшт, сарёғ, колбаса деган нарсалар анқонинг уруғи. Касаба уюшмаси идорама-идора юриб, шуларни топиб келиш билан овора. Маҳмуд ака навбатдаги мажлисда югур-етимга ярамай колганини айтиб, раисликдан бўшадилар. Ўринларига “Ғунча”нинг рассоми Турсунпўлат акани сайлаб, “Саодат”дан Олимжон акани ёрдамчи қилиб кўйдик. Ҳар икковларининг ҳам озиқ-овқат дўконларида танишлари бисёр. Улар ишга киришиб, тезда ҳамма нарсани тўлдириб ташлашди. Ходимлар хурсанд. Одатда, ҳар ойда бир марта касаба уюшма-

## UYG‘OQ QALB

*Hayotda uchraydigan yuvosh, beozor kishilarni “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan” deyishadi. Ular ko‘pincha sirtdan yuvosh ko‘ringanlari bilan qalblari bamisoli po‘rtanadek uyg‘oq bo‘ladi...*

Kasaba uyushmamiz “G‘uncha” jurnali jamoasi bilan birga edi. Raisimiz “G‘uncha”ning mas‘ul kotibi Mahmud Murodov edi. Oziq-ovqat do‘konlarida go‘sht, saryog‘, kolbasa degan narsalar anqoning urug‘i. Kasaba uyushmasi idorama-idora yurib, shularni topib kelish bilan ovora. Mahmud aka navbatdagi majlisda yugur-yetimga yaramay qolganini aytib, raislikdan bo‘shadilar. O‘rinlariga “G‘uncha”ning rassomi Tursunpo‘lat akani saylab, “Saodat”dan Olimjon akani yordamchi qilib qo‘ydik. Har ikkovlarining ham oziq-ovqat do‘konlarida tanishlari bisyor. Ular ishga kirishib, tezda hamma narsani to‘ldirib tashlashdi. Xodimlar xursand. Odatda, har oyda bir marta kasaba uyushmamizning

мизнинг йиғилиши бўларди. Янги раисимиз мажлис кунини эълон қилиб қўйди-ю оромини йўкотди. У киши ишга бор-у сўзга йўқ эди. Хонада Олимжон ака билан тортишиб турганларининг устидан чиқиб қолдим.

– Ҳечамда, сиз раисмисиз, дакалатти ўзиз қиласиз, мен причом, – дерди Олимжон ака.

– Ҳе, Олим, тушунсанг-чи, мен бунақа нарсаларга йўқман, ҳа йўқман, – деб ҳалитдан Турсунпўлат аканинг ранги-кути ўчиб боряпти.

– Олимжон ака ҳақлар, – дедим орага тушиб, – бу ўзимизнинг кичкинагина йиғилиш-ку, ҳали “Саодат” журнали номидан конференцияларга борасиз, сўзга чиқишга тўғри келади, унда нима қиласиз, ўрганинг, – дедим.

– Ахир ўйланг, – деди у менга тепадан қараб, (бўйлари узун эди) – Опанинг олдида қандоқ дакалат қиламан. У киши қанақа зўр дакалатларни эшитганлар-ку...

– Қўрқманг, мен ёрдам бераман, ўқиб берасиз, тамом, ҳамма ҳам ёзганини ўқиб беришади-ку.

yig'ilishi bo'lardi. Yangi raisimiz majlis kunini e'lon qilib qo'ydi-yu oromini yo'qotdi. U kishi ishga bor-u so'zga yo'q edi. Xonada Olimjon aka bilan tortishib turganlarining ustidan chiqib qoldim.

– Hechamda, siz raismisiz, dakalatti o'ziz qilasiz, men prichom, – derdi Olimjon aka.

– He, Olim, tushunsang-chi, men bunaqa narsalarga yo'qman, ha yo'qman, – deb halitdan Tursunpo'lat akaning rangi-quti o'chib boryapti.

– Olimjon aka haqlar, – dedim oraga tushib, – bu o'zimizning kichkinagina yig'ilish-ku, hali “Saodat” jurnali nomidan konferensiyalarga borasiz, so'zga chiqishga to'g'ri keladi, unda nima qilasiz, o'rganing, – dedim.

– Axir o'ylang, – dedi u menga tepadan qarab, (bo'ylari uzun edi) – Opaning oldida qandoq dakalat qilaman. U kishi qanaqa zo'r dakalatlarni eshitganlar-ku...

– Qo'rqmang, men yordam beraman, o'qib berasiz, tamom, hamma ham yozganini o'qib berishadi-ku.



Одатда, маърузаларга ёпишадими-йўкми, албатта, иктибослар келтириш шарт эди. Хуллас, маърузани уюшма раисимизга тайёрлаб бердим. Мажлис Опанинг хонасида бошланди. У киши, албатта, мажлис хайъати аъзолигига сайландилар. Турли анжуманларнинг президиумида ўтирган Она бизнинг дўппидеккина мажлисимизда ҳам кўр тўкиб ўтирардилар. Маъруза қилаётиб, Турсунпўлат ака бир жойда ковун туширди. Дзержинскийдан иктибос келтирилган эди. У “Феликс Эдмундович” дейман деб, “Фелекс Мелекс Дзержинский” айтганларидек, деб юборса бўладими. Мен дарровда Опага ва ўтирганларга “ярқ” этиб қарадим. Ҳеч кимда ўзгариш сезмадим, балки билишмас ёки эътибор қилишмади.

Ходимлар янги раиснинг ишларидан хурсандлигини айтишди, мажлис тугади. Одамлар тарқагач, Опа мени чақириб қолдилар.

– Боя, янги раисимиз исмда хато қилдиларми? – дедилар ўсмоқчилаб.

Вох, эътибор қилмагандек кўринувдилар, демак, эътибор қилган эканлар-да.

Odatda, ma'ruzalarga yopishadimi-yo'qmi, albatta, iqtiboslar keltirish shart edi. Xullas, ma'ruzani uyushma raisimizga tayyorlab berdim. Majlis Opaning xonasida boshlandi. U kishi, albatta, majlis hay'ati a'zoliciga saylandilar. Turli anjumanlarning prezidiumida o'tirgan Opa bizning do'ppidekkina majlisimizda ham qo'r to'kib o'tirardilar. Ma'ruza qilayotib, Tursunpo'lat aka bir joyda qovun tushirdi. Dzerjinskiydan iqtibos keltirilgan edi. U "Feliks Edmundovich" deyman deb, "Feleks Meleks Dzerjinskiy" aytganlaridek, deb yuborsa bo'ladimi. Men darrovda Opaga va o'tirganlarga "yarq" etib qaradim. Hech kimda o'zgarish sezmadim, balki bilishmas yoki e'tibor qilishmadi.

Xodimlar yangi raisning ishlaridan xursandligini aytishdi, majlis tugadi. Odamlar tarqagach, Opa meni chaqirib qoldilar.

– Boya, yangi raisimiz ismda xato qildilarmi? – dedilar o'smoqchilab.

Voh, e'tibor qilmagandek ko'rinuvdilar, demak, e'tibor qilgan ekanlar-da.



– Шунақа бўлди, Опа, кўпчиликнинг сири босди-да, – дедим.

– Астагина айтиб кўйинг, эҳтиёт бўлсинлар, бошқа бирорта каттарок мажлисда, шунақа деворсалар борми, хай, хай... мажлисни оборувчи кўпчилик олдида изза қилиб, обрўсини бир пул қилиб кўяди-я, – дедилар.



– Shunaqa bo‘ldi, Opa, ko‘pchilikning siri bosdi-da, – dedim.

– Astagina aytib qo‘ying, ehtiyot bo‘lsinlar, boshqa birorta kattaroq majlisda, shunaqa devorsalar bormi, hay, hay... majlisni obro‘vchi ko‘pchilik oldida izza qilib, obro‘sini bir pul qilib qo‘yadi-ya, – dedilar.





## САЛОМГА ЯРАША АЛИК

*Одатда, бошлиқлар ишхонадаги кўп нарсаларни шундай бўлса керак деб тушунишди ва эътибор қилишмайди. Аслида ҳам шундай бўладими?*

Опа жамоамизда анъанага айланиб қолган туғилган кунлар, байрамларда албатта иштирок этардилар. Камтарона дастурхон атрофида ўйин-кулгилар, шеърхонликлар бўларди. Дастурхонда, албатта, Олимжон аканинг хотини Зироатхон тайёрлаган норин бўларди. Норинки, еган одамнинг оғзида қоларди. Бир сафар:

– Бу нориннинг эгаси нимага биз билан ўтирмайдилар? – деб Олимжон акага қарардилар Опа.

Олимжон ака ёйилиб кулдилар-да:

– У кишим жуда уятчанглар, – деб кутилди.

– Мақтовимизни етказиб қўйинг, ҳамирга меҳриниям қўшиб тўрғаворсалар керак-да, менам кўп жойда норин ейман, локин Зироатхонникига ўхшата олмайман...

## SALOMGA YARASHA ALIK

*Odatda, boshliqlar ishxonadagi ko'p narsalarni shunday bo'lsa kerak deb tushunishadi va e'tibor qilishmaydi. Aslida ham shunday bo'ladimi?*

Opa jamoamizda an'anaga aylanib qolgan tug'ilgan kunlar, bayramlarda albatta ishtirok etardilar. Kamtarona dasturxon atrofida o'yin-kulgilar, she'rxonliklar bo'lardi. Dasturxonida, albatta, Olimjon akaning xotini Zi-roatxon tayyorlagan norin bo'lardi. Norinki, egan odamning og'zida qolardi. Bir safar:

– Bu norinning egasi nimaga biz bilan o'tirmaydilar? – deb Olimjon akaga qaradilar Opa.

Olimjon aka yoyilib kuldilar-da:

– U kishim juda uyatchanglar, – deb qutildi.

– Maqtovimizni yetkazib qo'ying, hamirga mehriniyam qo'shib to'rg'avorsalar kerak-da, menam ko'p joyda norin eyman, lokin Zi-roatxonnikiga o'xshata olmayman...

Olimjon aka maqtov va Opaning hurmati

Олимжон ака мактов ва Опанинг хурмати учун ўринларидан туриб, издиҳомга кўл ковуштириб кўйди. Дарҳақиқат, Зироатхон ўтиришдан олдин тоғора кўтариб, бир пайдо бўларди-ю, кейин ғойиб бўлиб қоларди. У киши табиатан уй аёли эди. “Саодат”даги аёлларни осмону ўзини ер санаб, уларга кўшила олмасди. Бир куни Опа аzza-базза мендан сўраб қолдилар:

– Бу ҳар сафар Олимжоннинг уйдан норин келади, мактаб-мактаб еймиз. Норинниям умумий ҳисоб-китобга киритасизларми ишқилиб?

– Олимжон ака унамайдилар, шу ердан туз-намак бўляпмиз, деб, – дедим.

– Э, қизиқ экан-ку бу Олимжон, – деб кўйдилар Опа.

Бешинчи май Олимжон аканинг туғилган куни эди. Кунлар исиб қолгани учун норин эмас, Олимжон ака ўз қўллари билан чойхона палов қилиб, Зироатхон билан кўтаришиб келишди. Аммо бу сафар Холида опа Зироатхонни кетказмади. Биз билан бир даврада ўтирди. Олимжон акага чойнак-пиёласи би-

uchun o‘rinlaridan turib, izdihomga qo‘l qovushtirib qo‘ydi. Darhaqiqat, Ziroatxon o‘tirishdan oldin tog‘ora ko‘tarib, bir paydo bo‘lardi-yu, keyin g‘oyib bo‘lib qolardi. U kishi tabiatan uy ayoli edi. “Saodat”dagi ayollarni osmon-u o‘zini yer sanab, ularga qo‘shila olmasdi. Bir kuni Opa azza-bazza mendan so‘rab qoldilar:

– Bu har safar Olimjonning uyidan norin keladi, maqtab-maqtab eymiz. Norinniyam umumiy hisob-kitobga kiritasizlarmi ishqilib?

– Olimjon aka unamaydilar, shu yerdan tuz-namak bo‘lyapmiz, deb, – dedim.

– E, qiziq ekan-ku bu Olimjon, – deb qo‘ydilar Opa.

Beshinchi may Olimjon akaning tug‘ilgan kuni edi. Kunlar isib qolgani uchun norin emas, Olimjon aka o‘z qo‘llari bilan choyxona palov qilib, Ziroatxon bilan ko‘tarishib kelishdi. Ammo bu safar Xolida opa Ziroatxonni ketkazmadi. Biz bilan bir davrada o‘tirdi. Olimjon akaga choynak-piyolasi bilan

лан пахта гулли сервис совға қилдик. Шунда Она ўринларидан турдиларда:

– Олимжонни Олимжон қилган Зироатхонга менинг ҳам совғам бор, – деб Зироатхонни ёнларига чақирдилар, тортмадан қозга ихчам қилиб ўралган бир нимани олиб узатдилар-да, ўзларига тортиб, пешонасидан ўпиб қўйдилар.

Мен Опанинг: “Э, қизик экан-ку, бу Олимжон”, деганларини эслаб, саломга яраша алик қилганларини сездим. Шунақа, кўнгил олганни кўнглини олиш Опа учун одатий ҳол эди.

paxta gulli servis sovg'a qildik. Shunda Opa o'rinlaridan turdilar-da:

– Olimjonni Olimjon qilgan Ziroatxonga mening ham sovg'am bor, – deb Ziroatxonni yonlariga chaqirdilar, tortmadan qog'ozga ixcham qilib o'ralgan bir nimani olib uzatdilar-da, o'zlariga tortib, peshonasidan o'pib qo'ydilar.

Men Opaning: “E, qiziq ekan-ku, bu Olimjon”, deganlarini eslab, salomga yarasha alik qilganlarini sezdim. Shunaqa, ko'ngil olganni ko'nglini olish Opa uchun odatiy hol edi.

## НАСИМА ОПАНИНГ “БУҚАСИ”

Ишхонада баъзан узоқ вақт эслаб юрадиган кулгили воқеалар ҳам бўлиб турарди. Опанинг олдига ҳар сафар бўлажак журналнинг макетини кўтариб кирганимизда Лайлохонга қараб, “Насимахоннинг буқаси қалай”, деб кулиб кўярдилар...

Одатда, номерга қўйиладиган материаллар олдиндан макетлаштириларди. Мисол учун, Санъат Маҳмудова Булунғурга бориб келган бўлса, макетга у кишининг исми ва “Булунғур” деб ёзиб қўйиларди. Чунки ҳали мақола ёзилмаган, сарлавҳаси номаълум бўларди-да. Ҳар ҳафтада рассом Лайло Салимжонова билан Опанинг ҳузурига кириб, макет бўйича қайси материаллар тушди, қайсилари тушмагани ҳақида ахборот бериб турардик.

Навбатдаги шундай ахборот беришда Лайло шикоят қилиб қолди:

– Шу... Насима опанинг буқасидан ҳалигача дарак бўмаяпти, – деди ташвишланиб, –

## NASIMA OPANING “BUQASI”

Ishxonada ba’zan uzoq vaqt eslab yuradigan kulgili voqealar ham bo’lib turardi. Opaning oldiga har safar bo’lajak jurnalning maketini ko’tarib kirganimizda Layloxonga qarab, “Nasimaxonning buqasi qalay”, deb kulib qo’yardilar...

Odatda, nomerga qo’yiladigan materiallar oldindan maketlashtirilardi. Misol uchun, San’at Mahmudova Bulung’urga borib kelgan bo’lsa, maketga u kishining ismi va “Bulung’ur” deb yozib qo’yilardi. Chunki hali maqola yozilmagan, sarlavhasi nomal’lum bo’lardida. Har haftada rassom Laylo Salimjonova bilan Opaning huzuriga kirib, maket bo’yicha qaysi materiallar tushdi, qaysilari tushmagani haqida axborot berib turardik.

Navbatdagi shunday axborot berishda Laylo shikoyat qilib qoldi:

– Shu... Nasima opaning buqasidan haligacha darak bo’mayapti, – dedi tashvishlanib, --





кечикяптилар, хали мен унга расм ҳам чизишим керакдир...

– Насимахоннинг нимасидан? – деб Опа чимириядилар. Мен кулгидан ёрилай деб, лабимни тишлаб, ерга қараб олган эдим.

– Буқага борганлар-ку, командировкага, – деб Лайлохон тушунтирмоқчи бўлди.

Опа индамай макетни олдиларига тортиб олдилар-да, кўлларига ручка олиб, “у” ҳарфи устига белги қўйиб “ў” қилдилар, “к”нинг думини олиб ташлаб “к” қилдилар-да, макетни Лайлонинг олдига суриб:

– Энди ўқинг, – дедилар. Лайлохон:

– Бў-ка, – деб ўқиди-да, – вой, нима фарқи бор, Опа? – деди. Лайлохон рус мактабида ўқиган, шаҳардан ташқарига чиқмаган, “Бўка” билан “буқа”нинг фарқига бормасди. Насима опа Тошкент вилоятининг Бўка туманига бориб келган эдилар.

– Эркинжон, хомага чиққандан кейин Бўка билан буқанинг фарқини рассомингизга яхшилаб тушунтириб қўйинг, – деб Опанинг ўзлари ҳам кулиб юбордилар.

kechikyaptilar, hali men unga rasm ham chizishim kerakdir...

– Nasimaxonning nimasidan? – deb Opa chimirildilar. Men kulgidan yorilay deb, labimni tishlab, yerga qarab olgan edim.

– Buqaga borganlar-ku, komandirovkaga, – deb Layloxon tushuntirmoqchi bo‘ldi.

Opa indamay maketni oldilariga tortib oldilar-da, qo‘llariga ruchka olib, “u” harfi ustiga belgi qo‘yib “o” qildilar, “q”ning dumini olib tashlab “k” qildilar-da, maketni Layloning oldiga surib:

– Endi o‘qing, – dedilar. Layloxon:

– Bo‘-ka, – deb o‘qidi-da, – voy, nima farqi bor, Opa? – dedi. Layloxon rus maktabida o‘qigan, shahardan tashqariga chiqmagan, “Bo‘ka” bilan “buqa”ning farqiga bormasdi. Nasima opa Toshkent viloyatining Bo‘ka tumaniga borib kelgan edilar.

– Erkinjon, xonaga chiqqandan keyin Bo‘ka bilan buqaning farqini rassomingizga yaxshilab tushuntirib qo‘ying, – deb Opaning o‘zlari ham kulib yubordilar.

## ОДАМИЗОТ

*Бу ёруғ дунёда меъёрдан ошмай яшаш мумкинми? Мумкин, фақат ўша меъёрнинг юқини кўтарибгина. Қанийди буни ҳамма ҳам тушуна қолса...*

Опа тўрт қаватли бинонинг учинчи қава-тида яшашини биласиз. У киши енгилги-на кўчиб келган бўлдилар-да, “Янги уйнинг кулоғини очамиз”, деб журнал ходимларини тушликка меҳмонга чақирдилар. Лайло ёши-га исбатан тўла аёл эди. Учинчи қаватга кўтарилгунча ҳансираб қолди.

– Нима бу, – деди норози бўлиб, – Опага ҳеч бўлмаса иккинчи қаватдан бермайди-ларми, уларга ҳам қийин-ку, учинчи қаватга чиқиш, – деди.

Ҳамманинг хаёлидан “Роста-а, Опа хохла-ган қаватдан олишлари мумкин эди-ку”, де-ган ўй кечгани маълум. Опа бизларни ичка-рида кутиб олдилар. Лайло ҳансираётганини сездирмасликка қанчалик уринмасин, Опа барибир сизди.

## ODAMIZOT

*Bu yorug' dunyoda me'yordan oshmay yashash mumkinmi? Mumkin, faqat o'sha me'yorning yukini ko'taribgina. Qaniydi buni hamma ham tushuna qolsa...*

Opa to'rt qavatli binoning uchinchi qavatida yashashini bilasiz. U kishi yengilgina ko'chib kelgan bo'ldilar-da, "Yangi uyning qulog'ini ochamiz", deb jurnal xodimlarini tushlikka mehmonga chaqirdilar. Laylo yoshiga nisbatan to'la ayol edi. Uchinchi qavatga ko'tarilguncha hansirab qoldi.

– Nima bu, – dedi norozi bo'lib, – Opa-ga hech bo'lmasa ikkinchi qavatdan bermaydilar-mi, ularga ham qiyin-ku, uchinchi qavatga chiqish, – dedi.

Hammaning xayolidan "Rosta-a, Opa xohlagan qavatdan olishlari mumkin edi-ku", degan o'y kechgani ma'lum. Opa bizlarni ichkarida kutib oldilar. Laylo hansirayotganini sezdirmaslikka qanchalik urinmasin, Opa bari-bir sezdi.



– Кўтарилиш сизгинага қийин бўпти-да, Лайло, ҳай-ҳай, – деб елкасига уриб, эркалаб қўйдилар. Лайлога дарровда жон битди:

– Ҳайронман, Зулфия опа, ҳамма к-а-ат-таконлар иккинчи қаватдан олишади, нима, айтсангиз сизга беришмасмиди? – деди.

– Беришарди, нимага беришмасин, одамлар сизга ўхшаб каттакон экан демасин, деб атайлаб шу қаватдан, олдим-да, Лайло, – деди Опа жилмайиб.

Рассомимиз нозик бир ишорани сезди шекилли, “ҳа-а-а”... деб қўйди. Айни пайтда бошқалар ҳам ичида “ҳа-а-а” дегани аниқ.

– Ko‘tarilish sizginaga qiyin bo‘pti-da, Laylo, hay-hay, – deb yelkasiga urib, erkalab qo‘ydilar. Layloga darrovda jon bitdi:

– Hayronman, Zulfiya opa, hamma k-a-at-takonlar ikkinchi qavatdan olishadi, nima, aytasangiz sizga berishmasmidi? – dedi.

– Berishardi, nimaga berishmasin, odamlar sizga o‘xshab kattakon ekan demasin, deb ataylab shu qavatdan, oldim-da, Laylo, – dedi Opa jilmayib.

Rassomimiz nozik bir ishorani sezdi shekilli, “ha-a-a”... deb qo‘ydi. Ayni paytda boshqalar ham ichida “ha-a-a” degani aniq.

## ЖУРНАЛИСТИК ТАҲЛИЛ

*Бу ёруғ дунёда илмсиз яшаб бўлмаслигини ҳамма билади. Бунинг учун олий маълумотли бўлиш шарт эмас...*

Аёл журналистлари орасида маҳорат бобида Санъат Маҳмудовага стадигани йўқ эди. Бир куни у адабиёт газетасини олдимга ташлаб:

– Қаранг, танқидчи акамиз очеркларни мактаб-мақтаб, охирида барибир журналистик таҳлил етишмайди, деб мақоласини тугатибди. Бу курук гап-ку, олимписан, журналистик таҳлил канақа бўлишини, бундоқ тушунтириб бер, хўш ўртоқ масъул котиб, таҳлил деганда ўзлари нимани тушунадилар? – деди худди танқидчининг аламини мендан олмоқчидек. Мен елка қисдим.

– Ана шунақа, билмайсизлар, лекин таҳлил етишмайди дейишга устасизлар...

Дарҳақиқат, Санъатхоннинг куйинганича бор. Шунча ёзиб, “таҳлил” деган сўзнинг маъно ва маъзини атрофлича ўйлаб кўрмаган

## JURNALISTIK TAHLIL

*Bu yorug' dunyoda ilmsiz yashab bo'lmasligini hamma biladi. Buning uchun oliy ma'lumotli bo'lish shart emas...*

Ayol jurnalistlari orasida mahorat bobida San'at Mahmudovaga etadigani yo'q edi. Bir kuni u adabiyot gazetasini oldimga tashlab:

– Qarang, tanqidchi akamiz ocherklarni maqtab-maqtab, oxirida baribir jurnalistik tahlil yetishmaydi, deb maqolasini tugatibdi. Bu quruq gap-ku, olimmisan, jurnalistik tahlil qanaqa bo'lishini, bundoq tushuntirib ber, xo'sh o'rtoq mas'ul kotib, tahlil deganda o'zlari nimani tushunadilar? – dedi xuddi tanqidchining alamini mendan olmoqchidek. Men yelka qisdim.

– Ana shunaqa, bilmaysizlar, lekin tahlil yetishmaydi deyishga ustasizlar...

Darhaqiqat, San'atxonning kuyinganicha bor. Shuncha yozib, "tahlil" degan so'zning ma'no va mag'zini atroflicha o'ylab ko'rmagan ekanman. Ba'zi maqolalarni tahlil



эканман. Баъзи мақолаларни таҳлил етишмаяпти, деб бўлимларга ўзим ҳам қайтариб берардим. Санъатхон шунга ишора қиляпти. Мақола ёзишнинг аниқ бир қолипи бўлмаганидек “таҳлил” ҳам боши, охири йўқ нарсага ўхшарди. Лекин мақола ва хабарларга баҳо берувчилар “таҳлил”ни бир шаблон – андоза қилиб олиб, таҳлил етишмаяпти, деб кўяқолишарди. Опа ҳам “Мақолаларимизда, лавҳаларимизда таҳлил етишмаётганлигини” кўп айтардилар.

Қиш фаслида журнал материаллари кўпинча колхоз ва совхозлардаги соғим ишлари, паррандачилик, бўрдоқичилик фермалари ҳаётига бағишланарди. Саҳифалар саккиз, ўн минг литрлаб сут соғиб олаётган соғувчиларнинг суратлари билан тўлиб тошарди.

Журналнинг навбатдаги сони муҳокама-сида гапиришимга тўғри келди. Ҳали гап бошламасимдан Санъатхон менга бир қараб кўйди. Ичимда ҳамкасбимнинг жонига теккан “таҳлил” деган сўзни оғзимга олмасликка аҳд қилдим. Гапни нима учун сигирлардан

yetishmayapti, deb bo'limlarga o'zim ham qaytarib berardim. San'atxon shunga ishora qilyapti. Maqola yozishning aniq bir qolipi bo'lmaganidek "tahlil" ham boshi, oxiri yo'q narsaga o'xshardi. Lekin maqola va xabarlarga baho beruvchilar "tahlil"ni bir shablon – andoza qilib olib, tahlil yetishmayapti, deb qo'yaqolishardi. Opa ham "Maqolalarimizda, lavhalarimizda tahlil yetishmayotganligini" ko'p aytardilar.

Qish faslida jurnal materiallari ko'pincha kolxoz va sovxozlardagi sog'im ishlari, parandachilik, bo'rdoqichilik fermalari hayotiga bag'ishlanardi. Sahifalar sakkiz, o'n ming litrlab sut sog'ib olayotgan sog'uvchilarning suratlari bilan to'lib toshardi.

Jurnalning navbatdagi soni muhokamasida gapirishimga to'g'ri keldi. Hali gap boshlamasimdan San'atxon menga bir qarab qo'ydi. Ichimda hamkasbimning joniga tekkan "tahlil" degan so'zni og'zimga olmaslikka ahd qildim. Gapni nima uchun sigirlardan qishda yozdagiga qaraganda ikki barobar

кишда ёздагига қараганда икки баробар кам сут соғиб олиншидан бошладим. Қайси ферманинг эшик ва туйнуклари қиш мавсумига тайёрланмаган бўлса, сигирлар иситилмаган, муздек сув ичса сути камайиб кетиши, чунки сигир танасини иситиш учун сутини сарфлашга мажбур бўлишини айтдим. Жониворнинг бошқа иложи қолмайди-да. Товук фермаларида ҳам ахвол шу, товукхоналар иссиқ бўлса, паррандалар қишдаям ёздагидек тухум беравериши мумкин. Қиш совуги уларни бепушт қилиб кўяди. Бўрдоқига бокилаётган қорамоллар ҳам худди шундай. Еган еми тана хароратига сарф бўлиб, семирмайди. Жойларга борганимизда масаланинг шу тарафларига диққат қилишимиз лозимлигини ва булар ёзганларимизда акс этиши кераклигини айтдим. У ёки бу соҳа ҳақида ёзар эканмиз, аввало, ўша соҳанинг мутахассиси кўзи билан қармас эканмиз ёзганларимиз юзаки бўлиб қолаверади, деб сўзимни тугатдим...

Мен бу маълумотларни тасодифан кўлимга тушиб қолган рус тилида чоп этилган

kam sut sog'ib olinishidan boshladim. Qaysi fermaning eshik va tuynuklari qish mavsumiga tayyorlanmagan bo'lsa, sigirlar isitilmagan, muzdek suv ichsa suti kamayib ketishi, chunki sigir tanasini isitish uchun sutini sarflashga majbur bo'lishini aytdim. Jonivorning boshqa iloji qolmaydi-da. Tovuq fermalarida ham ahvol shu, tovuqxonalar issiq bo'lsa, parrandalar qishdayam yozdagidek tuxum beraverishi mumkin. Qish sovug'i ularni bepusht qilib qo'yadi. Bo'rdoqiga boqilayotgan qoramollar ham xuddi shunday. Yegan yemi tana haroratiga sarf bo'lib, semirmaydi. Joylarga borganimizda masalaning shu taraflariga diqqat qilishimiz kerakligini va bular yozganlarimizda aks etishi lozimligini aytdim. U yoki bu soha haqida yozar ekanmiz, avvalo, o'sha sohaning mutaxassisi ko'zi bilan qarmas ekanmiz yozganlarimiz yuzaki bo'lib qolaveradi, deb so'zimni tugatdim...

Men bu ma'lumotlarni tasodifan qo'limga tushib qolgan rus tilida chop etilgan "Chor-

“Чорвачилик”, “Паррандачилик” деган журналлардан ўқиб, билиб олган эдим.

– Яшанг, – дедилар Опанинг бирдан юзлари ёришиб, – бугунги кун учун долзарб бўлган соҳани яхши таҳлил қилиб бердингиз, жониворлар ўз сути билан танасини иситишини менам билмасаканман. Бундан чиқди, яхши таҳлилий мақолалар ёзишга бизга илм ва билим етишмайди, шундайми, шундай, биз бир ҳовуч чиройли ташбеҳлар, ялтирок сўзларни топиб олганмиз-у, шулардан нарига ўтмаймиз...

Гапнинг очиғи Опанинг: “Таҳлилий мақолалар ёзишга бизга илм ва билим етишмайди”, деган сўзларидан кейин таҳлил учун нима зарурлигини, бирдан ўзим ҳам англаб етгандек бўлдим. Санъат Маҳмудова “вой пишиғ-ей” дегандек менга қараб қўйди.

vachilik”, “Parrandachilik” degan jurnallardan o‘qib, bilib olgan edim.

Yashang, – dedilar Opaning birdan yuzlari yorishib, – bugungi kun uchun dolzarb bo‘lgan sohani yaxshi tahlil qilib berdingiz, jonivorlar o‘z suti bilan tanasini isitishini menam bilmasakanman. Bundan chiqdi, yaxshi tahliliy maqolalar yozishga bizga ilm va bilim etishmaydi, shundaymi, shunday, biz bir hovuch chiroyli tashbehtar, yaltiroq so‘zlarni topib olganmiz-u, shulardan nariga o‘tmaymiz...

Gapning ochig‘i Opaning: “Tahliliy maqolalar yozishga bizga ilm va bilim yetishmaydi”, degan so‘zlaridan keyin tahlil uchun nima zarurligini, birdan o‘zim ham anglab etgandek bo‘ldim. San‘at Mahmudova “voy pishig‘-ey” degandek menga qarab qo‘ydi.

**АРИЗА**

Опанинг кўп йиллик ҳам қадрдони, ҳам “Саодат”да ўринбосар бўлиб ишлаган Холида Аҳророва “чарчадим” деб нафақага чиққанларидан кейин, орадан кўп ўтмай, Опа ҳам ишдан бўшаш ҳақида ариза бердилар. Мен аризани кадрлар бўлимига олиб тушар эканман, ичим бўм-бўш, ҳа, азиз бир кишимни йўқотгандек, Опа атрофида жинслашган “Саодат”нинг кўздек жамоаси ҳам ғариб ва нотавон кўриниб кетди. Наҳотки қачонлардир катта орзу-умидлар билан бошланган ишлар мана шундай ноёнига етса, ўтмишга айланса? Хаёлимда Опа “Саодат”да бир умр Бош муҳаррир бўлиб қоладигандек. Зулфиясиз “Саодат”ни, “Саодат”сиз Зулфияни тасаввур қилиб бўлмайдигандек. Афсуслар бўлсинки, кўлимда ариза. Бир қарашда оддийгина қоғоз, лекин оғир, ҳа, зил-замбил. Хаёлим узокларга кетди. Қачонлардир Опа илк бора не-не энтиқишу ҳадиклар билан хаёг деган оламга кириб келганлар. Оддий, содда, маъсума, охудек бир ҳуркак жон. Осон эмас бу майдон

## ARIZA

Opaning ko'p yillik ham qadrdoni, ham "Saodat"da o'rinbosar bo'lib ishlagan Xolida Ahrorova "charchadim" deb nafaqaga chiqqanlaridan keyin, oradan ko'p o'tmay, Opa ham ishdan bo'shah haqida ariza berdilar. Men arizani kadrlar bo'limiga olib tushar ekanman, ichim bo'm-bo'sh, ha, aziz bir kishimni yo'qotgandek, Opa atrofida jiplashgan "Saodat"ning ko'zdek jamoasi ham g'arib va notavon ko'rinib ketdi. Nahotki qachonlardir katta orzu-umidlar bilan boshlangan ishlar mana shunday poyoniga etsa, o'tmishga aylansa? Xayolimda Opa "Saodat"da bir umr Bosh muharrir bo'lib qoladigandek. Zulfiyasiz "Saodat"ni, "Saodat"siz Zulfiyani tasavvur qilib bo'lmaydigandek. Afsuslar bo'lsinki, qolimda ariza. Bir qarashda oddiygina qog'oz, lekin og'ir, ha, zil-zambil. Xayolim uzoqlarga ketdi. Qachonlardir Opa ilk bora ne-ne entikish-u hadiklar bilan hayot degan olamga kirib kelganlar. Oddiy, sodda, ma'suma, ohudek



ичра... деганларидек Зулфия бўлиб танилгунларича не-не кунларни бошларидан кечирганларини, Ҳамид Олимжон ҳалокатидан кейин қанчалик садоқат рамзига айланганларини фақат ўзларигина биладилар... Ўх-хў-ў... мана энди ишдан кетиш ҳақида ариза. “Ўз ихтиёрим билан”... ажабо вақтики келиб, ким бўлишидан қатъи назар, ҳамма ҳам ўзига ўзи шундай ҳукм ўқийдими? Ҳа, бу синов дунёсида абадий нарсанинг ўзи йўқ, деб ўзимга ўзим тасалли бераман. Барибир оғир, шунчалар оғирки, “оғир” деган сўзнинг ўзи оғир. Бамисоли устингдан катта бир тоғ босиб тургандек. У шунчаки тоғ эмас, армон ва андух тоғлари... Ҳа, ўтди даврон, кетди даврон, энди даврон қайдадир...

Опа ариза ёзган куннинг эртасигаёқ ишга келмай кўйдилар. Буйруқ чиқишини ҳам кутиб ўтирмай машина хизматидан ҳам воз кечдилар. Масъулият бўлим мудирлигидан яқиндагина Холида опанинг ўрнига ўринбосар бўлиб ўтган Ҳалима Худойбердиева ва каминанинг елкасига тушиб колди. Ўх-хў-ў... ҳаёт уммонида шитоб билан сузиб бораётган ке-

bir hurkak jon. Oson emas bu maydon ichra... deganlaridek Zulfiya bo'lib tanilgunlaricha ne-ne kunlarni boshlaridan kechirganlarini, Hamid Olimjon halokatidan keyin qanchalik sadoqat ramziga aylanganlarini faqat o'zlarigina biladilar... O'h-ho'-o'... mana endi ishdan ketish haqida ariza. "O'z ixtiyorim bilan"... ajabo vaqtiki kelib, kim bo'lishidan qat'i nazar, hamma ham o'ziga o'zi shunday hukm o'qiydimi? Ha, bu sinov dunyosida abadiy narsaning o'zi yo'q, deb o'zimga o'zim tasalli beraman. Baribir og'ir, shunchalar og'irki, "og'ir" degan so'zning o'zi og'ir. Bamisoli ustingdan katta bir tog' bosib turgandek. U shunchaki tog' emas, armon va anduh tog'lari... Ha, o'tdi davron, ketdi davron, endi davron qaydadir...

Opa ariza yozgan kunning ertasigayoq ishga kelmay qo'ydilar. Buyruq chiqishini ham kutib o'tirmay mashina xizmatidan ham voz kehdilar. Mas'uliyat bo'lim mudirligidan yaqindagina Xolida opaning o'rniga o'rinbosar bo'lib o'tgan Halima Xudoyberdiyeva va ka-

мани худди олдингидек бошқаришнинг ўзи бўларканми? Ҳалимахон пайдо бўлган ҳар бир саволда менга суянади, мен эсам салкам ўн йил мобайнида Опадан, муовинлари Холида Аҳроровадан олган тажрибаларимга...

Ўйлаб қарасам, ҳатто Она юрадиган ишхонанинг йўлақлар ҳам хувиллаб қопти. Ахир, ҳар куни соат тўққиз яримга қараб, Опанинг тақ-туқ кадам товушлари, йўл-йўлакай кимлар биландир тиниқ, аниқ ҳол-аҳвол сўрашлари эшитилиб турарди-да. Она кабинетларига етиб келгунча қўшни таҳририятлар ёнидан ўтиб келардилар. Кўпчилик шоирага бир кўриниш бериб, сўрашиб олишни орзу қиларди. Узр сўраб, ўзларига, яна кимларгадир дастхатлар олишарди. Қўшниларимизнинг “Биз шоира Зулфия билан ҳар куни бир эмас, бир неча бор кўришамиз, бир коридорда ишлаймиз”, деб ғурурланишлар энди қайда?

Маош оладиган кунимиз ичимга чирок ёққандек бўлди. Қаранг, Опага одатдаги-

minaning elkasiga tushib qoldi. O‘h-ho‘-o‘... hayot ummonida shitob bilan suzib borayotgan kemani xuddi oldingidek boshqarishning o‘zi bo‘larkanmi? Halimaxon paydo bo‘lgan har bir savolda menga suyanadi, men esam salkam o‘n yil mobaynida Opadan, muovinlari Xolida Ahrorovadan olgan tajribalarimga...

O‘ylab qarasam, hatto Opa yuradigan ishonaning yo‘laklar ham huvillab qopti. Axir, har kuni soat to‘qqiz yarimga qarab, Opaning taq-tuq qadam tovushlari, yo‘l-yo‘lakay kimlar bilandir tiniq, aniq hol-ahvol so‘rashlari eshitilib turardi-da. Opa kabinetlariga etib kelguncha qo‘shni tahririyatlar yonidan o‘tib kelardilar. Ko‘pchilik shoiraga bir ko‘rinish berib, so‘rashib olishni orzu qilardi. Uzi so‘rab, o‘zlariga, yana kimlargadir dastxatlar olishardi. Qo‘shnilarimizning “Biz shoira Zulfiya bilan har kuni bir emas, bir necha bor ko‘rishamiz, bir koridorda ishlaymiz”, deb g‘ururlanishlar endi qayda?

Maosh oladigan kunimiz ichimga chiroq yoqqandek bo‘ldi. Qarang, Opaga odatdagidek



дек ойлик ёзилибди. Демак... севинганим-дан дарровда табель бўлимига кўнгирок килдим. Бўшатиш хакида хали буйруқ чиқмапти. Чиқмасин-а, Опани ишдан ҳечам бўшатишмасин-а. Бунақа дунё таниган Бош муҳаррирни қайдан топишади? Зулфия деса “Саодаг”, бутун республика хотин-қизлари киши кўз олдига келади. Аёллар учун Зулфия номи бир қалқон, зўр бир химоя... Мендаги кайфият бошқа ходимларга ҳам кўчди. “Ҳайрият, – деди Ҳалимахон ҳам енгил тортиб, – маошларини олиб бориб бермоқ керак. Бу ёқда кассир ҳам шошириб қолди, ведомостни топширишим керак, деб. Опани сўраб-суришгирсак Дўрмондаги дала ховлисида экан. Шаҳарда бўлсалар Ҳалимахоннинг ўзлари олиб чиқиб бермоқчи эдилар. Собиржон ака билан Дўрмонга қараб шамолдек учдик.

Опа кўз тушадиган томонга баргранг сурилма кўчма деворни хира қилиб, узум сўриси тагида ижод қилиб ўтирган эканлар. Бизни кўриб, тинчликми, дегандек хавотирли қарадилар. Мен дарровда мақсадга ўтиб,

oylik yozilibdi. Demak... sevinganimdan darrovda tabel bo'limiga qo'ng'iroq qildim. Bo'shatish haqida hali buyruq chiqmapti. Chiqmasin-a, Opani ishdan hecham bo'shatishmasin-a. Bunaqa dunyo tanigan Bosh muharrirni qaydan topishadi? Zulfiya desa "Saodat", butun respublika xotin-qizlari kishi ko'z oldiga keladi. Ayollar uchun Zulfiya nomi bir qalqon, zo'r bir himoya... Mendagi kayfiyat boshqa xodimlarga ham ko'chdi. "Hayriyat, – dedi Halimaxon ham yengil tortib, – maoshlarini olib borib bermoq kerak. Bu yoqda kassir ham shoshirib qoldi, vedomostni topshirishim kerak, deb. Opani so'rab-surishtirsak Do'rmondagi dala hovlisida ekan. Shaharda bo'lsalar Halimaxonning o'zlari olib chiqib bermoqchi edilar. Sobirjon aka bilan Do'rmonga qarab shamoldek uchdik.

Opa ko'z tushadigan tomonga bargrang surilma ko'chma devorni xira qilib, uzum so'risi tagida ijod qilib o'tirgan ekanlar. Bizni ko'rib, tinchlikmi, degandek xavotirli qaradilar. Men darrovda maqsadga o'tib, arizalariga qo'l

аризаларига кўл кўйишмаганини, маош ёзишганини айтиб, стол устига ведомость билан конвертдаги пулни кўйдим. Хаёлимда Опа, “шунақами”, деб бугунок ишга тушиб кетадигандек.

Опа менга ғалати қилиб қарадилар. Қарашларида гўё “Шунча ишлаб, ҳали ҳам мени билмас экансиз, укажон”, дегандек бир гинахонлик бэр эди. Опа маош билан қоғозни мен томон сурдилар-да:

– Қизиқсизлар, – дедилар Собиржон ака икковимизга қараб, – мен қандай қилиб ишга бормаи маош оламан-а, йўқ, қайтариб олиб кетинглар.

– Ахир бир умр ишлаб кўйгансиз-ку, Опа, нима қипти? – деди Собиржон ака ботирлик қилиб.

Опа ўринларидан туриб, конвертни ведомость билан ўраб, кўлимга тутқаздилар. Бу, жўнашинглар мумкин, деганлари эди. Хаёлимда Опа шундай йўлга чиққанларки, орқаларига қайрилиб қарагилари йўқ. Нимага бундай қилаётганларини ўзимча тахмин қиламан. Лекин бир қарорга кела олмайман.

qo'yishmaganini, maosh yozishganini aytib, stol ustiga vedomost bilan konvertdagi pulni qo'ydim. Xayolimda Opa, "shunaqami", deb bugunoq ishga tushib ketadigandek.

Opa menga g'alati qilib qaradilar. Qarashlarida go'yo "Shuncha ishlab, hali ham meni bilmas ekansiz, ukajon", degandek bir ginaxonlik bor edi. Opa maosh bilan qog'ozni men tomon surdilar-da:

– Qiziqsizlar, – dedilar Sobirjon aka ikkovimizga qarab, – men qanday qilib ishga bormay maosh olaman-a, yo'q, qaytarib olib ketinglar.

– Axir bir umr ishlab qo'ygansiz-ku, Opa, nima qipti? – dedi Sobirjon aka botirlik qilib.

Opa o'rinlaridan turib, konvertni vedomost bilan o'rab, qo'limga tutqazdilar. Bu, jo'nashinglar mumkin, deganlari edi. Xayolimda Opa shunday yo'lga chiqqanlarki, orqalariga qayrilib qaragilari yo'q. Nimaga bunday qilayotganlarini o'zimcha taxmin qilaman. Lekin bir qarorga kela olmayman. Tarvuzimiz qo'ltig'imizdan tushib, orqaga





Тарвузимиз кўлтиғимиздан тушиб, оркага қайтдик. Аммо икки ўртада Опанинг маоши сарсон бўлиб қолди. Бухгалтерия нимага пул ёздинг, деб табель бўлимини айблайди, у кадрлар бўлимини... кадрлар бўлими эса аризага бир оғиз “ҳа” ёки “йўқ” демаётган юқорини. Хуллас, юқори бир қарорга келгунча журнал Опанинг номидан чиқиб турадиган бўлди. Буни Опага келиб айтдим. “Модомики, шундай экан, унда материалларни ўқийман, суратларни кўраман, олиб келиб турасизлар, лекин ишхонага бормайман”, дедилар. Тез-тез Дўрмонга, Опанинг хузурига галма-галдан қатнай бошладик.

qaytdik. Ammo ikki o'rtada Opaning maoshi barson bo'lib qoldi. Buxgalteriya nimaga pul yozding, deb tabel bo'limini ayblaydi, u kadrlar bo'limini... kadrlar bo'limi esa arizaga bir og'iz "ha" yoki "yo'q" demayotgan yuqorini. Xullas, yuqori bir qarorga kelguncha jurnal Opaning nomidan chiqib turadigan bo'ldi. Buni Opaga kelib aytdim. "Modomiki, shunday ekan, unda materiallarni o'qiyman, suratlarni ko'raman, olib kelib turasizlar, lekin ishxonaga bormayman", dedilar. Tez-tez Do'rmonga, Opaning huzuriga galma-galdan qatnay boshladik.

## БИР ПУД ТУЗ

*Инсон у ёки бу жойда ўз ризқини териб юради. Лекин у ёки бу жойга эл бўлиб кетиши учун камида бир пуд туз ялаши кераклигини билармикан?*

Шундай кунларнинг бирида Қорақалпоғистоннинг Тўрткўлидан фаол мухбиримиз Раъно Романова тахририятга “Ишга келдим”, деб келиб қолди. Қорақалпоғистонга бориб келиш қийин бўлгани учун ходимларимиз топшириқларни кўпинча Раъно орқали битиришарди. Мақолалари кўн чиқарди. Энди ишга келдим, деяпти. Маълум бўлишича, Раъно Опа билан ёш ижодкорларнинг республика семинарида кўришган. Тўғрироғи, Раъно ўзини танитган. Семинарда Раънонинг “Биринчи ўқитувчи” деган ҳикояси яхши баҳо олган. Она ҳикояни “Саодат”нинг шу сонига қўйинглар”, деб Собиржон акадан бериб юборган эдилар. Эътибор қилсам, Опа Раънонинг фамилиясини одатдагидек “Романова” эмас, “Раҳмонова” қилиб ўз

## BIR PUD TUZ

*Inson u yoki bu joyda o'z rizqini terib yuradi. Lekin u yoki bu joyga el bo'lib ketish uchun kamida bir pud tuz yalashi kerakligini bilarmikan?*

Shunday kunlarning birida Qoraqalpog'istonning To'rtko'lidan faol muxbirimiz Ra'no Romanova tahririyatga "Ishga keldim", deb kelib qoldi. Qoraqalpog'istonga borib kelish qiyin bo'lgani uchun xodimlarimiz topshiriqlarni ko'pincha Ra'no orqali bitirishardi. Maqolalari ko'p chiqardi. Endi ishga keldim, deyapti. Ma'lum bo'lishicha, Ra'no Opa bilan yosh ijodkorlarning respublika seminarida ko'rishgan. To'g'rirog'i, Ra'no o'zini tanitgan. Seminarda Ra'noning "Birinchi o'qituvchi" degan hikoyasi yaxshi baho olgan. Opa hikoyani "Saodat"ning shu soniga qo'yinglar", deb Sobirjon akadan berib yuborgan edilar. E'tibor qilsam, Opa Ra'noning familiyasini odatdagidek "Romanova" emas, "Rahmonova" qilib o'z qo'llari



қўллари билан ўзгартириб қўйибдилар. Биз “Роман” деган исм ҳам бўлар эканми, деб ҳайрон бўлиб юрардик. Демак, Опа Раъно билан семинарда бу масалада гаплашганлар. Мана исм энди ўрнига тушибди.

Семинарда Опа Раънога “Чақирсак ишга келасизми, ўйлаб кўринг”, деган эканлар. Шу гап сабаб бўлиб, Раъно болаларини олиб шаҳарга кеворибди. Эскироқ бир ҳовлини сотиб олиб, жойлашибди ҳам. Опага навбатдаги кўлёмаларни олиб борганимда Раъно ҳақида гап очдим.

– Келдими, кизгина, келган бўлса жасорат қилибди, тезда ишга олинглар, менга у кизнинг ўта босиқлиги, гапни одамнинг кўзига қараб уқиб олиши ёққан эди. “Саодат”да шунақалар ишлаши керак ўзи. Факат насихат қилиб қўйинг. Тошкент катта шаҳар, одатда, бир киши бир юртга эл бўлиб кетиши учун бир пуд, бир пуд қанча бўлади, деб сўрадилар, “ўн олти кило”, дедим, ҳа, шунча туз ялаши керак бўлади, – дедилар.

Раънога насихат қилиб қўйишга эртасигаёк

bilan o'zgartirib qo'yibdilar. Biz "Roman" degan ism ham bo'lar ekanmi, deb hayron bo'lib yurardik. Demak, Opa Ra'no bilan seminarda bu masalada gaplashganlar. Mana ism endi o'rniga tushibdi.

Seminarda Opa Ra'noga "Chaqirsak ishga kelasizmi, o'ylab ko'ring", degan ekanlar. Shu gap sabab bo'lib, Ra'no bolalarini olib shaharga kevoribdi. Eskiroq bir hovlini sotib olib, joylashibdi ham. Opaga navbatdagi qo'lyozmalarni olib borganimda Ra'no haqida gap ochdim.

– Keldimi, qizgina, kelgan bo'lsa jasorat qilibdi, tezda ishga olinglar, menga u qizning o'ta bosiqligi, gapni odamning ko'ziga qarab uqib olishi yoqqan edi. "Saodat"da shunaqalar ishlashi kerak o'zi. Faqat nasihat qilib qo'ying. Toshkent katta shahar, odatda, bir kishi bir yurtga el bo'lib ketishi uchun bir pud, bir pud qancha bo'ladi, deb so'radilar, "o'n olti kilo", dedim, ha, shuncha tuz yalashi kerak bo'ladi,— dedilar.

Ra'noga nasihat qilib qo'yishga ertasigayoq

бахона топилди. Шоира Қутлибека Раҳимбоева Раънодан олдинроқ ишга келган эди. Раънонинг боғча қурилишидан ёзган навбатдаги мақоласини бир кўз ташлаб беринг, деб Қутлибекага берган эдим, чапараста қилиб ташлабди. Иккови ғижиллашиб турганининг устидан чиқиб қолдим. Раъно: “Қурувчилар сиз таҳрир қилгандек чиройли, шоирона гапларни қилмайди, уларнинг гап-сўзиям тераётган ғиштига ўхшаган бўлади, ҳа, лойнинг иси келиб туради, мақолам чиқмаса чиқмай қўя қолсин”, деди зарда билан. Шунда Қутлибека шоирона лутф қилиб: “Сизга Худо бўй берибди-ю ўй бермапти”, деди. Раъно Қутлибекага қараганда анча дароз эди. “Шунақа, – деди Раъно ҳам бўш келмай, – Худойим баъзиларга икковиниям бермайди”, деб узиб олди. Мен ўзимни тута олмай баралла кулиб юбордим-да: “Ҳисоб бир-унол”, дедим ва кизларга Опанинг бир пуд туз ҳақидаги гапларини айтиб бердим. “Ҳа, – деди Раъно, – мана, туз ялашни бошладик”, деб Қутлибекага қараб қўйди. Раънони ишга

bahona topildi. Shoira Qutlibeka Rahimboyeva Ra'nodan oldinroq ishga kelgan edi. Ra'noning bog'cha qurilishidan yozgan navbatdagi maqolasini bir ko'z tashlab bering, deb Qutlibekaga bergan edim, chaparasta qilib tashlabdi. Ikkovi g'ijillashib turganining ustidan chiqib qoldim. Ra'no: "Quruvchilar siz tahrir qilgandek chiroyli, shoirona gaplarni qilmaydi, ularning gap-so'ziam terayotgan g'ishtiga o'xshagan bo'ladi, ha, loyning isi kelib turadi, maqolam chiqmasa chiqmay qo'ya qolsin", dedi zarda bilan. Shunda Qutlibeka shoirona lutf qilib: "Sizga Xudo bo'y beribdi-yu o'y bermapti", dedi. Ra'no Qutlibekaga qaraganda ancha daroz edi. "Shunaqa, – dedi Ra'no ham bo'sh kelmay, – Xudoyim ba'zilarga ikkoviniyam bermaydi", deb uzib oldi. Men o'zimni tuta olmay baralla kulib yubordim-da: "Hisob bir-unol", dedim va qizlarga Opaning bir pud tuz haqidagi gaplarini aytib berdim. "Ha, – dedi Ra'no, – mana, tuz yalashni boshladik", deb Qutlibekaga qarab qo'ydi. Ra'noni ishga oldik.



олдик. Гувоҳномасига Собир ака билан  
Дўрмонга бориб, Опага қўл қўйдириб келди.  
Бу Опа имзолаган сўнгги гувоҳнома эди...



*Bir kuni Zulfiya opa...*

Guvohnomasiga Sobir aka bilan Do'rmonga borib, Opaga qo'l qo'ydirib keldi. Bu Opa imzolagan so'nggi guvohnoma edi...



## ОПА ҲАЛИ УЗОҚ ЯШАЙДИЛАР

*Инсон зоти қизиқ, тинимсиз бир нималарни ўйлайди, тахмин қилади ва ўзича “фалон” деб юборади. Кунлар ўтиб, Худонинг қудрати билан ўша “фалон” рост бўлиб чиқади.*

Хонада ишлаб ўтирсам Олимжон ака кириб: “Янги ходимингиз хафа кўринадилар”, деб қолди. Раъно унча-мунчага хафа бўладиган, хафа бўлса ҳам ичидагини сиртига чиқарадиган аёл эмас эди. Унинг юзкўзларидан қандайдир ички бир катъият, собитлик балкиб турарди. Ишхонадагилар билан фақат иш юзасидан гаплашарди. Шунинг учунми, Олимжон ака унинг ҳолатига эътибор қилганлар. У кишининг гапидан кейин беихтиёр Опа айтган “бир пуд туз”ни эсладим. Шаҳарда суянадиган одами йўқ, мусофир, пул-мулдан қийналиб қолгандир, деган ўйда Раънонинг хонасига кириб бордим. Қовоқлари бир оз шишган, ҳа, йиғлаган кўринарди. Шундай бўлса ҳам мени ўрнидан туриб, кулиб қарши олди.

## OPA HALI UZOQ YASHAYDILAR

*Inson zoti qiziq, tinimsiz bir nimalarni o‘ylaydi, taxmin qiladi va o‘zicha “falon” deb yuboradi. Kunlar o‘tib, Xudoning qudrati bilan o‘sha “falon” rost bo‘lib chiqadi.*

Xonada ishlab o‘tirsam Olimjon aka kirib: “Yangi xodimingiz xafa ko‘rinadilar”, deb qoldi. Ra‘no uncha-munchaga xafa bo‘ladigan, xafa bo‘lsa ham ichidagini sirtiga chiqaradigan ayol emas edi. Uning yuz-ko‘zlaridan qandaydir ichki bir qat‘iyat, sobitlik balqib turardi. Ishxonadagilar bilan faqat ish yuzasidan gaplashardi. Shuning uchunmi, Olimjon aka uning holatiga e‘tibor qilganlar. U kishining gapidan keyin beixtiyor Opa aytgan “bir pud tuz”ni esladim. Shaharda suyanadigan odami yo‘q, musofir, pul-muldan qiynalib qolgandir, degan o‘yda Ra‘noning xonasiga kirib bordim. Qovoqlari biroz shishgan, ha, yig‘lagan ko‘rinardi. Shunday bo‘lsa ham meni o‘rnidan turib, kulib qarshi oldi.

– Тинчликми, синглим, Олимжон аканинг кўзига сал бошқачароқ кўринибсиз, мен ҳам хавотир олдим, бирон муаммо бўлса айтовринг, тортинманг, – дедим.

– Опанинг аҳволи чаток, – деди у портлагудек бўлиб. У хоразмча шева кўшмасдан адабий тилда аниқ ва тиниқ гапирар, бу ёзган мақолаларида ҳам сезилиб турарди. Ҳа, гап бу ёқда эканда.

– Бордингизми, дўхтирлар ёнларига ҳеч кимни кўйишмаяпти дейишганди, сизни кўйишган бўлса, яхши бўлиб қолибдилар-да, илоҳим яхши бўлсинлар...

– Унчаликмас. Опа нимагадир мени кўришни хоҳлаган эканлар, ўзимам худди билгандек борибман...

– Хўш, хўш, Опа нималар дедилар, нималарни гаплашдинглар? – дея юрагим тошди.

– Ҳеч нима демадилар, оғизларига кислород тутиб кўйишибди, ниманиям гаплашиб бўларди. Кўз ила имо-ишора билан гаплашган бўлди. Шу ҳолда ҳам жилмайиб, мендан кўнгил сўраган бўлдилар. Сезиб

– Tinchlikmi, singlim, Olimjon akaning ko‘ziga sal boshqacharoq ko‘rinibsiz, men ham xavotir oldim, biron muammo bo‘lsa aytovring, tortinmang, – dedim.

– Opaning ahvoli chatoq, – dedi u portlagudek bo‘lib. U xorazmcha sheva qo‘shmasdan adabiy tilda aniq va tiniq gapirar, bu yozgan maqolalarida ham sezilib turardi. Ha, gap bu yoqda ekanda.

– Bordingizmi, do‘xtirlar yonlariga hech kimni qo‘yishmayapti deyishgandi, sizni qo‘yishgan bo‘lsa, yaxshi bo‘lib qolibdilar-da, ilohim yaxshi bo‘lsinlar...

– Unchalikmas. Opa nimagadir meni ko‘rishni xohlagan ekanlar, o‘zimum xuddi bilgandek boribman...

– Xo‘sh, xo‘sh, Opa nimalar dedilar, nimalarni gaplashdinglar? – deya yuragim toshdi.

– Hech nima demadilar, og‘izlariga kislorod tutib qo‘yishibdi, nimaniyam gaplashib bo‘lardi. Ko‘z ila imo-ishora bilan gaplashgan bo‘ldik. Shu holda ham jilmayib, mendan

турибман, сенгинани шундан-шунга ишга чақириб, қийнаб кўймадимми, демоқчилар. Мени сўраганлари ҳам шундан бўлса керак. Бўлмаса, мен у кишига нимаям қилиб бера олардим. Мен, ташвиш чекманг, Зулфия опа, ҳаммаси яхши, болаларни мактабга, боғчага жойладим, ўзимам ўрганиб қолдим, жамоа яхши қабул қилди, аллақачоноқ опа-сингил бўлиб кетдик, ишимдан хурсандман, дедим. Опа, мен ҳам хурсандман, дегандек бош қимирлатдилар. Қанчалик эзилмай, олдиларида ўзимни мардона тутишга ҳаракат қилдим. Опа мардона аёл, бошқаларни ҳам мардона кўришни хошлашини тушунаман. Лекин Опани охирги марта кўраётгандек ичимдан тўкилиб ётибман. Дўхтирлар, чиқаколинг, деган ишорани қилишди. Опа ҳам киприк қоқиб хайрлашган бўлдилар. Энгашиб, Опанинг кўлини лабимга босдим. Оҳ... кўллари музлаб бўлибди. Ҳа, мен бир олов, Опанинг кўллари муз. Қани энди мендаги олов Опага ўтса-ю, мен музлаб қўя қолсам, афсуски, бунинг ҳечам иложи йўқ.

ko'ngil so'ragan bo'ldilar. Sezib turibman, senginani shundan-shunga ishga chaqirib, qiynab qo'ymadimmi, demoqchilar. Meni so'raganlari ham shundan bo'lsa kerak. Bo'lmasa, men u kishiga nimayam qilib bera olardim. Men, tashvish chekmang, Zulfiya opa, hammasi yaxshi, bolalarni maktabga, bog'chaga joyladim, o'zimam o'rganib qoldim, jamoa yaxshi qabul qildi, allaqachon oq opa-singil bo'lib ketdik, ishimdan xursandman, dedim. Opa, men ham xursandman, degandek bosh qimirlatdilar. Qanchalik ezilmay, oldilarida o'zimni mardona tutishga harakat qildim. Opa mardona ayol, boshqalarni ham mardona ko'rishni xohlashini tushunaman. Lekin Opani oxirgi marta ko'rayotgandek ichimdan to'kilib yotibman. Do'xtirlar, chiqaqoling, degan ishorani qilishdi. Opa ham kiprik qoqib xayrlashgan bo'ldilar. Engashib, Opaning qo'lini labimga bosdim. Oh... qo'llari muzlab bo'libdi. Ha, men bir olov, Opaning qo'llari muz. Qani endi mendagi olov Opaga o'tsa-yu, men muzlab qo'ya qolsam, afsuski, buning hecham iloji yo'q.





Мен Раънода кечган бу ҳолатни нафақат унда, балки барча шогирдларида, яқинларида, айна пайтда ўзимда ҳам кўриб тургандек бўлардим. Ҳа, ҳаммамиз Опага юрак-юракдан меҳр қўйган, жонимизни беришга тайёр эдик.

Камина Опанинг эмандек қаддини букмоқчи бўлган баъзи нарсаларни вақти келиб энди тушунгандек бўлардим. Ўшанда одамлар “Ўтмишга тўппончадан ўқ узсанг, келажак сени тўпдан ўққа тутуди”, деган нақлни билишса ҳам, уни эсдан чиқариб қўйишган эди. Улар, ҳатто ҳаётда яшаб ўтиб кетган, улуғ, таниқли инсонлар номини қорага чиқаришар, борларини эса “қизил империянинг малайлари” деб кўзини очиришмасди. Ким ўтмишни кўпроқ, хўпроқ ёмонласа, тупроққа қориштира, “Ёв қочса ботир кўпаяр”, деганларидек, ўша “қахрамон” эди. “Қахрамон”лар ўзларига тарафкаш қидиришар, сукут сақлаганларни ўтмишни қўмсашда айблашарди. Опанинг номи ҳам шулар қатори тилга олиниб, матбуотда чиқиб қолди. Ана шу сув лойқалатишлар Опани йиқитган эди.

Men Ra'noda kechgan bu holatni nafaqat unda, balki barcha shogirdlarida, yaqinlarida, ayni paytda o'zimdada ham ko'rib turgandek bo'lardim. Ha, hammamiz Opaga yurak-yurakdan mehr qo'ygan, jonimizni berishga tayyor edik.

Kamina Opaning emandek qaddini bukmochi bo'lgan ba'zi narsalarni vaqti kelib endi tushungandek bo'lardim. O'shanda odamlar "O'tmishga to'pponchadan o'q uzsang, kelajak seni to'pdan o'qqa tutadi", degan naqlni bilishsa ham, uni esdan chiqarib qo'yishgan edi. Ular, hatto hayotda yashab o'tib ketgan, ulug', taniqli insonlar nomini qoraga chiqarishar, borlarini esa "qizil imperiyaning malaylari" deb ko'zini ochirishmasdi. Kim o'tmishni ko'proq, xo'proq yomonlasa, tuproqqa qorishtirsa, "Yov qochsa botir ko'payar", deganlaridek, o'sha "qahramon" edi. "Qahramon"lar o'zlariga tarafkash qidirishar, sukut saqlaganlarni o'tmishni qo'msashda ayblashardi. Opaning nomi ham shular qatori tilga olinib, matbuotda

Мен Раънони ҳам, ўзимни ҳам хотиржам қилиш учун ишонч билан шу гапларни айтдим:

– Мени айтди дейсиз, Опа ўлмайдилар, у киши ҳали кўп яшайдилар, сувлар тиниб, ҳаммаёқ тинчиб, ҳаёт ўз ўзанига тушиб кетганларини ўз кўзлари билан кўрадилар. Ҳа, кўнглим сезиб турибди, Худо хоҳласа шундай бўлади, синглим.

Ҳозиргина стационардан келган Раъно учун бу гапларим, худди кароматдек туюлиб кетди. “Илоҳа айтганингиз келсин” дегандек менга “ярқ” этиб каради. Ишонч билан бундай дейишимга асосларим, айрим мулоҳазаларим ҳам бор эди. Ўша пайтларда ўзбек матбаачилигининг отахонларидан бири, “Шарқ” аталмиш улкан нашриётнинг Бош директори (жойлари жаннатдан бўлсин) Ислом Шоғуломов Қримга дам олгани бориб, юрак хуружига учраб қолган эди. Ҳа, ҳаётлари қил устида экан. Гўё Ислом ака ўша ёқларда бир умр қолиб кетадигандек. Бир куни нашриёт ошхонасида тушлик қилиб ўтириб,

chiqib qoldi. Ana shu suv loyqalatishlar Opani yiqitgan edi.

Men Ra'noni ham, o'zimni ham xotirjam qilish uchun ishonch bilan shu gaplarni aytdim:

– Meni aytdi deysiz, Opa o'lmaydilar, u kishi hali ko'p yashaydilar, suvlar tinib, hammayoq tinchib, hayot o'z o'zaniga tushib ketganlarini o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Ha, ko'nglim sezib turibdi, Xudo xohlasa shunday bo'ladi, singlim.

Hozirgina statsionardan kelgan Ra'no uchun bu gaplarim, xuddi karomatdek tuyulib ketdi. “Iloha aytganingiz kelsin” degandek menga “yarq” etib qaradi. Ishonch bilan bunday deyishimga asoslarim, ayrim mulohazalarim ham bor edi. O'sha paytlarda o'zbek matbaachiligining otaxonlaridan biri, “Sharq” atalmish ulkan nashriyotning Bosh direktori (joylari jannatdan bo'lsin) Islom Shog'ulomov Qrimga dam olgani borib, yurak xurujiga uchrab qolgan edi. Ha, hayotlari qil ustida ekan. Go'yo Islom aka o'sha yoqlarda bir umr qolib ketadigandek. Bir kuni

шу ҳақда гап бўлиб қолди. Баъзилар Ислом акани “ўлдига, ўчдига” чиқариб қўйишди. Яна кимлар денг, Ислом акани яқин олиб, соясига кўрпача солиб юрадиганлар. “Йўқ, – дедим мен, уларга эътироз билдириб, – у киши ўлмайди, босмахона даромадидан қанчадан-қанча уйлар қуриб, ёзувчи, шоир, журналистлар, босмахона ходимларини уйли-жойли қилдилар, шундай одам ўлиши мумкинми, ўшаларнинг дуоси билан яшайдилар ва ишларига қайтадилар”. Дарҳақиқат, кейинчалик шундай бўлди. Ислом ака ўша воқеадан кейин яна кўп йиллар “Шарқ”ни бошқардилар. Мен бу воқеани Раънога айтиб бердим-да, яна қўшимча қилдим:

– Ўзингиз ўйлаб кўринг, бир умр ҳалол ва пок яшаб, вафо ва садоқат рамзига айланган Зулфия опадек инсон шу талотўп замонида ўлиб кетадими, йўқ-йўқ, ўлмайдилар, одамларнинг дуоси билан ҳали узоқ яшайдилар. Ахир, одамлар оёғи билан эмас, оғзи билан юриб турган шу кунларда сукут сақлашнинг ўзи ҳам қаҳрамонлик-ку.

nashriyot oshxonasida tushlik qilib o'tirib, shu haqda gap bo'lib qoldi. Ba'zilar Islom akani "o'ldiga, o'chdiga" chiqarib qo'yishdi. Yana kimlar deng, Islom akani yaqin olib, soyasiga ko'rpacha solib yuradiganlar. "Yo'q, – dedim men, ularga e'tiroz bildirib, – u kishi o'lmaydi, bosmaxona daromadidan qanchadan-qancha uylar qurib, yozuvchi, shoir, jurnalistlar, bosmaxona xodimlarini uyli-joyli qildilar, shunday odam o'lishi mumkinmi, o'shalarning duosi bilan yashaydilar va ishlariga qaytadilar". Darhaqiqat, keyinchalik shunday bo'ldi. Islom aka o'sha voqeadan keyin yana ko'p yillar "Sharq"ni boshqardilar. Men bu voqeani Ra'noga aytib berdim-da, yana qo'shimcha qildim:

– O'zingiz o'ylab ko'ring, bir umr halol va pok yashab, vafu va sadoqat ramziga aylangan Zulfiya opadek inson shu taloto'p zamoni-da o'lib ketadimi, yo'q-yo'q, o'lmaydilar, odamlarning duosi bilan hali uzoq yashaydilar. Axir, odamlar oyog'i bilan emas, og'zi bilan yurib turgan shu kunlarda sukut saqlashning



– Кўнглимни тоғдек кўтардингиз, ер бети кенг, унга шунча одам сиққан, Опа ҳам сиғиб юрсинлар, – деб Раънонинг юзида умид учкунлари чакнади.

Дарҳақиқат, шундай бўлди. Опа хурлик, Мустақиллигимизга бағишлаб тўлиб-тошиб шеърлар битдилар, китоблар чоп этдилар. Кўксиларини Ватанимизнинг олий даражадаги орденлари безади.



o'zi ham qahramonlik-ku.

– Ko'nglimni tog'dek ko'tardingiz, er beti keng, unga shuncha odam siqqan, Opa ham sig'ib yursinlar, – deb Ra'noning yuzida umid uchqunlari chaqnadi.

Darhaqiqat, shunday bo'ldi. Opa hurlik, Mustaqilligimizga bag'ishlab to'lib-toshib she'rlar bitdilar, kitoblar chop etdilar. Ko'ksilarini Vatanimizning oliy darajadagi ordenlari bezadi.





## ХОЛИДА ОПА

*Ишхона ҳам ошладек гап. Кўпинча фарзандлар ота-оналари ўтиб кетгандан кейин уларга зор бўлиб қолишади, соғинишади. Ишхоналар ҳам шундай, кекса ходимлар нафақага чиққанларидан кейин уларни эслашади, соғинишади. Ахир, қари билганни пари ҳам билмайди-да.*

Бир куни Холида опа ишга қайтмасми-канлар, деган ўй кўнглимдан кечди. “Битта бўлса ҳам ортиқ кўйлак йиртган” деганларидек опаларга мухтожлик сезардик. Лекин кўнглимдан кечганини Ҳалимахонга айтмадим. Олдин Холида опанинг олдидан ўтай, кейин. Кўнғироқ килиб, у кишини уйлари-дан топа олмадим. Ойимлар ҳар куни эрта кетиб, кеч қайтадилар, деб қолди келинлари. Демак, биздан кетиб бирор жойга ишга жойлашибдилар-да, шошмасалар ҳам бўларди. Шунақа, меҳнатқаш, кўпни кўрган одамларнинг ҳаминиша бозори чаккон бўлади. Кечкурун кўнғироқ килиб, маслаҳатли иш

## XOLIDA OPA

*Ishxona ham oiladek gap. Ko'pincha farzandlar ota-onalari o'tib ketgandan keyin ularga zor bo'lib qolishadi, sog'inishadi. Ishxonalar ham shunday, keksa xodimlar nafaqaga chiqqanlaridan keyin ularni eslashadi, sog'inishadi. Axir, qari bilganni pari ham bilmaydi-da.*

Bir kuni Xolida opa ishga qaytmasmikanlar, degan o'y ko'nglimdan kechdi. "Bitta bo'lsa ham ortiq ko'ylak yirtgan" deganlaridek opalarga muhtojlik sezardik. Lekin ko'nglimdan kechganini Halimaxonga aytmadim. Oldin Xolida opaning oldidan o'tay, keyin. Qo'ng'iroq qilib, u kishini uylaridan topa olmadim. Oyimlar har kuni erta ketib, kech qaytadilar, deb qoldi kelinlari. Demak, bizdan ketib, biror joyga ishga joylashibdilar-da, shoshmasalar ham bo'lardi. Shunaqa, mehnatkash, ko'pni ko'rgan odamlarning hamisha bozori chaqqon bo'ladi. Kechqurun qo'ng'iroq qilib, maslahatli ish bor edi, sizni qayerdan

бор эди, сизни каердан топсам бўлади, десам, учрашиш учун ишхонамизга якин бўлган метро бекатини тайин қилдилар.

Учрашдик. Маълум бўлишича, давр тако-зоси билан муҳрлаб ташланган архив эшиккла-ри ланг очилибди. Қатағонга учраган оталари Саид Ахрорий ва у кишининг сафдошлари Чўлпон, Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлоний ҳақидаги хужжатларни ўрганаётган эканлар. Бу катга, савобли иш олдида менинг такли-фим жуда заиф туюлди. Айтсамми, айтма-самми, деб иккиланиб қолдим. Охири Холида она менга “Энди гаширинг, нима гал?” деган-дек қарадилар.

– Жуда катта савобли ишларни бошлаб қўйибсиз, нима дейишга ҳам хайронман, – дедим.

– Таржима қиладиган иш бормиди? – де-дилар. У киши Лев Толстойнинг “Анна Каренина” романини русчадан қойиллатиб ўзбекчага таржима қилиб қўйган, баъзан тахририятларнинг илтимоси билан энг яхши ҳикояларни ҳам русчадан ўзбекчага ўгириб турардилар.

topsam bo'ladi, desam, uchrashish uchun ishxonamizga yaqin bo'lgan metro bekatini tayin qildilar.

Uchrashdik. Ma'lum bo'lishicha, davr taqozosi bilan muhrlab tashlangan arxiv eshiklari lang ochilibdi. Qatag'onga uchragan otalari Said Ahroriy va u kishining safdoshlari Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy haqidagi hujjatlarni o'rganayotgan ekanlar. Bu katta, savobli ish oldida mening taklifim juda zaif tuyuldi. Aytsammi, aytmasammi, deb ikkilanib qoldim. Oxiri Xolida opa menga "Endi gapiring, nima gap?" degandek qaradilar.

– Juda katta savobli ishlarni boshlab qo'yibsiz, nima deyishga ham hayronman, – dedim.

– Tarjima qiladigan ish bormidi? – dedilar. U kishi Lev Tolstoyning "Anna Karenina" romanini ruschadan qoyillatib o'zbekchaga tarjima qilib qo'ygan, ba'zan tahririyatlarning iltimosi bilan eng yaxshi hikoyalarni ham ruschadan o'zbekchaga o'girib turardilar.

– Йўқ опа, ишга қайтармикансиз, деган умидда... – дедим чайналиб.

Холида опа “ха-а-а”... дея бир яйраб кулдилар-да:

– Ташаккур, ха, минг бор ташаккур, укажон, лекин бизнинг бозоримиз энди ўтди, ха, ўтди, эсни борида этакни йиғиштирган яхши, бу менинг гапиммас, Зулфия опанинг гаплари, – дедилар.



– Yo‘q opa, ishga qaytarmikansiz, degan umidda... – dedim chaynalib.

Xolida opa “ha-a-a”... deya bir yayrab kuldilar-da:

– Tashakkur, ha, ming bor tashakkur, ukajon, lekin bizning bozorimiz endi o‘tdi, ha, o‘tdi, esni borida etakni yig‘ishtirgan yaxshi, bu mening gapimmas, Zulfiya opaning gaplari, – dedilar.



## ОРАДАН ЙИЛЛАР ЎТИБ...

Зулфия опа таваллудининг 100 йилликлари муносабати билан ҳукуратимизнинг қарори эълон қилинган кунларда кўлимга бир ён дафтар тушиб қолди. Унинг сиртига “IX съезд писателей Узбекистана” деб ёзиб қўйилибди. Шундан билингки, у пайтларда ҳамма тадбирлар, таклиф қоғозларидан тортиб, кун тартибларигача русча ёзиларди. Ён дафтарга шундай деб ёзибман:

“Съезд президиумига Зулфия, Ҳалима Худойбердиева, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Омон Матчон, Асқад Мухтор, Сарвар Азимовларнинг номзодлари кўрсатилганда гулдурас қарсақлар бўлиб турди, ажабо, президиумга 48 кишининг номзоди кўрсатилган эди-ку. Бошқаларга қарсақ қани?” Яна ёзибман: “Зулфия опа ҳар қачонгидек бу мажлисда ҳам нурланиб, яйраб, яшнаб ўтирдилар. Абдулла Орипов билан ширин, қиска-қиска суҳбат қуришди. Мен Опани қушдек енгил кўрардим. Назаримда елкаларидан журнал масъулият тушган.

## ORADAN YILLAR O‘TIB...

Zulfiya opa tavalludining 100 yilliklari munosabati bilan hukumatimizning qarori e‘lon qilingan kunlarda qo‘limga bir yon daftar tushib qoldi. Uning sirtiga “IX съезд писателей Узбекистана” deb yozib qo‘yilibdi. Shundan bilingki, u paytlarda hamma tadbirlar, taklif qog‘ozlaridan tortib, kun tartiblarigacha ruscha yozilardi. Yon daftarga shunday deb yozibman:

“Syezd prezidiumiga Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Asqad Muxtor, Sarvar Azimovlarning nomzodlari ko‘rsatilganda gulduros qarsaklar bo‘lib turdi, ajabo, prezidiumga 48 kishining nomzodi ko‘rsatilgan edi-ku. Boshqalarga qarsak qani?” Yana yozibman: “Zulfiya opa har qachongidek bu majlisda ham nurlanib, yayrab, yashnab o‘tirdilar. Abdulla Oripov bilan shirin, qisqa-qisqa suhbat qurishdi. Men Opani qushdek yengil ko‘rardim. Nazarimda



Ўз вазифасига, ишига жиддий қарайдиган одамлар ўзи шунақа бўлади. Ҳозир Опанинг зиммасида битта ширин ташвиш бор, у ҳам бўлса – ижод! Эҳ, Опа нимага ўн йил олдин нафақага чиқмадингиз-а? Эркинлик сизга жудаям ярашар экан. Мен нодон ишдан кетганингизга хафа бўлиб юрибман-а. Янги-янги асарлар ёзилаётгандир, ҳали яна кўп ёзилса керак. Ахир насиб-насиба деган нарсалар бор. Инсоннинг бу дунёдан насибаси узил-маса, кўп яшайди. Ишқилиб, кўп яшанг. Сиз кўпқиррали, кўп яшайдиган инсонлар тоифасидансиз”...

Ўзбекистон ёзувчиларининг тўққизинчи съездида ўтириб, Опа билан хаёлан гаплашганларим шулар экан. Афсус, кўпроқ ёзмайманми, Опани бутун съезд бўйи кузатмайманми? Сўзга чиқдиларми? Бу ҳақда ҳам ёзмабман. Шунақа, олдиндан оққан сувнинг кадри йўқ. Кейинги пушаймон – ўзингга душман, дейдилар. Душманлиги шундаки, армонда қолиб, ич-этингни сўйсан киши. Умр бу вақт, фурсат дегани, унга эса қилинган ишларга қараб баҳо берилади. Вақтнинг бо-

yelkalaridan jurnal mas'uliyat tushgan. O'z vazifasiga, ishiga jiddiy qaraydigan odamlar o'zi shunaqa bo'ladi. Hozir Opaning zimmasida bitta shirin tashvish bor, u ham bo'lsa – ijod! Eh, Opa nimaga o'n yil oldin nafaqaga chiqmadingiz-a? Erkinlik sizga judayam yarashar ekan. Men nodon ishdan ketganingizga xafa bo'lib yuribman-a. Yangi-yangi asarlar yozilayotgandir, hali yana ko'p yozilsa kerak. Axir nasib-nasiba degan narsalar bor. Insonning bu dunyodan nasibasi uzilmasa, ko'p yashaydi. Ishqilib, ko'p yashang. Siz ko'pqirrali, ko'p yashaydigan insonlar toifasidansiz”...

O'zbekiston yozuvchilarining to'qqizinchi syezdida o'tirib, Opa bilan xayolan gaplashganlarim shular ekan. Afsus, ko'proq yozmaymanmi, Opani butun syezd bo'yi kuzatmaymanmi? So'zga chiqdilarmi? Bu haqda ham yozmabman. Shunaqa, oldingdan oqqan suvning qadri yo'q. Keyingi pushaymon – o'zingga dushman, deydilar. Dushmanligi shundaki, armonda qolib, ich-etingni eysan

зори йўқ сотиб олай десанг, афсуски, мазори бор. У беҳуда ўтган ҳар бир дақиқа, ҳар бир он. Одам зоти бир соатим, бир куним, бир ойим ёки бир йилим шунчаки ўтди, деб эмас, умримдан шунчаси ўчди, ўлди, имконимдан кетди, энди у қайта тирилмайди, тирилтириш қўлимдан келмайди, қолганига ҳушёр бўлай, деб яшаши керак. Хаёлимда барча улуғлар, шулар қатори Зулфия опа ҳам шу мезонда яшаб ўтгандек.



kishi. Umr bu vaqt, fursat degani, unga esa qilingan ishlarga qarab baho beriladi. Vaqtning bozori yo‘q sotib olay desang, afsuski, mozori bor. U behuda o‘tgan har bir daqiqa, har bir on. Odam zoti bir soatim, bir kunim, bir oyim yoki bir yilim shunchaki o‘tdi, deb emas, umrimdan shunchasi o‘chdi, o‘ldi, imkonimdan ketdi, endi u qayta tirilmaydi, tiriltirish qo‘limdan kelmaydi, qolganiga hushyor bo‘lay, deb yashashi kerak. Xayolimda barcha ulug‘lar, shular qatori Zulfiya opa ham shu mezonda yashab o‘tgandek.





## ЙИЛЛАР ЎТИБ, ЯНА БИР ВОҚЕА...

Тошкентдаги Санъат музейи биносига туташ Зулфия хиёбони бор. Хиёбонга опанинг ҳайкали ўрнатилган. Худди тирикдек ўтирибдилар. Қадимда бу жой мазор бўлган. “Қардошлик қабристони” деб аталарди. Сабаби, бу ерга турли миллат вакиллари дафн этилаверган. У ерда таниқли кишилар катори Ҳамид Олимжоннинг ҳам қабри бўлиб, устига бюсти ўрнатилган эди. Қишин-ёзин пойидан гул аримас, гулларнинг эгаси ким экани ҳам маълум эди...

Бир куни Опа қандайдир йиғилишдан хурсанд бўлиб қайтдилар. Кўнглимдан “Саодат” ҳақида гап бўлгану, ҳойнаҳой, мақтов эшитганмиз, деган ўй кечди. Ундай эмас экан, Холида опага хоналарига кирмаёқ, қабулхонада гапираётганларида эшитиб қолдим. Опа: “Мабодо ўша кун келиб, оламдан ўтсам, Ҳамид Олимжоннинг ёнига кўйинглар”, деган гапни энг каттага айтиб олибдилар. “Шундан кейин бир енгил тортдим, денг, Холидахон”, деб кўшиб кўйдилар Опа.

## **YILLAR O‘TIB, YANA BIR VOQEA...**

Toshkentdagi San‘at muzeyi binosiga tutash Zulfiya xiyoboni bor. Xiyobonga opaning haykali o‘rnatilgan. Xuddi tirikdek o‘tiribdilar. Qadimda bu joy mozor bo‘lgan. “Qardoshlik qabristoni” deb atalardi. Sababi, bu yerga turli millat vakillari dafn etilavergan. U yerda taniqli kishilar qatori Hamid Olimjonning ham qabri bo‘lib, ustiga byusti o‘rnatilgan edi. Qishin-yozin poyidan gul arimas, gullarning egasi kim ekani ham ma‘lum edi...

Bir kuni Opa qandaydir yig‘ilishdan xursand bo‘lib qaytdilar. Ko‘nglimdan “Saodat” haqida gap bo‘lgan-u, hoynahoy, maqtov eshitganmiz, degan o‘y kechdi. Unday emas ekan, Xolida opaga xonalariga kirmayoq, qabulxonada gapirayotganlarida eshitib qoldim. Opa: “Mabodo o‘sha kun kelib, olamdan o‘tsam, Hamid Olimjonning yoniga qo‘yinglar”, degan gapni eng kattaga aytib olibdilar. “Shundan keyin bir yengil tortdim, deng, Xolidaxon”, deb qo‘shib qo‘ydilar Opa.

Бу Ҳамид Олимжондан кейин қирқ йил ўтиб бўлаётган гаплар эди. Қирқ йил-а... Балки бу Опа учун қирқ минг йил кабидир, балки қирқ сония, балки Зулфия учун Ҳамид Олимжон ўлмагандир. Она ер бағри навбатдаги висол – учрашув жойидир. Опа шуларни янаям пухталаб олмокчи бўлганлар. Шунинг учун ҳам шод ва хуррам кўрингандилар. Нақадар пок ва накадар илоҳий муҳаббат бу...

Ҳаёт деганлари вақт ўтиши билан ўзини-ўзи таҳрир қилиб, ўзгартириб боради. Шундай бўлдики, “Қардошлик қабристони” бузилди. У ердаги улуғ кишиларнинг хоки “Чиғатой” қабристонига кўчирилди. Шулар қатори Ҳамид Олимжоннинг ҳам. Бу пайтда Опа ҳаёт эдилар. Энди гуллар “Чиғатой”га қараб йўл оларди. Энг ҳайратланарлиси, Ҳамид Олимжон илк марта дафн этилган ва Опа “ўша кун келиб”... деган жой Зулфия хиёбонига айланган эди... Опа ором курсида ўтириб, гўё шеър ўқиётгандек ёки шогирдларидан шеър тинглаётгандек. Мен ҳар сафар хиёбонга борганимда ёки унинг ёнидан ўтганимда ҳаётимда кечган бир тушни эслайман.

Bu Hamid Olimjondan keyin qirq yil o'tib bo'layotgan gaplar edi. Qirq yil-a... Balki bu Opa uchun qirq ming yil kabidir, balki qirq soniya, balki Zulfiya uchun Hamid Olimjon o'lmagandir. Ona yer bag'ri navbatdagi visol -- uchrashuv joyidir. Opa shularni yanayam puxtalab olmoqchi bo'lganlar. Shuning uchun ham shod va hurram ko'ringandilar. Naqadar pok va naqadar ilohiy muhabbat bu...

Hayot deganlari vaqt o'tishi bilan o'zini-o'zi tahrir qilib, o'zgartirib boradi. Shunday bo'ldiki, "Qardoshlik qabristoni" buzildi. U yerdagi ulug' kishilarning hoki "Chig'atoy" qabristoniga ko'chirildi. Shular qatori Hamid Olimjonning ham. Bu paytda Opa hayot edilar. Endi gullar "Chig'atoy"ga qarab yo'l olardi. Eng hayratlanarlisi, Hamid Olimjon ilk marta dafn etilgan va Opa "o'sha kun kelib"... degan joy Zulfiya xiyoboniga aylangan edi... Opa orom kursida o'tirib, go'yo she'r o'qiyotgandek yoki shogirdlaridan she'r tinglayotgandek. Men har safar xiyobonga borganimda yoki uning yonidan o'tganimda hayotimda kechgan bir tushni eslayman.



## ТУШ

Кун чиқишига кўндаланг тушган каттагина уй эмиш. Опа эшикдан киришдаги ўнг кўл тарафдаги курсида ўтирганмишлар. Лекин курси оддий курсимас, жуда маҳобатли нақшинкормиш. (Кейинчалик Зулфия хиёбонидаги ёдгорликни кўрганимда беихтиёр тушимни эслаган эдим. У киши худди шунака кўринишда ўтирардилар.) Опа жуда банд, ўйчан, хатто менинг кирганимни ҳам пайкамадилар. Мен отахон газетанинг масъул котиби Эркин Хўжаев билан келган, у Опадан интервью олмоқчи бўлиб, кўшни хонада кутиб ўтирарди. Эркин илгари ҳам Опа билан учрашган, бир вақтлар Москвага ёшлар съездига Ўзбекистондан вакил бўлиб борган Опанинг акаси ҳақида мақола ёзган эди. Энди Опанинг ўзлари ҳақида ёзмоқчи экан. Опанинг эътиборини тортиш учун хонанинг тўрига қараб юрдим. У киши кўзларини бир нуктага тикканича қимр этмасдилар. Нима экан у Опанинг эътиборини тортган, деб ўша тарафга қарасам, хонанинг бурчагини ис бо-

## TUSH

Kun chiqishiga ko'ndalang tushgan kattagina uy emish. Opa eshikdan kirishdagi o'ng qo'l tarafdagi kursida o'tirganmishlar. Lekin kursi oddiy kursimas, juda mahobatli naqshinkormish. (Keyinchalik Zulfiya xiyobonidagi yodgorlikni ko'rganimda beixtiyor tushimni eslagan edim. U kishi xuddi shunaqa ko'rinishda o'tirardilar.) Opa juda band, o'ychan, hatto mening kirganimni ham payqamadilar. Men otaxon gazetaning mas'ul kotibi Erkin Ho'jayev bilan kelgan, u Opadan intervyu olmoqchi bo'lib, qo'shni xonada kutib o'tirardi. Erkin ilgari ham Opa bilan uchrashgan, bir vaqtlar Moskvaga yoshlar syezdiga O'zbekistondan vakil bo'lib borgan Opaning akasi haqida maqola yozgan edi. Endi Opaning o'zlari haqida yozmoqchi ekan. Opaning e'tiborini tortish uchun xonaning to'riga qarab yurdim. U kishi ko'zlarini bir nuqtaga tikkanicha qimr etmasdilar. Nima ekan u Opaning e'tiborini tortgan, deb o'sha tarafga



сибди. Ҳа, ҳа, ис! Ис бу жинларнинг уйи, уни жинлар қўяди, жинларни қувиб чиқариш учун “Ёсин”ни ўқиш керак, дейман ўзимга ўзим. Шу пайт Опа кўнглимдан ўтганини сезгандек, “Ёсин”ни ўқинг, деб қолдилар. “Ёсин” сурасини баралла ўқиб туриб уйғониб кетдим...

Ўшанда Опа бетоб, Ҳамид Олимжон билан яшаган ҳовлида эдилар. Тушимдан фол олиб, эрта сахар бориб, “Ёсин”ни ўқиб қўймоқчи бўлдим. Мен ҳамон тушнинг таъсирида эдим. Борсам, хали кўчалар жимжит. Ҳамма уйкудага ўхшарди. Эшикни тақиллатишга иймандим. Хўш, келинг, дейишса нима дейман. Шунака-шунака туш кўрдим, дейманми? Балки Опанинг аҳволи яхши бўлиб қолгандир. Тушга биров ишонади, биров ишонмайди. Оркамга қайтиб кетдим, лекин Опанинг “Ёсин”ни ўқинг”, деган сўзлари қулоғим тагидан нари кетмасди. Соатни ўн – ўн бирлар қилиб яна бордим. Дарвозани нотаниш бир аёл очди. Қариндошлари бўлса керак. Унинг юз-кўзларидан ҳолат ташвишли экани сезилди. Мен Опа рози бўлсалар

qarasam, xonaning burchagini is bosibdi. Ha, ha, is! Is bu jinlarning uyi, uni jinlar qo'yadi, jinlarni quvib chiqarish uchun "Yosin"ni o'qish kerak, deyman o'zimga o'zim. Shu payt Opa ko'nglimdan o'tganini sezgandek, "Yosin"ni o'qing, deb qoldilar. "Yosin" surasini baralla o'qib turib uyg'onib ketdim...

O'shanda Opa betob, Hamid Olimjon bilan yashagan hovlida edilar. Tushimdan fol olib, erta sahar borib, "Yosin"ni o'qib qo'ymoqchi bo'ldim. Men hamon tushning ta'sirida edim. Borsam, hali ko'chalar jimjit. Hamma uyqudaga o'xshardi. Eshikni taqillatishga iymandim. Xo'sh, keling, deyishsa nima deyman. Shunaqa-shunaqa tush ko'rdim, deymanmi? Balki Opaning ahvoli yaxshi bo'lib qolgandir. Tushga birov ishonadi, birov ishonmaydi. Orqamga qaytib ketdim, lekin Opaning "Yosin"ni o'qing", degan so'zlari qulog'im tagidan nari ketmasdi. Soatni o'n - o'n birlar qilib yana bordim. Darvozani notanish bir ayol ochdi. Qarindoshlari bo'lsa kerak. Uning yuz-ko'zlaridan holat tashvishli



“Ёсин”ни ўқиб қўймоқчилигимни айтдим. Аёл ётиб қолган беморларга “Ёсин” ўқилишини тушунар экан. “Вой, жуда яхши бўлади, мен ҳозир”, деганича ичкари кириб кетди.

Бир оздан кейн Риояхон чикдилар-да, узрини айтиб, Опа ёнларига дўхтирдан бошка ҳеч кимни қўймасликни тайинлаганини айтди, орқадан чиқиб келган Хулқар ҳам бош қимирлатиб, Риояхоннинг гапини тасдиқлади. Худо шифо берсин, деб орқага қайтишдан бошка иложим қолмади. Аммо ишхонага келиб, “Ёсин”ни ўқиб, шифо тилаб, Опага бағишладим. Ўшанда, Опанинг хоналарига киришим шарт эмас, қўшни хонада ўқисам ҳам бўлаверади, демаганимга ҳали-хануз армон қиламан...

Опа бу олам билан хайрлашиб, тупроққа қўйилган куннинг эртасига Раъно ташвиш билан кўнғирок қилиб қолди. Нима эмиш, тушида Опа: “Менга “Ёсин” ўқиб қўймайсизми”, деб уни қувиб юрганмишлар. Мен Раънога ўлмасларидан олдин кўрган тушимни айтиб бердим... Шунақа, устозлар ҳамиша шогирд-



ekani sezildi. Men Opa rozi bo'lsalar "Yosin"ni o'qib qo'ymoqchiligimni aytdim. Ayol yotib qolgan bemorlarga "Yosin" o'qilishini tushunar ekan. "Voy, juda yaxshi bo'ladi, men hozir", deganicha ichkari kirib ketdi.

Bir ozdan keyn Rioyaxon chiqdilar-da, uz-rini aytib, Opa yonlariga do'xtirdan boshqa hech kimni qo'ymaslikni tayinlaganini aytdi, orqadan chiqib kelgan Hulkar ham bosh qimirlatib, Rioyaxonning gapini tasdiqladi. Xudo shifo bersin, deb orqaga qaytishdan boshqa ilojim qolmadi. Ammo ishxonaga kelib, "Yosin"ni o'qib, shifo tilab, Opa-ga bag'ishladim. O'shanda, Opaning xonalari-ga kirishim shart emas, qo'shni xonada o'qisam ham bo'laveradi, demaganimga hali-hanuz armon qilaman...

Opa bu olam bilan xayrlashib, tuproqqa qo'yilgan kunning ertasiga Ra'no tashvish bilan qo'ng'iroq qilib qoldi. Nima emish, tushida Opa: "Menga "Yosin" o'qib qo'y-maysizmi", deb uni quvib yurganmishlar. Men

ларидан дуо кутадилар... Ўтганларнинг жойлари жаннатдан бўлсин, омин!

*Камина ушбу рисоланинг дастлабида қўйилган саволларга қанчалик жавоб топа олдим, билмадим? Бу ёғи Опани мендан-да яхши билган қадрдонлари, шогирдлари, зийрак ўқувчиларимизга ҳавола. Балки рисола янада бойитишга, пишиқ-пухта қилишга ёрдамга келиб, улуг инсон билан боғлиқ дақиқ воқеалар, ҳолатларни камина билан баҳам кўрарсизлар. Опа ўзбек аёлига хос бўлган чексиз фазилатлар уммонини ўзида жам қилган инсон эдилар. Сизга илинганларимиз ўша уммондан бир ирмоқ, холос. Қанийди, уммонни уммонлигича авлодларга етказа олсак, нур устига, нур бўларди!*



Ra'noga o'lmaslaridan oldin ko'rgan tushimni aytib berdim... Shunaqa, ustozlar hamisha shogirdlaridan duo kutadilar... O'tganlarning joylari jannatdan bo'lsin, omin!

*Kamina ushbu risolaning dastlabida qo'yilgan savollarga qanchalik javob topa oldim, bilmadim? Bu yog'i Opani mendan-da yaxshi bilgan qarddonlari, shogirdlari, ziyrak o'quvchilarimizga havola. Balki risolani yanada boyitishga, pishiq-puxta qilishga yordamga kelib, ulug' inson bilan bog'liq daqiq voqealar, holatlarni kamina bilan baham ko'rarsizlar. Opa o'zbek ayoliga xos bo'lgan cheksiz fazilatlar ummonini o'zida jam qilgan inson edilar. Sizga ilinganlarimiz o'sha ummondan bir irmoq, xolos. Qaniydi, ummonni ummonligicha avlodlarga yetkaza olsak, nur ustiga, nur bo'lardi!*





Насима опанинг “буқаси” .....	228-229
Одамизод .....	232-233
Журналистик таҳлил .....	236-237
Ариза .....	244-245
Бир пуд туз .....	256-257
Опа ҳали узок яшайдилар .....	264-265
Холида опа .....	278-279
Орадан йиллар ўтиб... ..	284-285
Йиллар ўтиб, яна бир воқеа... ..	290-291
Туш .....	294-295